

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



“IQTISODIYOT VA BOSHQARUV” FAKULTETI

“ IQTISODIYOT” KAFEDRASI

M. ISAKOV

**REAL SEKTORNI DAVLAT TOMONIDAN
TARTIBGA SOLISH**

fani bo‘yicha

O‘QUV USLUBIY MAJMUA



NAMANGAN-2024

«Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish» fanidan o‘quv-uslubiy majmua. –
Namangan ., NamMQI, 2024 yil 213 bet.

Tuzuvchi:

M. Isakov - “Iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, i.f.n.

Taqrizchilar:

Saidboyev Sh. - NamMTI professori, i.f.d.;

I.Sirojiddinov - NamMQI «Iqtisod» kafedrasining dotsenti, i.f.n.

NamMQI “Iqtisodiyoti” kafedrasining 2024-yil 28 avgustdagi 1-sonli majlisida
muhokama qilingan.

O‘quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-qurilish instituti O‘quv uslubiy
Kengashining 2024 yil “30” avgustdagi 1-sonli qaroriga muvofiq o‘quv jarayoniga
tatbiq etish uchun tavsiya etilgan.



O'QUV-USLUBIY MAJMUANING TARKIBIY TUZILISHI

(ma'ruza mashg'uloti uchun)

№	Majmuaning tarkibiy qismlari	betlar
	Majmuaning qisqacha annotatsiyasi.....	4
	I. Fanning me'yoriy-uslubiy ta'minoti.....	6
1.	O'quv dasturi.....	6
2.	O'quv kursi sillabusi.....	20
3.	Ma'ruza mashg'ulotlari rejasi.....	30
	II. Fanning mazmuni va axborot-resurs ta'minoti.....	39
1.	Mavzular bo'yicha matn annotatsiyasi va oxirgi yangiliklar (<i>Mavzuga oid adabiyotlar, jurnallar va internet tarmog'idan olingan tarqatma materiallar, maqolalar</i>).....	39
2.	Mavzular bo'yicha taqdimot slaydlari va video roliklar.....	122
	III Fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari.....	182
1.	Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar sharhi.....	182
2.	Mustaqil ta'limga oid topshiriqlar.....	188
3.	Glossariylar.....	190
4.	Tavsiya etiladigan elektron jurnallar va internet saytlar.....	195

MAJMUANING QISQACHA ANNOTATSIYASI

O'quv-uslubiy majmua – NamMQI da bakalavriat va magistratura ta'lim bosqichlarining O'quv rejalarida aks etgan fanlar bo'yicha professor-o'qituvchining dars jarayonini tashkil etish va o'tkazish davrida o'quv-uslubiy tayyorligini tasdiqlovchi, tegishli mezonlarga asoslanishini ifodalovchi me'yoriy-uslubiy hujjatdir.

Majmuaning asosiy maqsadi – professor-o'qituvchining tayyorgarligini mustahkamlash va talabalarga fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda yetkazish, talabalarining fanni o'zlashtirishlariga xizmat qilishini nazarda tutgan yagona o'quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

O'quv-uslubiy majmua NamMQI bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- *fanning me'yoriy-uslubiy ta'minoti,*
- *fanning mazmuni va axborot-resurs ta'minoti,*
- *fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari,*
- *talabalarining bilimni baholash uslubiyoti,*
- *qo'shimcha elektron ta'lim resurslarini o'z ichiga olgan.*

Ilg'or xorijiy tajriba bilan uzviylik.

Mazkur majmua ilg'or xorijiy tajribani keng o'rganish, umumlashtirish va undan ta'lim va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-sonli qarorda “O'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovasion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish, asosiy e'tiborni talabalarining mustaqil ta'lim olishi bilan bog'liq mexanizmlarni amalga oshirishga qaratish” dolzarb vazifa sifatida belgilangan.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2017 yil 20 aprelda imzolangan “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorda “har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish”² vazifalari alohida ta'kidlangan.

Ushbu qarorlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ta'lim va tadqiqotlarning mazkur axborot-resurs manbaini ishlab chiqishda Dankin Universiteti, Massachusetts Texnologiya instituti va Nyu-York Davlat Universiteti (AQSH), Oksford

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 июндаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775-сонли қарор. www.lex.uz

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2909-сонли Қарори. “Халқ сўзи” газетаси, 2017 йил 21 апрель.

Universiteti, Bat Universiteti va London Metropoliten Universiteti (Buyuk Britaniya), Bremerxafen Universiteti (Germaniya), Vaseda Universiteti (Yaponiya), Kemyong Universiteti (Koreya Respublikasi), Shanxay Universiteti (XXR) va boshqa yetakchi xorijiy universitetlar boy ijobiy tajribasidan samarali foydalanildi.

Majmuani takomillashtirish masalalari.

Ushbu o'quv-uslubiy majmua o'quv yili mobaynida xalqaro va milliy iqtisodiyot tizimidagi o'zgarishlar va tendensiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o'quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-texnika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

“Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish” fani o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- real sektorni tartibga solishning davlat mexanizmi amal qilish sohalari va shakllari, bozor mexanizmi bilan o'zviyligini ta'minlash zarurligini ochib berish;

- real sektorni tartibga solish usulari borasidagi turli nazariyalar va konsepsiyalarni tahlil etish, davlat iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni tartibga solish usullarini o'rganish, bu boradagi rivojlangan mamlakatlar tajribalarini bilish;

- O'zbekistonda iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmining shakllanishi va rivojlanishi, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarish usullari, vositalari va yo'nalishlarini aniqlash;

- real sektorni davlat tomonidan tartibga solish usullarining maqsadi, vazifalari va ularni amalga oshirishning yo'nalishlari hamda iqtisodiyotni tartibga solishning shakl va vositalarini tahlil qilish;

- iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlari uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yo'nalishlarini tahlil qilish va bu borada qarorlar qabul qilishni o'rganadi.

Shuningdek, “Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi” fani fundamental fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

O‘QUV DASTURI

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti o'zining ob'yektiv qonunlari hamda o'zini-o'zi tartiblash dastaklari, vositalari orqali amal qiladi. Ammo bozor iqtisodiyotining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy jihatlari ham mavjuddir. Ularning eng asosiysi iqtisodiyotdagi ob'yektiv qonunlar va munosabatlar, regulyatorlar asosida shakllanadigan bozor muvozanati hamda mutanosibliklarning buzilishi oqibatida vujudga keladigan nomutanosibliklarning kuchayishi, iqtisodiy tanglik va inqirozlardir. Inqirozlar natijasida iqtisodiy pasayish, ishsizlik, inflyasiyaning kuchayishi, xalq turmush darajasining yomonlashuvi sodir bo'ladi. Shu boisdan ham davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va uni ustuvor ravishda iqtisodiy dastak va vositalar yordamida tartiblashi zarur bo'ladi. Bu esa zamonaviy bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartiblashning bozor mexanizmi bilan uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini uyg'unlashtirishni hamda unga mos ravishda davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirishni taqozo etadi.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo'g'iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida "O'zbekiston — 2030" strategiyasi tasdiqlandi³.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba asosida ishlab chiqilgan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilgan:

barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;

aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;

aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;

xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;

mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun davlatning iqtisodiy siyosati mamlakatimizda rivojlanayotgan bozor iqtisodiyotini tartiblash mexanizmini yanada takomillashtirish va bozorning o'zini-o'zi tartiblashning ob'yektiv mexanizmi bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. "Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish" fanini o'qitish asosida talabalarda real sektorni tartibga solishning davlat mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari, shakl va vositalari, davlatning iqtisodiy siyosati to'g'risidagi tizimli, keng qamrovli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda real sektorni tartibga solish davlat mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari, shakl va usul, vositalari, davlatning iqtisodiy siyosati to'g'risidagi tizimli, keng qamrovli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" Farmoni // www.lex.uz

Fanning vazifalari – real sektorni tartibga solishning bozor mexanizmi bilan birgalikda davlat mexanizmining amal qilish sohalarini va shakllarini ko'rsatish; real sektorni boshqarish va tartibga solishda davlat iqtisodiy siyosatining o'rni haqidagi turli konsepsiyalarni tahlil etish va rivojlangan mamlakatlar tajribalarini o'rganish; O'zbekistonda real sektorni tartibga solish mexanizmining shakllanishi va rivojlanishi, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarishi; davlat iqtisodiy siyosatining maqsadlari, vazifalari va ularni amalga oshirishning yo'nalishlari, usul va vositalarini hamda iqtisodiyotni tartibga solishning shakl va vositalarini tahlil qilish; iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlari uyg'unligini ta'minlash yo'nalishlarini o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

"Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr:

- asosiy kategoriyalarini va tadqiqot usullari;
- bozor iqtisodiyotining o'zini o'zi tartibga solishi mexanizmining kamchiliklari, salbiy oqibatlariga, ya'ni inqirozlarga olib kelishi mumkinligi, bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning zarurligi;
- davlatning iqtisodiy vazifalari;
- davlat iqtisodiy siyosati va real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari, bu boradagi turli nazariy konsepsiyalar, davlat iqtisodiy siyosatining va real sektorni davlat tomonidan tartibga solish shakllari, usullari va vositalari **haqida tasavvurga ega bo'lishi;**
- davlatning iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish va uni modernizatsiya qilishga qaratilgan tarkibiy-investision siyosati;
- davlatning agrar, antimonopol, mintaqaviy, iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda ekologiya sohalaridagi siyosatlarining maqsad va vazifalari;
- yuqoridagilarni amalga oshirish usullarini va vositalarini tahlil qila **bilishi va ulardan foydalana olishi;**
- davlat iqtisodiy siyosatida real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq, pul-kredit vositalarni qo'llash;
- ijtimoiy sohani boshqarish, ijtimoiy jarayonlarni tartibga solish usullarini tahlil qilish;
- davlatning mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash indikatorlarini tahlil qilish;
- kon'yunkturaviy o'zgarishlar sharoitda ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda yuz berayotgan jarayonlarga baho berish;
- O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida barqaror, mutanosib o'sishni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflarni hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**
- O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil qilish va uni tartibga solishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

"Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish" fani mutaxassislik fan hisoblanib, 3-

semestrda o'qitiladi.

Mazkur fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun talabalar o'quv rejasida ko'zda tutilgan umummetodologik va mutaxassislik fanlardan: Ilmiy tadqiqot metodologiyasi, Ma'muriy va xo'jalik huquqi, Ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni modellash va prognozlash, Mikroiqtisodiyot-2, Real sektorda investision va innovasion faoliyat, Korporativ boshqaruv va raqobatni rivojlantirish, Real sektorda sifatni boshqarish kabi fanlardan yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rnini

O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida makroiqtisodiy muvozanatni va mutanosiblikni, yuqori, barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, faol ishbilarmonlik va investisiya muhitini yanada yaxshilash, inflyatsiya va ishsizlik darajalarini maqbul darajada ushlab turish, aholining ish bilan bandligini va turmush darajasini oshirish, mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini va raqobatbardoshligini, iqtisodiy - moliyaviy inqirozlarga bardoshligini ta'minlash, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashish kabi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish davlat iqtisodiy siyosati maqsad va vazifalari hamda bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solish usullari va vositalarining qay darajada ilmiy asoslanganligi hamda real voqelikni hisobga olib qo'llanilayotganligiga bog'liq. Shuning uchun "Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish" fani davlat tomonidan makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy siyosatlarini amalga oshirish, real sektorni tartibga solish, uning bozor va davlat mexanizmlari amal qilishining uzviyligini ta'minlash uchun ilmiy-nazariy asos bo'lib hisoblanadi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Talabalarning "Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish" fanini o'zlashtirishlari uchun ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, o'quv-uslubiy majmua, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlardan foydalaniladi. Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida "insert", "blis-so'rov", "klaster", "aqliy hujum" kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi. Shuningdek mashg'ulotlar davomida "zig-zag", "guruh bo'lib ishlash", "insert", "koop-koop" va boshqa shu kabi pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

ASOSIY QISM

1-Mavzu Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning funksiyalari va iqtisodiy siyosatining maqsadlari

Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. Faqat bozor yoki bozor mexanizmi orqali tartibga solib bo'lmaydigan ijtimoiy va takror ishlab chiqarish jarayonlari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar. Iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmuni. Iqtisodiy siyosat elementlari va tamoyillari. Jamiyat va davlat manfaatlarining ustuvorligi. Iqtisodiyot sub'yektlarining hokimiyat organlari bilan o'zaro munosabatlari. Iqtisodiy resurs va daromadlarning aylanishini oqilona boshqarish. Iqtisodiy siyosat texnologiyalari. Iqtisodiy sohani boshqarish va tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari va vositalari. Iqtisodiy siyosat maqsadlari. Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning samarali tizimini yaratish. Siyosiy va iqtisodiy strategiya. Davlat iqtisodiy strategiyasi turlarining klassifikatsiyasi. Iqtisodiy siyosat turlarining klassifikatsiyasi.

2-Mavzu Davlat iqtisodiy siyosati va real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari

Merkantilizm maktabi namoyondalari va fiziokrat maktabi asoschisi Fransua Kenening iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqidagi nazariy qarashlari. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o'rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari konsepsiyasi. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi saboqlari va inqirozga uchraga niqtisodiy liberalizm nazariyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor mexanizmi o'rni haqida. Davlatning iqtisodiy roli va siyosati haqidagi qarashlar borasida Keyns inqilobi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo'yicha Keyns konsepsiyasining asosiy mazmuni. Zamonaviy nazariyada ikki muqobil maktablarning aralashishi: yangi konservator va yangi keynschilik. Monetar nazariya va siyosatning iqtisodiyotni tartiblash vositalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va xususiyatlari.

3-Mavzu Iqtisodiy islohotlar va real sektorni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi

Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar maqsadi va strategiyasi. Davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifalari. Sobiq totalitar tuzumning iqtisodiyotni boshqarish organlari va ularning markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlik boshqarish usullarining salbiy oqibatlari. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida institusional(ma'muriy) islohotlarining zarurligi va maqsadi. Institusional(ma'muriy) islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Institusional(ma'muriy) islohotlar va iqtisodiyotni boshqarish tizimining tubdan o'zgartirilishi jarayonlari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning yangi tizimining yaratilishi. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan yangi strategiyasi va siyosatining maqsadi, vazifalari va asosiy yo'nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi

davom etayotgan sharoitda O'zbekistonda davlat iqtisodiy siyosatining iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi faoliyatining ijobiy natijalari.

4-mavzu O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi

Davlat mulki va tadbirkorligi. Iqtisodiy siyosatda davlat mulkining o'rni va ahamiyati masalasi. Davlat mulkining bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati. Iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarining o'zaro aloqadorligi hamda ta'siri. Davlat tadbirkorligi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati. Davlat tomonidan xususiy biznes va tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantirish mexanizmi. Davlatning mulkchilik munosabatlarini tartibga solish siyosati. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari. Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichining o'ziga hos xususiyatlari. Davlat mulkini boshqarish. Davlat mulkining xususiy sektor rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati. Davlat haridi va uning ichki bozorni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati. Xususiy mulk va mulkchilik munosabatlarining davlat tomonidan himoya qilinishi va kafolatlanishi. Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari

5-mavzu Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozlashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozlashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o'rni. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiktisodiy, uzoq va o'rta muddatli prognozlar. Ilmiy prognozlashtirishning prinsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari. Dasturlash va rejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funksiyalari sifatida. Dasturli-maqсадli rejalashtirish nazariyasining asoslari. Maqsadli dasturlar klassifikatsiyasi va ularni ishlab chiqish prinsiplari va bosqichlari. Direktiv reja. Indikativ rejalashtirish. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozlashtirish, rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Rivojlangan mamlakatlarning prognozlashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashtirish va dasturlash. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy dasturning ustuvor yo'nalishlari. Eng muhim tarmoq, sohalarni rivojlantirish dasturlari.

6-mavzu Iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish

Raqobat kategoriyasining mohiyati va shakllari. Raqobatlashish usullari. Raqobatning vazifalari va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati. Raqobatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo'nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. O'zbekistonda davlatning raqobat siyosati. Davlat tomonidan raqobatni qo'llab

quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadlari hamda yo‘nalishlari O‘zbekiston Respublikasining “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunining mazmuni va uning monopolistik faoliyatni tartibga solish hamda raqobatni rivojlantirish, himoya qilishdagi ahamiyati. Raqobatni yanada rivojlantirish va himoya qilishni kuchaytirish yo‘llari.

7-mavzu Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx hamda inflyasiyaga qarshi siyosatlari

Narx va qiymatning zamonaviy nazariyasi - mehnatning qiymati va qiymatni qayta taqsimlash nazariyasining sintezi sifatida. Mehnatning qiymati nazariyasi va qayta taqsimlangan qiymat nazariyalarining zamonaviy nazariyadan farqi. Sobiq Sovet ittifoqi va uning respublikalaridagi markazlashgan-rejali iqtisodiyotda narx belgilashning bozor iqtisodiyotidagi narx belgilashdan farqi. Davlatning ijtimoiy siyosatida narx belgilashning o‘rni. Bozor iqtisodiyotida narx ko‘rinishlari. Narx va uning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Narxning regulyatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari va vositalari. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, MDH mamlakatlari va AQSH da qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini narxini boshqarish xususiyatlari. Davlatning inflyasiyaga qarshi siyosatining maqsadi, usullari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida inflyasion jarayonlarning xususiyatlari va uni oldini olish choralari.

8-mavzu Real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari

Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muxim shakli sifatida. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat byudjeti va YAIM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich sifatida. Davlatning byudjet siyosati. Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi iqtisodiyotni davlat boshqaruvi ko‘rsatkichi sifatida. O‘zbekiston davlat byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari. Soliq va uning vazifalari. Soliq va iqtisodiy o‘sish. Davlatning fiskal siyosati. Soliq imtiyozlari alohida ishlab chiqarish turlarini rag‘batlantirish vositasi sifatida. Soliq imtiyozlarining asosiy ko‘rinishlari: soliq krediti, tezlashtirilgan amortizatsiya, tovar ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish, chet el investisiyalarini jalb qiluvchi imtiyozlar, ba’zi ishlab chiqarish ko‘rinishlarini soliqlardan ozod qilish. O‘zbekistonda soliq tizimini yanada takomillashtirish va uning rag‘batlantiruvchilik rolini kuchaytirish yo‘llari.

9-mavzu Real sektorni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari

Pul va pul muomalasi, pulga bo‘lgan talab va pul taklifi. Davlatning pul muomalasini tartibga solishi. Pul emissiyasi va uni nazorat qilish. Kredit va bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Davlatning monetar siyosati va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati. Pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli. O‘zbekistonning kredit tizimi. O‘zbekistonning bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyotni, biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartiblash muammolari.

Jahon moliyaviy – inqirozining yuz berish sabablari. O‘zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishda bank tizimining roli. Pul-kredit tizimini tartibga solishni yanada takomillashtirish yo‘nalishlari.

10-mavzu Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati

Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli. Ijtimoiy siyosat tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi. “Ijtimoiy davlat” tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari. Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va ulushi. O‘zbekistonda davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta‘minlash yo‘llari. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o‘stirish. Kam ta‘minlangan aholini ijtimoiy himoyalash. O‘zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat mexanizmining va kam ta‘minlangan aholini ijtimoiy himoyalash tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Davlatning ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi siyosatining maqsadlari va ularni amalga oshirishning yo‘nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O‘zbekistonda aholini ijtimoiy qullab-quvvatlash va turmush darajasini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari.

11-mavzu Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash vazifalari

Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uni ta‘minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo‘lish shakllari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko‘rsatkichlari indikatorlari. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash maqsadlari vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari. O‘zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda erishilgan natijalar istiqbol yo‘nalishlar. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash masalalari. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, uyushmalar faoliyatida ishtiroki bilan bog‘liq iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash yo‘llari. Mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlashning uzviy bog‘liqligi.

12-mavzu Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi siljish va o‘zgarishlar, ularni belgilab beruvchi omillar. Davlat tarkibiy siyosatining mazmuni, zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Tarkibiy siyosatning maqsadi, prinsiplari va yo‘nalishlari. O‘zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o‘zgartirishning zarurligi. O‘zbekistonda davlatning tarkibiy siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari. Chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni amalga oshirishning asosiy bosqichlari va yo‘nalishlari.

Investisiyalar va investision faoliyat. Investisiya siyosatining mazmuni va uning davlat iqtisodiy siyosatidagi o‘rni. Investisiyasohasidagi davlatning uzoq muddatli strategiyasi va uning ustuvor jihatlari. O‘zbekistonda davlat investision siyosatining maqsadlari va asosiy yo‘nalishlari. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni rag‘batlantirish. Investision faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalalari. Aholi jamg‘armalarini va korxonalarining o‘z mablag‘larini investisiya jarayonlariga jalb etishni rag‘batlantirish yo‘llari.

13-mavzu Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash

Davlat agrar siyosatining mohiyati va maqsadi. Qishloq xo'jaligi sohasiga davlat aralashuvining zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirish zarurati. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasi. Fermerlikni rivojlantirishda davlatning roli. Qishloq xo'jaligi rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari. O'zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari. Agrar sohadagi mulkiy, moliya, narx sohalaridagi hamda yer va suv islohotlari. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi. Agrar sohada xo'jalik yuritish shakllari. O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari. Agrosanoat majmuasi va uni rivojlantirish yo'nalishlari.

14-mavzu O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi

Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlatning iqtisodiy siyosati. Davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari. Davlat tomonidan ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy qulay sharoit va muhitning tug'dirib berilishi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimi. Tadbirkorlik sub'yektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi prinsipning joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferensiyalar. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va ularni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vazifalari. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari. Xususiy mulk va sektorning ustuvorligini amalga ta'minlash, uni qo'llab-quvvatlash va dahlsizligini kafolatlashning istiqbol yo'nalishlari.

15-mavzu Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari

Mintaqaviy iqtisodiyot. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, prinsiplari va maqsadlari. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va ularni tenglashtirish muammolari. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari. Davlatning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari va ularni amalga oshirish yo'llari. Hududlarning rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish chora-tadbirlari. Davlatning mintaqaviy siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.

16-mavzu Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati

Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Atrof-muhit monitoringi. Ekologik me'yorlashtirish. Ekologik standartlar. Davlatning ekologik ekspertizasi. Ekologik lisenziyalashtirish. Ekologik nazorat. Ekologiyani davlat tomonidan himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi. Tabiiy resurslar va ob'ektlarning kadastri. Ekologik moliyalashtirish. Ekologik sug'urtalash fondlari. Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish jarayonlarini boshqarish bo'yicha davlat organlarining vazifalari. O'zbekistonda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonuni va uning ahamiyati. Davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish yo'llari.

17-mavzu O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi

Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlari va ularni tartibga solish prinsiplari. Ilmiy asosga ega bo'lgan tashqi iqtisodiy strategiya va siyosat. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va uning tarkibiy qismlari. Davlatning tashqi savdo siyosati. Eksport siyosati. Import siyosati. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari. Bojxona ishi. Boj to'lovlari. Demping va antidemping, eksport va import tovar oqimlarini kvotalash. Lisenziyalash. O'zbekistonda tashqi iqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari. Tashqi savdo siyosatini faollashtirish yo'llari. O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlari. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarida ishtirok etishini davlat tomonidan tartibga solishi. Mamlakat iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlashda davlatning roli va vazifalari. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini takomillashtirish yo'llari.

Amaliy mashg'ulotlarning taxminiy ro'yxati

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning funksiyalari va iqtisodiy siyosatining maqsadlari.
2. Davlat iqtisodiy siyosati va real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari.
3. O'zbekistonda islohotlar va davlat iqtisodiy siyosatining real sektorni tartibga solish mexanizmining shakllanishi.
4. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi.
5. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish.
6. Iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.
7. Bozor iqtisodiyotida narxning regulatorlik vazifasi va davlatning narx hamda inflyasiyaga qarshi siyosatlari.
8. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari.
9. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari.
10. Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati.
11. Davlatning agrar siyosati va uning O'zbekistondagi xususiyatlari.
12. Davlatning iqtisodiyotda xususiy tarmoq va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash siyosati.

13. Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.

14. Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati.

15. Davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish siyosati.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishi namunaviy o'quv rejasida rejalashtirilmagan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talaba mustaqil ta'limning asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzular bo'yicha axborot (referat, taqdimot) tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;

– maxsus adabiyotlar bo'yicha fanning bo'lim yoki mavzulari ustida ishlash;

– talabalarning o'quv-ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanning bo'lim va mavzularini chuqur o'rganish;

– keys-stadilar va o'quv loyihalarini mustaqil bajara olish;

– faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish;

– ilmiy maqola, tezislar, turli ilmiy anjumanlarga ma'ruza tayyorlash va h.k.

Mustaqil ishni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatma va tavsiyalar, keys-stadi, vaziyatli masalalar to'plami ishlab chiqiladi. Unda talabalarga asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha amaliy topshiriq, keys-stadilar yechish uslubi va mustaqil ishlash uchun vazifalar belgilanadi.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari

1. O'zbekistonda davlat iqtisodiy siyosatining maqsadlari, prinsiplari va asosiy yo'nalishlari

2. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlashtirish va maqsadli dasturlashning mexanizmi

3. Davlatning soliq-byudjet siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli

4. Davlatning monetar siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli

5. Davlatning raqobat siyosati va mamlakatda raqobat muhitini shakllantirish yo'llari

6. Davlatning agrar siyosati va qishloq xo'jaligidagi islohotlar

7. Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishi darajalaridagi farqlarni kamaytirish yo'llari

10. Davlatning ekologik nazorat vositalari va usullari

11. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotgan sharoitda davlatning faol eksport siyosatini amalga oshirish mexanizmi

12. Korxonalarning tashqi bozorga chiqishlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish yo'llari

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy ilg'or inter faol usullaridan, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining prezentatsiya (taqdimot), multimedia va elektro-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda aqliy hujum, klaster, blis-so'rov, guruh bilan ishlash, insert, taqdimot, keys-stadi kabi usul va texnikalardan keng foydalaniladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. Principles for Economic Regulation. Department for Business, Innovation and Skills. London, 2011
2. Government Regulation of Industry. MIT & University of Cambridge. 2012
3. R. Preston McAfee; Tracy Lewis; Donald J. Dale. Introduction to Economic Analysis. 2012, - 346 p.
4. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.- T.: Akademiya, 2012.- 455 bet
5. Abulkasimov H., Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.- T.: "Iqtisod-moliya", 2014. – 304 bet

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. // Xalq so'zi. 8 fevral 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi "20178-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovasion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab – quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida"gi PF-5308-sonli Farmoni. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar bo'yicha davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi 31.03.2017 yildagi PF-4996-son Farmoni. Xalq so'zi. 2017y., 65(6759)-son.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish va savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 24.03.2018 yildagi Qarori. www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //Xalq so'zi, 23 dekabr 2017 yil.
6. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
9. Bekmurodov A., Boltaboyev M., G'oyibnazarov B., Amonboyev M., Toshxo'jayev M. O'zbekiston iqtisodiyotni liberallashtirish yillarida. 1-qism. Makroiqtisodiy siyosat va iqtisodiy islohotlar. T.: TDIU, 2005. – 60 b.
10. Gosudarstvennoye regulirovaniye ekonomiki: Uchebnik / V. I. Kushlin. M.: Ekonomika, 2013. — 495 s. — (Vyssheye obrazovaniye).

11. I.P. Vorobyeva. Gosudarstvennoye regulirovaniye nasionalnoy ekonomiki. Uchebnoye posobiye. Izdatelskiy dom Tomskogo gosudarstvennogo universiteta, 2014. – 292 str.

12. S.A.Demkina. Gosudarstvennoye regulirovaniye ekonomiki. Metodicheskiye rekomendatsii po podgotovke k prakticheskim zanyatiyam i organizatsii samostoyatelnoy raboty studentov ochnoy i zaочноy form obucheniya. Lipesk 2013, 47 str.

O‘QUV KURSINING SILLABUSI

O'QUV KURSINING SILLABUSI

(2024/2025 o'quv yili)

O'quv kursining to'liq nomi:	Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish		
Kursning qisqacha nomi:	RSDTTS	Kod: RSDTTS	
Kafedra:	Iqtisodiyot		
O'qituvchi haqida ma'lumot:	Isakov M.Yu i.f.n., dotsent		
Semestr va o'quv kursining davomiyligi	2-kurs, 3-semestr, 20 hafta		
O'quv soatlari xajmi:	jami:	88	
	shuningdan:		
	ma'ruza	40	
	seminar		
	amaliy	20	
	mustaqil ta'lim	28	
Yo'nalish nomi va shifri	70310102	– Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)	
O'quv kursining statusi	Asosiy o'quv kursi		
Dastlabki tayyorgarlik:	Kurs “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan o'zlashtirilayotgan bilimlarga asoslanadi.		
Kursning predmeti va mazmuni: Kursning predmeti ijtimoiy-iqtisodiy xodisa va jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni o'rganishdan iborat. Kurs ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash maqsadida bugungi kundagi strategik va taktik rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirishning nazariy hamda amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Kursni o'qitishning maqsadi va vazifalari: “Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish” fanini o'qitishdan maqsad - talabalarda iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmining o'ziga xos xususiyatlari, shakl va usul,vositalari, davlatning iqtisodiy siyosati to'g'risidagi tizimli,keng qamrovli nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini xosil qilishdan iborat. Fanning asosiy vazifalari: - iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmining amal qilish sohalarini va shakllarini, bozor mexanizmi bilan o'zviyiligini ta'minlash zarurligini ochib berish; - iqtisodiyotni tartibga solish usulari borasidagi turli nazariyalar va konsepsiyalarni tahlil etish, davlat iqtisodiy siyosatidan kelib chiqqan holda iqtisodiyotni tartibga solish usullarini o'rganish, bu boradagi rivojlangan mamlakatlar tajribalarini bilish; - O'zbekistonda iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmining shakllanishi va rivojlanishi, davlatning bosh islohotchi vazifasini bajarish usullari, vositalari va yo'nalishlarini aniqlash; - iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullarining maqsadlari, vazifalari va ularni amalga oshirishning yo'nalishlari hamda iqtisodiyotni tartibga solishning shakl va vositalarini tahlil qilish; - iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlari uyg'unligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar yo'nalishlarini tahlil qilish va bu borada qarorlar qabul qilishni o'rganadi. “Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish” o'quv kursini o'rganish natijasida talabalar: – davlatning iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish va uni modernizatsiya qilishga qaratilgan tarkibiy-investision siyosatini, davlatning agrar, antimonopol, mintaqaviy, iqtisodiyotda xususiy			

tarmoq va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda ekologiya sohalaridagi siyosatlarining maqsad va vazifalarini bilishi kerak;

– O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash asosida barqaror, mutanosib o‘shishni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflarni hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy xodisa va jarayonlarni tahlil qilish va uni tartibga solishga oid chora-tadbirlarni ishlab chiqish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Kursning tematik tarkibi va mazmuni

№	Mavzular nomi	Auditoriya soatlari			Mustaqil ta’lim	Jami
		jami	shu jumladan:			
			Ma’ruza	Amaliy (seminar)		
1	2	3	4	5	6	7
4-semestr						
1.	“Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish” fanining predmeti, tahlil usullari va maqsadlari	2	2			2
2.	Real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari.	2	2			2
3.	Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi	4	2	2		4
4.	O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi.	2	2		2	4
5.	Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozlashtirish va rejalashtirish.	4	2	2	2	6
6.	Iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.	4	2	2	2	6
7.	Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx hamda inflyasiyaga qarshi siyosatlari.	6	4	2	2	8
8.	Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari.	4	2	2	2	6
9.	Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari.	6	4	2	2	8
10.	Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.	2	2		2	4
11.	Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash vazifalari.	4	2	2	2	6
12.	Davlatning tarkibiy-investisiyaviy siyosati.	2	2		2	4
13.	Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo‘llab – quvvatlash	4	2	2	2	6

14.	O'zbekistonda kichik bizns va xususiy tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi.	4	2	2	2	6
15.	Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.	4	2	2	2	6
16.	Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati.	2	2		2	4
17.	O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi	4	4		2	6
Jami		60	40	20	28	88

1-mavzu. “Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish” fanining predmeti, tahlil usullari va maqsadlari. Iqtisodiyotni boshqarishning bozor mexanizmi, uning faoliyat sohasi. Faoliyat sohasining chegaralari. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati. Faqat bozor yoki bozor mexanizmi orqali tartibga solib bo'lmaydigan ijtimoiy va takror ishlab chiqarish jarayonlari. Davlat bajarishi shart bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalari va vazifalari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishdan ko'zlangan asosiy maqsadlar. Iqtisodiy siyosat tushunchasining mazmuni. Iqtisodiy siyosat elementlari va tamoyillari. Iqtisodiy siyosat texnologiyalari. Iqtisodiy sohani boshqarish va tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari va vositalari. Iqtisodiy siyosat maqsadlari. Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishning samarali tizimini yaratish. Siyosiy va iqtisodiy strategiya. Iqtisodiy siyosat turlarining klassifikatsiyasi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida iqtisodiyotni tartibga solinishning o'ziga xos yo'li.

2-mavzu. Real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari. Merkantilizm maktabi namoyondalari va fiziokrat maktabi asoschisi Fransua Kenening iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roli haqidagi nazariy qarashlari. Iqtisodiy rivojlanishda davlatning o'rni haqida Angliya klassik siyosiy iqtisod namoyondalari konsepsiyasi. Iqtisodiy liberalizm, iqtisodiy rivojlanishda davlatning roli muammolari va uning mazmuni. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi saboqlari va inqirozga uchragan iqtisodiy liberalizm nazariyasida iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor mexanizmi o'rni haqida. Davlatning iqtisodiy roli va siyosati haqidagi qarashlar borasida Keyns inqilobi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish usullari va shakllari bo'yicha Keyns konsepsiyasining asosiy mazmuni. Iqtisodiy rivojlanishni boshqarishda davlatning roli haqida zamonaviy nazariya. Zamonaviy nazariyada ikki muqobil maktablarning aralashishi: yangi konservator va yangi keynschilik. Monetar nazariya va siyosatning iqtisodiyotni tartiblash vositalari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va xususiyatlari.

3-mavzu. Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar maqsadi va strategiyasi. Davlatning bosh islohotchi sifatidagi vazifalari. Sobiq totalitar tuzumning iqtisodiyotni boshqarish organlari va ularning markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlik boshqarish usullarining salbiy oqibatlari. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida institusional(ma'muriy) islohotlarining zarurligi va maqsadi. Institusional(ma'muriy) islohotlarning asosiy yo'nalishlari. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning yangi tizimining yaratilishi. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishga qaratilgan yangi strategiyasi va siyosatining maqsadi, vazifalari va asosiy yo'nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan sharoitda O'zbekistonda davlat iqtisodiy siyosatining iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi faoliyatining ijobiy natijalari.

4-mavzu. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi. Davlat mulki va tadbirkorligi. Iqtisodiy siyosatda davlat mulkining o'rni va

ahamiyati masalasi. Davlat mulkining bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati. Iqtisodiyotning davlat va xususiy sektorlarining o'zaro aloqadorligi hamda ta'siri. Davlat tadbirkorligi va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadi va bosqichlari. Davlat mulkini xususiylashtirishning hozirgi bosqichining o'ziga hos xususiyatlari. Davlat mulkini boshqarish. Davlat mulkining xususiy sektor rivojlanishini qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati. Davlat haridi va uning ichki bozorni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi ahamiyati. Xususiy mulk va mulkchilik munosabatlarining davlat tomonidan himoya qilinishi va kafolatlanishi. Davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari.

5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozashtirish va rejalashtirish. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash va prognozashtirishning zarurligi va ahamiyati. Prognozashtirishning iqtisodiy siyosatda tutgan o'rni. Prognozlar klassifikatsiyasi: faol va passiv, makroiqtisodiy va mikroiktisodiy, uzoq va o'rta muddatli prognozlar. Ilmiy prognozashtirishning prinsiplari va prognozlarni ishlab chiqish bosqichlari, usullari. Dasturlash va rejalashtirish davlatning iqtisodiy boshqaruvi funksiyalari sifatida. Dasturli-maqsadli rejalashtirish nazariyasining asoslari. Maqsadli dasturlar klassifikatsiyasi va ularni ishlab chiqish prinsiplari va bosqichlari. Direktiv reja. Indikativ rejalashtirish. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozashtirish, rejalashtirish vositalari yordamida davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati. Rivojlangan mamlakatlarning prognozashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozashtirish va dasturlash. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy dasturning ustuvor yo'nalishlari. Eng muhim tarmoq, sohalarni rivojlantirish dasturlari.

6-mavzu. Iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish. Raqobatning kategoriyasining mohiyati va shakllari. Raqobatlashish usullari. Raqobatning vazifalari va uning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyati. Raqobatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishdagi roli. Monopoliya va uning vujudga kelish sabablari. Iqtisodiy monopolizm va uning salbiy oqibatlari. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosati va uning asosiy yo'nalishlari, usullari. Rivojlangan mamlakatlarda antimonopol siyosatni amalga oshirilishi tajribalari. O'zbekistonda davlatning raqobat siyosati. Davlat tomonidan raqobatni qo'llab quvvatlash va rag'batlantirish maqsadlari hamda yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonunining mazmuni va uning monopolistik faoliyatni tartibga solish hamda raqobatni rivojlantirish, himoya qilishdagi ahamiyati. Raqobatni yanada rivojlantirish va himoya qilishni kuchaytirish yo'llari.

7-mavzu. Bozor iqtisodiyotida narxning reguliatorlik vazifasi va davlatning narx hamda inflyasiyaga qarshi siyosatlari. Narx va qiymatning zamonaviy nazariyasi - mehnatning qiymati va qiymatni qayta taqsimlash nazariyasining sintezi sifatida. Mehnatning qiymati nazariyasi va qayta taqsimlangan qiymat nazariyalarining zamonaviy nazariyadan farqi. Sobiq Sovet ittifoqi va uning respublikalaridagi markazlashgan-rejali iqtisodiyotda narx belgilashning bozor iqtisodiyotidagi narx belgilashdan farqi. Davlatning ijtimoiy siyosatida narx belgilashning o'rni. Bozor iqtisodiyotida narx ko'rinishlari. Narx va uning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Narxning reguliatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari va vositalari. Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Yaponiya, MDH mamlakatlari va AQSH da qishloq xo'jaligi mahsulotlarini narxini boshqarish xususiyatlari. Davlatning inflyasiyaga qarshi siyosatining maqsadi, usullari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida inflyasion jarayonlarning xususiyatlari va uni oldini olish choralari.

8-mavzu. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliqsiyosati vositalari. Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muxim shakli sifatida. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat byudjeti va YAIM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida. Davlatning byudjet siyosati. Aholining ijtimoiy qatlami, mamlakat hududlari, iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida davlat byudjeti resurslarining taqsimlanishi iqtisodiyotni davlat boshqaruvi ko'rsatkichi sifatida.

O'zbekiston davlat byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari. Soliq va uning vazifalari. Soliq va iqtisodiy o'sish. Davlatning fiskal siyosati. Soliq imtiyozlari alohida ishlab chiqarish turlarini rag'batlantirish vositasi sifatida. Soliq imtiyozlarining asosiy ko'rinishlari: soliq krediti, tezlashtirilgan amortizatsiya, tovar ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish, chet el investisiyalarini jalb qiluvchi imtiyozlar, ba'zi ishlab chiqarish ko'rinishlarini soliqlardan ozod qilish. O'zbekistonda soliq tizimini yanada takomillashtirish va uning rag'batlantiruvchilik rolini kuchaytirish yo'llari.

9-mavzu. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari. Pul va pul muomalasi, pulga bo'lgan talab va pul taklifi. Davlatning pul muomalasini tartibga solishi. Pul emissiyasi va uni nazorat qilish. Kredit va bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi vazifalari. Davlatning monetar siyosati va uning iqtisodiyotni tartibga solishdagi ahamiyati. Pul-kredit siyosati vositalarining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli. O'zbekistonning kredit tizimi. O'zbekistonning bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Iqtisodiyotni, biznes va xususiy tadbirkorlikni kreditlash va moliyaviy qo'llab-quvvatlash. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotni pul-kredit vositalari orqali tartiblash muammolari. Jahon moliyaviy –inqirozining yuz berish sabablari. O'zbekistonda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatishda bank tizimining roli. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotgan sharoitda O'zbekistonda bank tizimini yanada mustahkamlash va rivojlantirish yo'llari. Pul-kredit tizimini tartibga solishni yanada takomillashtirish yo'nalishlari.

10-mavzu. Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati. Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli. Ijtimoiy (sosal) siyosat tushunchalarining mazmuni. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy siyosat tushunchalarining o'zaro bog'liqligi. "Ijtimoiy davlat" tushunchasining mazmuni. Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning asosiy chora-tadbirlari. Aholi turmush darajasini oshirish samarali ijtimoiy siyosatning maqsadi ekanligi. Ijtimoiy sohada davlat boshqaruvining shakllari va vositalari. O'zbekistonda davlatning bandlik siyosati va aholini ish bilan ta'minlash yo'llari. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o'stirish. Kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat mexanizmining va kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalash tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Davlatning ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalaridagi siyosatining maqsadlari va ularni amalga oshirishning yo'nalishlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida O'zbekistonda aholini ijtimoiy qullab-quvvatlash va turmush darajasini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.

11-mavzu. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati va uni ta'minlashning ahamiyati. Iqtisodiy xavfsizlikning namoyon bo'lish shakllari. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari indikatorlari. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlari vazifalari. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari. O'zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda erishilgan natijalar istiqbol yo'nalishlar. Mamlakatimizda jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida tashqi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari. O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, uyushmalar faoliyatida ishtiroki bilan bog'liq iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari. Mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning uzviy bog'liqligi.

12-mavzu. Davlatning tarkibiy-investisiyaviy siyosati. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi siljish va o'zgarishlar, ularni belgilab beruvchi omillar. Davlat tarkibiy siyosatining mazmuni, zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Tarkibiy siyosatning maqsadi, prinsiplari va yo'nalishlari. O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishning zarurligi. O'zbekistonda davlatning tarkibiy siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. Chuqur tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishni amalga oshirishning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari.

Investisiyalar va investision faoliyat. Investisiya siyosatining mazmuni va uning davlat iqtisodiy siyosatidagi o'rni. Investisiyasohasidagi davlatning uzoq muddatli strategiyasi va uning ustuvor jihatlari. O'zbekistonda davlat investision siyosatining maqsadlari va asosiy yo'nalishlari. To'g'ridan-

to'g'ri xorijiy investisiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni rag'batlantirish. Investision faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish masalalari. Aholi jamg'armalarini va korxonalarning o'z mablag'larini investisiya jarayonlariga jalb etishni rag'batlantirish yo'llari.

13-mavzu. Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash. Davlat agrar siyosatining mohiyati va maqsadi. Qishloq xo'jaligi sohasiga davlat aralashuvining zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirish zarurati. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga davlat buyurtmasi. Fermerlikni rivojlantirishda davlatning roli. Qishloq xo'jaligi rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari. O'zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari. Agrar sohadagi mulkiy, moliya, narx sohalaridagi hamda yer va suv islohotlari. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar-iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi. Agrar sohada xo'jalik yuritish shakllari. O'zbekistonda fermer va dehqon xo'jaliklari faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari. Agrosanoat majmuasi va uni rivojlantirish yo'nalishlari.

14-mavzu. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rnini hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati. Davlat mikroiqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari. Davlat tomonidan ishbilarmonlik-biznes uchun amaliy qulay sharoit va muhitning tug'dirib berilishi. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimi. Tadbirkorlik sub'yektlari huquqlarining ustuvorligi haqidagi prinsipning joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag'batlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferensiyalar. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari va ularni himoya qilishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vazifalari. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari. Xususiy mulk va sektorning ustuvorligini amalda ta'minlash, uni qo'llab-quvvatlash va dahlsizligini kafolatlashning istiqbol yo'nalishlari.

15-mavzu. Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari. Mintaqaviy iqtisodiyot. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, prinsiplari va maqsadlari. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va ularni tenglashtirish muammolari. Hududlararo mehnat taqsimotini oqionalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Davlatning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari. O'zbekistonda mintaqaviy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari va ularni amalga oshirish yo'llari. Hududlarning rivojlanish darajalarini bir-birlariga yaqinlashtirish chora-tadbirlari. Davlatning mintaqaviy siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.

16-mavzu. Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari. Davlatning ekologik ekspertizasi. Ekologik lisenziyalashtirish. Ekologik nazorat. Ekologiyani davlat tomonidan himoya qilishning iqtisodiy mexanizmi. Tabiiy resurslar va ob'yektlarning kadastri. Ekologik moliyalashtirish. Ekologik sug'urtalash fondlari. Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilish jarayonlarini boshqarish bo'yicha davlat organlarining vazifalari. O'zbekistonda tabiatdan foydalanish va atrof-muhitni himoya qilishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi qonuni va uning ahamiyati. Davlatning ekologik siyosatini takomillashtirish yo'llari.

17-mavzu. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari va ularni tartibga solish prinsiplari. Ilmiy asosga ega bo‘lgan tashqi iqtisodiy strategiya va siyosat. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va uning tarkibiy qismlari. Tashqi savdo siyosatini faollashtirish yo‘llari. O‘zbekistonning jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashuv mexanizmlari. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarida ishtirok etishini davlat tomonidan tartibga solishi. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini takomillashtirish yo‘llari.			
Ta’lim berish va o‘qitish uslubi:	Ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ishlar (dumaloq stol, keys stadi, master-klasslar)		
Mustaqil ishlar:	O‘quv loyihalar, guruhli taqdimot, referatlar, keyslar, dokladlar, poster, prospekt, esse va h.z		
Maslahatlar va topshiriqlarni topshirish vaqti	Seshanba	14.30-16.30	Aud. 2/106
	Payshanba	14.30-16.30	Aud. 2/106
Bilimlarni baholash usullari, mezonlari, va tartibi:			
Baholash usullari	Ekspress testlar, yozma ishlar, og‘zaki so‘rov, prezentatsiyalar, mustaqil ishlar va h.z.		
Baholash mezonlari	86-100 ball - «a’lo»: fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtira olish; fanga oid ko‘rsatkichlarni iqtisodiy tahlil qilishda ijodiy fikr lay olish; o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; mehnat munosabatlariga oid tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish; o‘rganilayotgan jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to‘la baho berish; tahlil natijalari asosida vaziyatga to‘g‘ri va xolisona baho berish; o‘rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayon to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish; o‘rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish va tegishli qarorlar qabul qilish. 71-85 ball - «yaxshi»: o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish; tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish; o‘rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayon to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish; o‘rganilayotgan jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to‘la baho berish; o‘rganilayotgan jarayonlarni jadvallar orqali tahlil etish va tegishli qarorlar qabul qilish. 55-70 ball - «qoniqarli»: o‘rganilayotgan jarayonga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularga to‘la baho berish; o‘rganilayotgan iqtisodiy hodisa va jarayon to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish; o‘rganilayotgan jarayonlarni analitik jadvallar orqali tahlil etish. 0-54 ball - «qoniqarsiz»:		

	o'tilgan fanning nazariy va uslubiy asoslarini bilmaslik; iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tahlil etish bo'yicha tasavvurga ega emaslik; o'rganilayotgan jarayonlarga iqtisodiy usullarni qo'llay olmaslik.		
Baholash jarayoni	Reyting baholash turlari	Maks.ball	O'tqazish vaqti
	Joriy nazorat:	30	
	ma'ruza mashg'ulotlarda faolligi, muntazam ravishda konspekt yuritishi uchun		Semestr davomida
	Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishi	10	
	Amaliy mashg'ulotlarda faolligi, savollarga to'g'ri javob berganligi, amaliy topshiriqlarni bajargan-ligi uchun	20	
	Oraliq nazorat	40	
	Oraliq nazorat (ma'ruzachi o'qituvchisi tomonidan qabul qilinadi). Oraliq nazorat 2 bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqich, 20 ball-talaba yakka tartibda topshiriqlar oladi va himoya qiladi. Ikkinchi bosqich, 20 ball-talabalar kichik guruhlariga bo'linadi (har bir guruhda talabalar soni 5-7 tagacha bo'lishi mumkin), har bir guruhga alohida topshiriqlar beriladi va himoya qabul qilinadi.	40	10 hafta
	Topshiriqlar 2-3-haftalar oralig'ida talabalarga biriktiriladi. Guruhning faolligi, berilgan topshiriqni nazariy va amaliy jihatdan yoritilishi, xulosalarning mantiqiy bog'liqligi, kreativ mulohazalarning mavjudligi, huquqiy-normativ hujjatlarni bilishi va boshqa talablarga mosligi hisobga olinadi. Guruhdagi har bir talabaga 0-40 oralig'ida bir xil ball qo'yiladi. Himoya kafedra mudiri tomonidan tasdiqlangan grafik asosida dars		17-hafta

	mashg'ulotlaridan so'ng tashkil etiladi		
	Yakuniy nazorat	30	20 hafta
	Yozma ish yoki og'zaki	30	
	JAMI	100	
AXBOROT RESURS BAZA:			
Asosiy adabiyotlar:	1. Principles for Economic Regulation. Department for Business, Innovation and Skills. London, 2011 2. Government Regulation of Industry. MIT & University of Cambridge. 2012 3. R. Preston McAfee; Tracy Lewis; Donald J. Dale. Introduction to Economic Analysis. 2012, - 346 p. 4. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari.-T.:Akademiya,2012.- 455 bet 5. Abulkasimov H., Xamraev O. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish.- T.: "Iqtisod-moliya", 2014. – 304 bet.		
Qo'shimcha adabiyotlar:	6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni //https://lex.uz/docs/4336166 7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" Farmoni // www.lex.uz 8. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.		
Normativ-huquqiy hujjatlar:	9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: NMIU, 2017 y. 40 b. 10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni //https://lex.uz/docs/4336166 11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida" Farmoni // www.lex.uz 12. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet.		
Ilmiy jurnallar:	"Ekonomicheskoye obozreniye", "Iqtisodiyot va ta'lim", "Iqtisod va moliya", "Pul kredit va banklar", "Voprosy ekonomiki"		
Davriy nashrlar:	"Xalq so'zi", "O'zbekiston ovozi", "Karyera"		
Statistik nashrlar:	1. Statisticheskoy yejegovnik regionov Uzbekistana. 2017. –T.: Goskomstat Uzbekistana. 2015. - 130 str. 2. Statisticheskoye obozreniye Uzbekistana. 2008-2017. 3. Uzbekistan v sifrax. 2016. – T.:, Goskomstat Uzbekistana 2017. – 188 str.		
Internet resurslar:	1. www.economics.ru 2. www.lex.uz 3. www.ziyonet.uz		

	4. www.mehnat.uz 5. www.cbu.uz 6. www.gov.uz
--	---

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI REJASI

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI REJASI

1-mavzu. “Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish” fanining predmeti, tahlil usullari va maqsadlari. (2 soat)

1.1. “Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi” kursiga kirish

1.2. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati.

1.3. Davlatning iqtisodiy funksiyalari va iqtisodiyotni tartibga solishdan ko‘zlangan maqsadlari.

1.4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullarini o‘rganishning metodologik masalalari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, blis-so‘rov, aqliy xujum, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

2-mavzu. Real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari. (2 soat)

2.1. Merkantilizm va Fiziokrat maktablari namoyondalarining iqtisodiyotda davlatning roli haqidagi qarashlari.

2.2. Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda Klassik siyosiy-iqtisod namoyondalarining konsepsiyalari. Iqtisodiy liberalizm.

2.3. Davlatning iqtisodiy roli haqida Keynscha qarashlar.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta’lim.*

3-mavzu. Iqtisodiy islohotlar va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi. (2 soat)

3.1. O‘zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilish strategiyasi va uni amalga oshirish bosqichlari.

3.2. O‘zbekistonda institusional islohotlarning mohiyati, maqsadi va amalga oshirishyo‘nalishlari.

3.3. Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish tizimining shakllanishi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, “Delfi”, “Pinbord”, blis-so‘rov, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

4-mavzu. O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi. (2 soat)

4.1. Davlat mulki va tadbirkorligining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli.

4.2. O‘zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadlari va bosqichlari.

4.3. Davlat mulkini boshqarish shakllari va usullari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, bingo, “Interaktiv”, “Insert”, “Delfi”, blis-so‘rov, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozashtirish va rejalashtirish. (2 soat)

5.1. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozashtirishning maqsadi va shakllari, usullari.

5.2. Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish va uning shakllari, usullari.

5.3. Rivojlangan mamlakatlarning prognozashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, bingo, “Interaktiv”, “Insert”, blis-so‘rov, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

6-mavzu. Iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish.

6.1. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari, iqtisodiy monopolizmning salbiy oqibatlari.

6.2. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosatining mazmuni va usullari.

6.3. Antimonopol siyosatni amalga oshirish bo‘yicha chet el mamlakatlari tajribasi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, “Interaktiv”, “Pinbord”, blis-so‘rov, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

7-mavzu. Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx hamda inflyasiyaga qarshi siyosatlari.

7.1. Narxning regulyatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati.

7.2. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari.

7.3. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari va vositalari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, bingo, "Interaktiv", "Delfi", blis-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

8-mavzu. Real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari

1-ma'ruza mashg'uloti.

8.1. Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muxim shakli sifatida.

8.2. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat byudjeti va YAIM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko'rsatuvchi ko'rsatkich sifatida.

8.3. Davlatning byudjet siyosati.

2-ma'ruza mashg'uloti.

8.4. O'zbekiston davlat byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari.

8.5. Soliq va uning vazifalari.

8.6. Soliq va iqtisodiy o'sish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, T-sxemasi, "Interaktiv", "Pinbord", blis-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

9-mavzu. Real sektorni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari.

1-ma'ruza mashg'uloti.

9.1. Pul va pul muomalasi, pulga bo'lgan talab va pul taklifi.

9.2. Kredit va bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.

9.3. Rivojlangan mamlakatlarda pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartibga solish muammolari.

2-ma'ruza mashg'uloti.

9.4. O'zbekistonda pul-kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

9.5. Davlatning monetar siyosatining mazmuni va yo'nalishlari, usullari.

9.6. O'zbekistonda pul-kredit tizimini tartibga solishni yanada takomillashtirish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, "Interaktiv", "Aqliy xujum", "Delfi", blis-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

Abadiyotlar: A1; A2; A3; A6; A7; Q1; Q4; Q8; Q9; Q11.

10-mavzu. Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati.

1-ma'ruza mashg'uloti.

10.1. Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli.

10.2. Ijtimoiy (sosal) siyosat tushunchalarining mazmuni va uning ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti tushunchasi bilan o'zaro bog'liqligi.

10.3. O'zbekistonda aholini ijtimoiy qullab-quvvatlash va turmush darajasini oshirishning ustuvor yo'nalishlari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, "Aqliy xujum", "Klaster", "Delfi", "Pinbord", blis-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

11-mavzu. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari.

11.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati, shakllari, ko'rsatkichlari va uni ta'minlashning ahamiyati.

11.2. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlari, vazifalari va yo'nalishlari.

11.3. O'zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda erishilgan natijalar va istiqbol yo'nalishlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, T-sxemasi, "Interaktiv", "Insert", "Aqliy xujum", munozara, o'z-o'zini nazorat.*

12-mavzu. Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati.

1-ma'ruza mashg'uloti

12.1. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi va undagi o'zgarishlar, ularni belgilab beruvchi omillar.

12.2. Davlat tarkibiy siyosatining mazmuni, maqsadi, prinsiplari va yo'nalishlari.

12.3. O'zbekistonda davlatning tarkibiy siyosati va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari.

12.4. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni rag'batlantirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, "Aqliy xujum", "Insert", "Klaster", "Pinbord" blis-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

13-mavzu. Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash.

13.1. Davlat agrar siyosatining mohiyati va maqsadi.

13.2. Qishloq xo'jaligi sohasiga davlat aralashuvining zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

13.3. O'zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari

13.4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirish zarurati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondashuv, muammoli ta'lim, "Interaktiv", "Insert", T-sxemasi, blis-so'rov, munozara, o'z-o'zini nazorat.*

14-mavzu. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi

14.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.

14.2. Biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati.

14.3. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari.

14.4. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash tizimi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:*dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, “Aqliy xujum”, “Klaster”, “Delfi”, blis-so‘rov, munozara, o‘z-o‘zini nazorat.*

15-mavzu. Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari.

1-ma’ruza mashg‘uloti

15.1. Mintaqaviy iqtisodiyot.

15.2. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, prinsiplari va maqsadlari.

15.3. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va ularni tenglashtirish muammolari.

2-ma’ruza mashg‘uloti

15.4. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.

15.5. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish.

15.6. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma’muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:*dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, T-sxemasi, “Interaktiv”, “Aqliy xujum”, “Klaster”, blis-so‘rov, o‘z-o‘zini nazorat.*

16-mavzu. Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati.

1-ma’ruza mashg‘uloti

16.1. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash.

16.2. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi.

16.3. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:*dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, T-sxemasi, “Klaster”, “Delfi”, “Aqliy xujum”, blis-so‘rov, , o‘z-o‘zini*

nazorat.

17-mavzu. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi

1-ma’ruza mashg‘uloti

17.1. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari va ularni tartibga solish prinsiplari.

17.2. Ilmiy asosga ega bo‘lgan tashqi iqtisodiy strategiya va siyosat.

17.3. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va uning tarkibiy qismlari.

2-ma’ruza mashg‘uloti

17.4. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi.

17.5. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari.

17.6. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarida ishtirok etishini davlat tomonidan tartibga solishi.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari:*dialogik yondashuv, muammoli ta’lim, “Interaktiv”, “Delfi”, “Pinbord”, blis-so‘rov, “Klaster”, o‘z-o‘zini nazorat.*

MAVZULAR BO‘YICHA MATN ANNOTATSIYASI VA OXIRGI YANGILIKLAR

1-mavzu. “Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish” fanining predmeti, tahlil usullari va maqsadlari. (2 soat)

1.1. “Real sektorni davlat tomonidan tartibga solinishi” kursiga kirish

1.2. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati.

1.3. Davlatning iqtisodiy funksiyalari va iqtisodiyotni tartibga solishdan ko‘zlangan maqsadlari.

1.4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullarini o‘rganishning metodologik masalalari.

Tayanch iboralar: davlat, tartibga solish, davlatning aralashuvi, boshqarish, tartibga solish usullari, iqtisodiy funksiyalar, boshqarish zarurati.

Annotatsiya

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti ko‘pchilik mamlakatlar uchun xos bo‘lib, u har xil darajada va o‘ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda. Bu iqtisodiyotning amal qilish mexanizmi asrlar davomida shakllanib, hozirgi davrda madaniylashgan shaklni kasb etdi va ko‘pgina mamlakatlarda hukmron iqtisodiy tizimga aylandi. Mazkur iqtisodiyotning barqarorligi uzoq davrli iqtisodiy evolyusiya davomida uning amal qilishining asosiy qoidalari saqlanib qolishi bilan izohlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni asosida jamiyatning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va uni amalga oshirish ishlari boshlandi.

Xususiy mulkning paydo bo‘lishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining ro‘y berishi bozor iqtisodiyotining kelib chiqishi va mavjud bo‘lishing umumiy sharti hisoblanadi. Xususiy mulkchilik va mehnat taqsimoti ijtimoiy xo‘jalikning tovar shaklini taqozo qiladi, tovar ishlab chiqarishning mavjud bo‘lishi o‘z-o‘zidan pul muomalasi, ayirboshlash, taqsimlash va iste’molning bozorga oid xususiyatini ko‘zda tutadi. Tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi bozor iqtisodiyoti taraqqiyotining asosini tashkil etadi.

Ishlab chiqarishning mustaqilligi, tadbirkorlik erkinligi, resurslar erkin almashinuvining ta‘minlanishi bozor iqtisodiyotini samarali amal qilishining asosiy shartlari bo‘lib hisoblanadi. Tovar ishlab chiqaruvchi qanchalik mustaqil bo‘lsa, bozor ham shu darajada yaxshi rivojlanadi. Erkin ayirboshlash tovar ishlab chiqaruvchi faoliyatining nisbatan samarali yo‘nalishlarini ko‘rsatib beruvchi erkin narxlarning shakllanishiga imkon yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sub’yektlari tarkibiga tadbirkorlar ham, ishchilar ham, iste’molchilar, kapital egalari va qimmatli qog‘ozlar egalari ham kiradi. Odatda, bozor xo‘jaligining barcha asosiy sub’yektlari uchta guruhga bo‘linadi: uy xo‘jaliklari, korxonalar (tadbirkorlik sektori) va davlat sektori.

Uy xo'jaliklari doirasida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste'mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo'jaliklari mulk egasi hamda ishlab chiqarish omillarini yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

U ish yuritish uchun o'z kapitalini yoki qarz olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi, bu kapitaldan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi. Tadbirkorlar tovar xo'jaligida tovar va xizmatlarni yetkazib beradi.

Davlat sektori – o'z oldiga foyda olishni maqsad qilib qo'ymagan, asosan iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli byudjet tashkilotlari va muassasalarining majmui.

Har qanday bozor iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi asosan to'rtta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: narx, talab, taklif, raqobat.

Narxlar nisbati o'zgarib turadi, shuning uchun narx, ishlab chiqaruvchi uchun ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi zarurligini aniqlashda yo'l ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi. Talab va taklif hamda raqobatchilik muhitidagi o'zgarishlar, o'z navbatida, narxlardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Hozirgi zamon bozor xo'jaligi iqtisodiyotdagi xususiy va davlat sektorlarining o'zaro aloqasiga asoslanadi. Iqtisodiyotga ta'sirning intensivligi darajasi hamda davlat tomonidan hal etiluvchi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, zamonaviy bozor iqtisodiyotining quyidagi modellari farqlanadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari fanining predmeti – bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish maqsadida tovar va xizmatlarni yaratish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni, samarali faoliyat ko'rsatish qonun-qoidalarini o'rganishdan iborat, deb aytish mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari fani predmetini o'rganishda unga taalluqli mavzularni alohida bo'limlarga ajratilishi mazkur muammolar to'g'risida yanada kengroq, izchil va to'liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shunga ko'ra, bakalavriat yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan «Iqtisodiyot nazariyasi» darsligida to'rtta asosiy bo'lim ajratib olgan edik: iqtisodiy taraqqiyotning umumiy asoslari; bozor iqtisodiyoti nazariyasi; milliy iqtisodiyot (makroiqtisodiyot)ning amal qilish va rivojlantirish qonuniyatlari; jahon xo'jaligi.⁴ Ko'pchilik darslik va o'quv qullanmalarda mavzularni bo'limlarga ajratishda ma'lum darajada erkinlik mavjud bo'lsada, mazmun va mohiyat jihatidan umumiy tavsif kasb etuvchi yondashuvlar ham uchraydi. Shulardan biri – iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishga iqtisodiyotning turli darajalaridan kelib chiqqan holda yondashuv hisoblanadi.

Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida bu fanning to'rtta asosiy vazifasi ajratib ko'rsatiladi:

⁴ Shodmonov Sh. Sh., G'afurov U.V. "Iqtisodiyot nazariyasi" (darslik). – T., "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2005.

1) **bilish vazifasi** - har qanday fan kabi Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari fani ham fundamental ahamiyatga ega: jamiyatda insonlarning o'zaro iqtisodiy munosabatlarini tadqiq etib, ular to'g'risidagi fikrlarimizni kengaytiradi;

2) **amaliy vazifa** – amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslardan unumli foydalanib iqtisodiy o'sishni ta'minlash va shu asosda o'sib boruvchi ehtiyojlarni qondira borishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, cheklangan turli xil resurslarning har bir birligi evaziga ko'proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ta'minlash, har bir faoliyat turi bo'yicha xarajatlar miqdori bilan erishilgan samara, ya'ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo'llarini topishdan iboratdir;

3) **uslubiy vazifasi** – Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari fanining o'zi, tahlili va uning tamoyillari, olingan xulosalar, tadqiq etilayotgan iqtisodiy qonunlar boshqa ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi;

4) **g'oyaviy-tarbiyaviy vazifasi** – ushbu vazifa shundan iboratki, uning yordamida talabalar, mutaxassislar va iqtisodiyot ilmi o'rganuvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, milliy istiqlol g'oyasini talaba yoshlar ongiga singdiradi, ularni millat manfaatlarini yo'lida iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy mahsulotni ko'paytirish, milliy pul qadrini oshirish, milliy tovarlarni jahon miqyosida bozorgir bo'lishini ta'minlash, mamlakat aholisining turmush darajasini ko'tarish ruhida tarbiyalaydi.

Nazorat uchun savollar

1. O'z-o'zini tartibga solinadigan bozor iqtisodiyotida davlatning roli va vazifalari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni mohiyati va ustuvor yo'nalishlari nimalarda namoyon bo'ladi.
3. Iqtisodiyotga davlatning aralashuvi.
4. Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning zarurati.
5. Davlatning iqtisodiy funksiyalari.
6. Iqtisodiyotni tartibga solishdan ko'zlangan maqsadlar.
7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari.
8. Iqtisodiyotni boshqarishning metodologik masalalari.

2-mavzu. Real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari. (2 soat)

2.1. Merkantilizm va Fiziokrat maktablari namoyondalarining iqtisodiyotda davlatning roli haqidagi qarashlari.

2.2. Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda Klassik siyosiy-iqtisod namoyondalarining konsepsiyalari. Iqtisodiy liberalizm.

2.3. Davlatning iqtisodiy roli haqida Keynscha qarashlar.

Tayanch iboralar: davlatning roli, iqtisodiy maktablar, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy konsepsiyalar, iqtisodiy liberalizm, neokeynschilik, institusionalizm, ijtimoiy iqtisod.

Annotatsiya

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari, eng avvalo, ilmiy bilishdan iboratdir. Shundan kelib chiqadiki, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni kuzatish, ulardagi shakl va mazmun o'zgarishlarini, ichki bog'lanish va aloqalarni, ziddiyatlarni, qonun-qoidalarini, tushunchalarni bilib, birinchi navbatda, talabalarga, iqtisodchi mutaxassislariga va iqtisodiyot bilan qiziquvchi boshqa xodimlarga o'rgatishdan iboratdir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish amaliy, nazariy, uslubiy va tarbiyaviy tomonlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Amaliy iqtisodiyot nazariy bilimga ega bo'lishni, u bilan qurollanish zaruriyatini taqozo etadi. Nazariy bilim esa oldindan ko'ra bilish va amaliy harakat yo'lini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Umuman olganda, Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy jarayonlar, voqea va hodisalar sirlarini bilishda ilmiy qo'llanmadir.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari «Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish»⁵ vazifasini ham bajaradiki, bu iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu maqsadga erishish uchun Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari fani Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning so'zlagan nutq va ma'ruzalarida, asarlarida ko'rsatib berilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri tamoyillarini, o'tishning o'ziga xos yo'lini, o'zining iqtisodiy qonunlarini, yo'l-yo'riqlarini, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan qarorlar asosida mamlakatimiz oldida turgan iqtisodiy muammolar va vazifalarning chuqur tahlilini, uni yechish yo'llarini yoritmog'i, o'tish davri iqtisodiyotining xususiyatlari, ko'p ukladli iqtisodning, turli shakldagi mulkchilikning vujudga kelish yo'llari, usullarini ko'rsatib bermog'i lozim.

Mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jamiyat taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu ta'sir iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi. Davlatning bunday faoliyati haqida turli fikrlar mavjud. Shunday qarashlardan biri-iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish haqidagi nazariyalardir.

Ingliz burjua iqtisodchisi Djon Meynard Keyns Iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarish nazariyasiga asos solgan (1883-1946). Keyns qarashlari rivojlangan mamlakatlar makroiqtisodiyoti nazariyasi va siyosatining asosini tashkil qiladi.

1. ⁵ Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қураимиз. – Тошкент: : “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б.

Keynsning asosiy asarlaridan biri 1936 yilda yozilgan «Bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» haqidagi kitobidir. U bu asarida «samarali talab»ga erishish uchun davlatning iqtisodiyotga aralashuvini zarur deb hisoblaydi.

Keyns o'tmishdoshlariga o'xshab, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish muammolarini resurslar taklifidan qidirish kerak emas, balki resurslar talabidan, ya'ni resurslar realizatsiyasidan qidirish zarur, deb ko'rsatadi.

Nima sababdan iqtisodiyot muvozanatini talab nuqtai nazaridan hal qilish kerak?

Dj.Keyns «samarali talab» nazariyasini kiritadi, u ishlab chiqarish va iste'mol, daromad va bandlik o'rtasida muvozanatni aks ettiradi. U yalpi ijtimoiy mahsulot milliy daromad kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni bir joyga to'playdi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimining amal qilishini ko'rsatib beradi.

Keyns iqtisodiyotni boshqarishning bosh quroli - byudjet-moliya siyosatidir, deb hisoblaydi. Davlat byudjeti va moliya siyosati zimmasiga ishchi kuchining bandligi va ishlab chiqarish qurollar yetkazib berishni yuklaydi.

Keynsning fikricha, davlat xarajatlari hokimiyatning iqtisodiyotni siklli rivojlantirish va inqirozni bartaraf qilishda aralashuvini ta'minlovchi qurollardan biri. Shuning uchun u bularning shakllanishi, tuzilmasi va o'sishini «samarali talab»ga erishish omili deb hisoblaydi.

Davlat xarajatlarining o'sishi milliy daromadning realizatsiya qilinishisa va to'la bandlikning ta'minlanishiga olib keladi. Soliqlar va zayomlar bilan ta'minlovchi davlat talabining o'sishi tadbirkorlar faoliyatini shakllantiradi hamda milliy daromad va bandlikning o'sishiga olib keladi. Soliq siyosatining o'zgarishi iste'molga moyillik uyg'otadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Keyns bozorga tayangan kapitalistik iqtisodiyotni tahlil qilib, davlatning unga aralashuvini zarur, deb hisoblaydi. Uning fikricha, davlat xususiy investisiyani rag'batlantirishni o'z zimmasiga olishi kerak, xususiy talabni qoplash maqsadida o'z xarajatlarini ko'paytirishi lozim. Davlatning mazkur iqtisodiy siyosati «ish bilan to'la bandlikni, ya'ni kapitalizmni inqirozlarsiz rivojlantirishni ta'minlaydi».

Jamiyatda umumishlab chiqarish jarayonini tartibga solishda davlat asosiy rol o'ynaydi. Davlat muomalaga qo'shimcha pul chiqarish (inflyasiya) yo'li bilan ssuda foizining kamayishiga ta'sir qilishi mumkin, Keynsning fikricha, bu foydaning ko'payishiga, natijada ishlab chiqarishga investisiya qilishni rag'batlantirishga olib keladi.

Ishlab chiqarishning o'sishi milliy daromadning ko'payishiga, ishsizlikni tugatishga, iste'mol va ishlab chiqarish talabining ortishiga olib keladi.

Keyns olinadigan soliqlar hajmini milliy daromad hajmiga bog'liq deb, milliy daromad qancha ko'p bo'lsa, soliq byudjetga shuncha ko'p tushadi yoki aksincha bo'lishi mumkin, bu esa iqtisodiy tizimning egiluvchanligini ta'minlaydi, deb hisoblaydi. Bu, albatta, daromad solig'iga tegishli. Inqiroz davrida ishlab chiqarishning pasayib ketishi, ishsizlik va soliqlarning o'sishi iste'molga moyillikni vujudga keltirib, daromadlar o'sishi va talabga nisbatan rag'bat yaratadi. Lyekin, Keyns qarashining qarama-qarshi tomonlari ham bor. Chunonchi:

1. Davlat xarajatlarini o‘stirish yo‘li bilan olib boriladigan «samarali talab» vaqtinchalik natija beradi. Davlat yangi talabni yaratmaydi, balki uni bir shakldan ikkinchi shaklga aylanishiga ta’sir qilishi mumkin. Davlat talabi va iste’molning kengayishi xususiyl sektorida investisiyaga bo‘lgan talab hamda iste’mol talabini qisqartirish hisobiga bo‘ladi.

2. Investisiyaning o‘shishi soliqlar va zayomlar hisobiga moliyalashtirilib, bu ishlab chiqarish faoliyatining kengayishi va milliy daromadning o‘shishiga olib keladi. Lekin davlat investisiyasi kapital organik tuzilishni o‘stiradi, bu esa bandlikning o‘shish ko‘rsatkichini pasaytiradi.

Keynsning izdoshlari ikkinchi jahon urushidan keyin davlatning takror ishlab chiqarish jarayoniga doimiy ravishda aralashuvini, ya’ni «Iqtisodiy o‘shish nazariyasi»ni yaratdi. Foiz normasining oshishi orqali investisiyani o‘stirishga bo‘lgan qiziqishni ko‘paytirish mumkin emasligini bilgandan keyin, yangi keynschilik sof fiskal nazariyaga aylandi. Keyns izdoshlari antisikl nazariyasini yaratdi davlatning daromad yoki xarajatlarini o‘zgartirish bilan iqtisodiyotni rivojlantirishda muvozanatga erishish mumkin, degan fikrni bildirdi.

Yangi keynschilar multiplikator nazariyasini yaratdi. Multiplikator - daromad o‘zgarishining investisiyalar o‘zgarishiga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi koeffitsient.

Yangi keynschilar multiplikator nazariyasiga ko‘ra, investisiyalar hajmi bandlik va daromadlarning o‘shishi o‘rtasidagi bir-biriga bog‘liqlikni matematik usullar asosida ifodalaydi.

Akseleratsiya nazariyasida kapitalizmning umumiy inqiroz davri uchun xarakterli bo‘lgan ishlab chiqarish quvvatlarining to‘la ishlamasligi hisobga olinmaydi. Shuning uchun tayyor mahsulotga bo‘lgan talab o‘sib, ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishni ancha ko‘paytirishni doimovaqt zarur qilib qo‘ymaydi.

Multiplikator va akselator ta’limotlari yangi keynschilarning hozirgi zamon «iqtisodiy o‘shish» haqidagi nazariyalari asosini tashkil qiladi. Yangi keynschilar fikriga ko‘ra, multiplikator, daromadlarning, ish bilan bandlik va ehtiyojlarning o‘shishiga sabab bo‘ladi. Akselator esa yangi investisiyalarni rag‘batlantiradi, bu investisiyalar, o‘z navbatida, multiplikatorni harakatga keltiradi.

Keyns izdoshlari moliyalashtirish taqchilligini “samarali talab”ga erishish usuli deb talqin qiladi.

Keyns maktabi Keynsning davlat haqidagi fikrini qo‘llab-quvvatlaydi, ya’ni davlat faqatgina siyosiy kuch emas, u tadbirkor, iste’molchi, investor, kreditor, qarzдор va h.k. bo‘lgani uchun bozorga, narx-navo va iqtisodiyotga ta’sir qilishi mumkin keynschilar mazkur g‘oyani ilgari surib, uni isbotlab berishdi.

XX asrning 70-yillari boshida kapitalistik mamlakatlar taraqqiyotida, ya’ni kapital va yalpi ijtimoiy mahsulotni takror ishlab chiqarish jarayonida tub o‘zgarishlar bo‘ldi.

Bu davrda ishlab chiqarish jarayonida fan texnika taraqqiyotining rivojlanishi, yangi texnika va texnologiyaning yuzaga kelishi texnika taraqqiyotidagi to‘ntarish bilan bir vaqtda kapitalistik xo‘jalikning har tomonlama baynalmilallashuvi, milliy iqtisodiyotlar bog‘liqligi va o‘zaro ta’siri kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Bunday sharoit davlatning iqtisodiyotga aralashuvining shakl va usullari o'zgarishiga olib keldi iqtisodiy jarayonlar istiqboli uchun yangi nazariyalar yaratishni taqozo qildi. Chunki 60-yillarga xos keynschilar nazariyasi samarasiz bo'lib qoldi, ya'ni iqtisodiyotda yangi munosabatlar yuzaga kelishi va iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi davlatning iqtisodiyotga almashuvi yo'nalishining zamonaviy shakllarini taqozo qildi. Chunonchi:

1. Mablag'larni jamg'arish yoki uni ishlab chiqarishga sarflashning turli iqtisodiy agentlar tomonidan hal qilinishi bu miqdorning mos kelmay qolishi, iqtisodiyotning inqirozi, ishsizlik yoki bozor holatining yomonlashuviga olib keladi.

Agar investision va iste'mol talablari yetarli bo'lmasa, jamg'armaning ortib ketishi va ishsizlikning ko'payish xavfi tug'lsa, davlat sun'iy ravishda samarali talabni moliyalashtirish yo'li bilan ushlab turishi mumkin.

2. Ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, jahon bozorining kengayishi, mamlakatlar iqtisodiy ochiqligining kengayishi davlatning talab tizmlariga boshqacha yondashuv asosida qarashni talab qiladi. Endi davlat siyosati faqatgina o'z tadbirkorlari mollarini sotish uchun emas, balki chet mamlakatlar mahsulotlarini ham shart-sharoit yaratib beradi.

3. Inflyasiyaning chuqurlashuvi ishlab chiqarish va bandlikni talab orqali boshqarish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. O'z navbatida, davlat talabi narx-navoning bahoni o'sishiga olib keladi. Inflyasiya ishlab chiqarish va bandlikka aks ta'sir qiladi.

4. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvining kengayishi davlat apparati uchun sarf-xarajatlarni ko'paytiradi. Bu esa davlat qarzlarining o'sishiga, inflyasiyaning kuchayishiga olib keladi.

5. Takror ishlab chiqarish sharoitining yomonlashuvi yonilg'i va xomshyo resurslari o'sishi, narx-navosining o'sishiga olib keladi.

Shunday sharoitda davlatning iqtisodiyotga aralashuvi zaruratga aylanadi.

70-yillarda yangi konservativ nazariyachilar keynschilarga nisbatan ustun darajada o'z nazariy qarashlarini ilgari surib, uning to'g'ri ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Bu qarashlar quyidagi yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Monetarizm.

2. Taklif nazariyasi.

Monetarizm nazariyasining asoschisi-Nobel mukofoti laureati Amerika iqtisodchisi Fridmen.

Uning fikricha, davlat minimum darajada ya'ni faqatgina pul muomalasi doirasida iqtisodiyotga aralashuvi lozim.

Fridmenning hozirgi zamon iqtisodiyotini boshqarishning monetaristik nazariyasi asosida:

1. Pul barcha ishlab chiqarishning rivojlanishi va harakatni aniqlovchi asosiy mezon hisoblanadi.

2. Pulga bo'lgan talab doimiy ravishda o'sib boradi, chunki u individning jamg'arishga bo'lgan moyilligini aniqlaydi. Iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash uchun doimiy ravishda muomalada pulni ko'paytirish kerak.

3. Pul taklifi kredit - pul institutlarining noto'g'ri iqtisodiy siyosati oqibatida sodir bo'ladigan beqarorlik bilan xarakterlanadi.

Iqtisodiy inqiroz davrida xususiy xo'jaliklar o'z-o'zini boshqarib, qisqa muddatda bandlikni ta'minlaydi.

Fridmen «Keyns fiskal siyosati maktabi» (davlatning iqtisodiyotga haddan ziyod aralashuvi) kapitalistik iqtisodiyot ahvolining ayniqsa, pul muomalasining yomonlashuviga olib keladi, deydi. U Keynschilik muqarrar ravishda inflyasiyaga olib kelishini alohida ta'kidlay.

Masalan, Fridmen pul siyosati, pulga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni yaratishga qaratilishi kerak, deydi. U shu maqsadda muomaladagi pulning o'sish foizini aniq belgilash, qaysiki, u milliy daromadning, bandlikni, narxning o'rtacha darajasiga mos bo'lib, qoldig'i doimiy ravishda teng bo'lishi kerak. Bu qoldiq bir yilda 3-5 foizni tashkil qilishi maqsadga muvofiqligi haqidagi dalillarni keltiradi.

Fridmen fikricha, muayyan darajada asta-sekinlik bilan ish faolligining pasaya borishi foyda keltiradi, chunki u rentabellik darajasi, raqobat qobiliyati past xo'jaliklar tugatilishiga olib keladi, ishsizlik esa ish haqini oshirish uchun harakatni saqlab qoladi.

Yangi konservatorlar sosial imtiyozlarga qarshi chiqadi, chunki ularning fikriga ko'ra, sosial imtiyozlar ishchilar sinfini dangasa qiladi, mehnatga bo'lgan ishtiyoqni susaytirishi mumkin.

Yangi neoklassik nazariya tarafdorlari iqtisodiyotni davlat tomonidan emas, balki tovar-moliya munosabatlari orqali, xususan, narxni belgilash, qiymat qonuni, raqobatni rivojlantirish yordamida boshqarish mumkinligi g'oyasini ilgari suradi.

Monitaristlar maktabi tarafdorlari esa davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklab, soliqlarni qisqartirish, davlatning kapital bozoriga aralashuvi imkoniyatlarini pasaytirish kerak, degan fikrga keladi.

«Taklif nazariyasi» ham boshqa konservativ fikrlar singari yangi klassik nazariyaga asoslanadi. Ularning fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi kapitalga to'g'ri keladigan sof foyda (soliqlarni chiqarib tashlagandan keyin) ekanligidir. Bu nazariya tarafdorlari davlat tadbirkorligi ishlab chiqarish omillariga, mehnat va kapitalga ta'siri haqida fikr yuritadi.

Taklif nazariyasining asosiy dastagi soliqlar va davlat xarajatlarini o'zgarishi ayrim narxolarga (ayrim tovar narxii yoki ishlab chiqarish omillari bir-biriga nisbatan o'zgarishi va boshqalar), ya'ni daromadlarning o'zgarishga olib keladi, deb talqin qiladi.

Keynschilar nazariyasiga asosan soliqlar va davlat xarajatlari bevosita iqtisodiy vakillar daromadiga ta'sir qiladi, ularning narxlarga ta'siri esa ikkinchi darajali.

“Taklif nazariyasi” tarafdorlari jamg'arish va investision rag'bat tizimini yaratib, kapital va ishchi kuchi taklifiga soliq siyosati orqali ta'sir qilishni taklif qilishadi. Bu o'rinda asosiy e'tibor soliq stavkasi yuqori darajasini pasaytirishga qaratilgan.

Ularning fikriga ko'ra, korporatsiyalar daromadining taqsimlangan qismida soliqlar stavkasini eng oxirgi nuqtasigacha qisqartirish zarur. Bu ishlab chiqarish

resurslari taklifiga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, natijada yalpi talab ham o'sadi. Bu tadbirlar natijasi «daromad stavkasi» va «tiklash samarasi»ning o'zaro ta'siri bilan aniqlanadi.

Fiskal siyosatining asosi bo'lgan davlat xarajatlarini kamaytirish, u soliq stavkasi kamaytirilishi bilan bir vaqtning o'zidaolib borilishi kerak. Bu daromad samarasini kamayishiga, ishchi kuchi va kapital taklifini o'zgartirishga olib keladi bunga javoban soliq stavkasining o'zgarishi «tiklash samarasi» ta'sirida aks etadi. Bu nazariyachilar, yuqorida aytganimizdek, davlatning sosial xarajatlarini qisqartirish tarafdoridir.

«Taklif nazariyasi»da ziddiyatli masalalar ham bor. Ular fikricha, iqtisodiyot taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga erkin narx orqali chiqish mumkin. Bu esa hayotda oligopoliya tuzilmasini vujudga keltiradi, bozor hamda firmalar yollanma ishchilar o'rtasidagi aniq munosabat larni aks ettiradi.

Ushbu nazariya tarafdorlarining ko'rsatishiga ko'ra, foiz stavkasining pasayishi jarayonida «tiklash samarasi», «daromad samarasi»ga aylanadi, natijada ishchi kuchiga talab jamg'arish ham o'sadi. Darhaqiqat daromad solig'i foiz stavkasining pasayishi cheklangan holda ishlab chiqarish resurslari taklifiga ta'sir ko'rsatadi va federal byudjet kamyobligini bartaraf qiladi.

Mazkur nazariyalarni rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga tadqiq qilinishi natijasida ma'lum darajada muvaffaqiyatga erishildi. Masalan, AQSHda 70-yillarning oxiriga kelib, konservatorlar tavsiyalarini amalda qo'llay boshlaydilar, shu vaqt (1980-1984 yillar)da davlat byudjeti kamomadli xarakterga ega bo'ldi. Bu samarali talabga kuchli turtki bo'lib, AQSH iqtisodiyoti turg'unlikdan chiqadi. Demak, Keynsning taklifi asosida muvaffaqiyatga erishildi.

Shuning uchun monetarist Fridmen «Keynsning bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» haqidagi kitobi hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q deb, «biz har birimiz boshimizdan suyagimizgacha bir tomondan keynschimiz, ikkinchi tomondan biz hech qaysisi emasmiz, biz hammamiz Djon Keyns tilidan, apparatidan foydalanamiz, lekin hech qaysimiz uning dastlabki xulosa va ishonchlaridan uni mahrum qilmoqchi emasmiz», - o'z fikrini bildiradi.

Xulosa qilib aytsek, bu nazariyalar rivojlangan mamlakatlarda, ularning iqtisodiy shart-sharoitiga qarab, hozirgi ko'pda ham qo'llanilmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Iqtisodiyotda davlatning roli nimalar orqali nomayon bo'ladi?
2. Qanday iqtisodiy maktablar davlatning rolini izohlab bergan?
3. Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda «Davlatning bosh islohotchi ekanligi» tamoyilini tushuntirib bering.
4. Nima uchun iqtisodiy konsepsiyalar ishlab chiqiladi?
5. Iqtisodiy liberalizm deganda nimani tushunasiz?
6. Neokeynschilik va institusionalizm nazariyaldarini izohlab bering.
7. Ijtimoiy iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?

3-mavzu. Iqtisodiy islohotlar va real sektorni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining shakllanishi. (2 soat)

3.1. O‘zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilish strategiyasi va uni amalga oshirish bosqichlari.

3.2. O‘zbekistonda institusional islohotlarning mohiyati, maqsadi va amalga oshirish yo‘nalishlari.

3.3. Iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solish tizimining shakllanishi.

Tayanch iboralar: milliy iqtisodiyot, iqtisodiyotni isloh qilish, strategiya, mexanizm, institusional islohotlar, tizim, iqtisodiyotni boshqarish.

Annotatsiya

Ma’lumki, iqtisodiyot asosan ikki sohaga bo‘linadi: mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot. Mikroiqtisodiyot o‘z ichiga quyidagi alohida iqtisodiy sub’yektlar faoliyatini oladi:

1. Xo‘jalik yurituvchi sub’yekt – iste’molchilar, ishchilar, kapital egalari, zamindorlar, firmalar va hokazo.

2. Alohida bozorlar – ishlab chiqarish vositalari bozori, ishchi kuchi bozori, iste’mol mollari bozori va hokazo.

3. Alohida tarmoqlar – sanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va hokazo.

Makroiqtisodiyot esa umumiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar yig‘indisi bilan bog‘langan (mamlakatdagi ishsizlik, inflyasiya darajasi, foiz stavkasining o‘zgarishi, iqtisodiy o‘sish sur‘ati va boshqalar) yaxlit milliy xo‘jalikni qamrab oladi.

Mikroiqtisodiy tahlilda ham asosiy o‘rinni nazariy qoidalarining ishlab chiqilishi egallaydi. Mazkur nazariy qoidalar asosida iqtisodiy hodisa va jarayonlar asoslab beriladi va prognoz qilinadi. Nazariy tahlil oddiy taxminlardan boshlanadi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotining ko‘pgina bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning ayrimlari uzoq vaqt mavjud bo‘lib turishi mumkin. Masalan, ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilayotgan sharoitdayoq vujudga kelgan tovar ayirboshlash bir ishlab chiqarish usulidan boshqasiga o‘tib, bir necha ming yillardan beri mavjud bo‘lib, rivojlanib kelmoqda.

Shu bilan birga biron-bir ijtimoiy-iqtisodiy tizimning turli tarixiy davr sharoitidagi mazmuni, o‘rni, roli va ijtimoiy oqibatlarini ko‘p jihatdan turlicha bo‘ladi. Lekin ularning umumiy, o‘ziga xos xususiyatlari saqlanib qoladi.

Umumiy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning tarixan birinchisi natural ishlab chiqarish bo‘lgan, bunda mehnat mahsullari ishlab chiqaruvchining o‘z ehtiyojlarini qondirishi yoki ichki xo‘jalik ehtiyojlari uchun mo‘ljallangan. Iste’mol ko‘pincha ishlab chiqarishga mos kelgan, ularning bir-biri bilan bog‘lanishi juda oson bo‘lib, ushbu xo‘jalikning o‘zida ro‘y bergan. Bunday munosabatlar barcha zarur narsani o‘zi

uchun tayyorlagan ibtidoiy jamoada hukm surgan. Natural ishlab chiqarish ijtimoiy mehnat taqsimotining yetarli rivojlanmaganligi sababli mavjud bo'lib, u vaqtda ijtimoiy mehnatdan uning u yoki bu turi endigina ajrala boshlagan edi. Bunday sharoitda o'z ehtiyojlarini o'zi qondiradigan ishlab chiqarish tuzilmalari paydo bo'lgan. Mehnat ularning tor doirasidagina ijtimoiy xususiyatga ega edi. Natural ishlab chiqarish shakli barcha iqtisodiy jarayonlarni bir xo'jalik doirasida qat'iy cheklab qo'yadi, tashqi aloqalar uchun yo'l ochilmaydi. Ishchi kuchi muayyan xo'jalikka biriktirib qo'yiladi va ko'chib yurish imkoniyatidan mahrum bo'ladi. Natural xo'jalik ishlab chiqarish maqsadlarini nihoyat cheklab qo'yadi, ishlab chiqarish hajm jihatidan juda oz va turi jihatidan kam bo'lgan ehtiyojlarni qondirish bilan chegaralanadi. Shuning uchun ham jamiyat asta-sekinlik bilan tovar ishlab chiqarishga o'tadi.

Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanishi natijasida ibtidoiy jamoa tuzumining tarqoqlashuv davrida paydo bo'ldi. Tovar ishlab chiqarish, ya'ni tovar xo'jaligida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar ular mehnati mahsullarini ayriboshlash orqali namoyon bo'ladi. Tovar ishlab chiqarishning natural ishlab chiqarishdan farqi shundaki, bunda tovar yoki xizmat o'z iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish uchun yaratiladi. Natural xo'jalikni siqib chiqarish va tovar ayriboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, hususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida yakka xo'jaliklarning tovar ayriboshlashga o'tish yo'li bilan boradi. Ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv ularni turli xil ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ayriboshlashni zarur qilib qo'yadi. Ixtisoslashuv esa mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi, demak, tovar ayriboshlash faqat zarurgina emas, balki foydali bo'lib boradi. Vaqtni va moddiy resurslarni tejash qonuni tovar xo'jaligini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Takror uchun savollar

1. Iqtisodiyotni tartibga solishda bozor mexanizmining ustunlik va kamchilik tomonlarini ayting?
2. Bozor mexanizmi qanday ijtimoiy vazifalarni bajara olmaydi?
3. Davlat boshqaruv rolisiz kerakli natijalar bera olmaydigan bozor mexanizmi vazifalarni sanang?
4. Zamonaviy davlatning iqtisodiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish shaklining asosiy rivojlanish boqichlarini tavsiflang.
6. Davlat tomonidan tartibga solishdan asosiy maqsad. YAIM va davlat xarajatlari xajmi o'rtasidagi mutanosiblik nimani bildiradi?
7. Markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tishda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish xususiyatlarini ayting?

4-mavzu. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirish va boshqarish-iqtisodiyotni tartibga solish vositasi. (2 soat)

4.1. Davlat mulki va tadbirkorligining iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli.

4.2. O'zbekistonda davlat mulkini xususiylashtirishning maqsadlari va bosqichlari.

4.3. Davlat mulkini boshqarish shakllari va usullari.

Tayanch iboralar: davlat mulki, xususiylashtirish, tadbirkorlik, nodavlat mulk shakllari, mulkni boshqarish, mulk shakllari, xususiy mulk, davlat mulkini boshqarish.

Annotatsiya

Tanlab olingan iqtisodiy islohotlar yo'liga amal qilish, bozor munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini bosqichma-bosqich, iqtisodiyotni erkinlashtirish va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash makroiqtisodiy ko'rsatkichlar yomonlashib boruvining oldini ma'lum darajada olish imkonini berdi.

Iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida, iqtisodiyotda bozor munosabatlariga o'tishning huquqiy negizi barpo etildi. Ishlab chiqarish sur'atining, aholi turmush darajasining keskin tushib ketishiga yo'l qo'yilmadi, to'lov holati yaxshilandi, ishlab chiqarish ustuvor tarmoqlarini takomillashtirishga e'tibor berildi. Shu davrda mulk, korxonalar, ishbilarmonlik, tashqi iqtisodiy faoliyat, banklar va bank faoliyati, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, xo'jalik jamiyatlari va birlashmalari to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Islohotlarning huquqiy asosini shakllantirish jarayonini ta'minlovchi bir qancha Prezident Farmonlari va hukumat qarorlari chiqdi.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonini tezlashtirish va miqyosini kengaytirish ishlari keng joriy qilindi. Fond birjalari, qimmatbaho qog'ozlarni hisobga oladigan va saqlaydigan milliy depozitariy barpo etildi. O'rta va yirik korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, yopiq turdagi aksionerlik jamiyatlarini ochiq turdagi jamiyatlarga aylantirish amalga oshirildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ham jiddiy yangilanishlar amalga oshirildi. "Xorijiy sarmoyalar va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatini kafolatlash to'g'risida", "Bankrotlik to'g'risida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar tashqi iqtisodiy faoliyatni sezilarli darajada kengaytirish imkonini berdi, xorijiy sarmoyadorlar uchun imtiyozli sharoit yaratdi. Eksport mahsulotini va uning hajmini ko'paytirishga erishgan korxonalarga katta imtiyozlar berilgani e'tiborga sazovor.

Milliy valyutaning joriy qilinishi tashkiliy yangilanishlarni amalga oshirishda yanada muhim omil bo'ldi. Respublika valyuta birjasi tashkil etilib, bu birjada o'tkazilayotgan savdo natijasiga qarab pulning rasmiy almashuv qiymati belgilana boshlandi.

Iqtisodiyotda barqarorlik va ma'lum darajadagi iqtisodiy o'sish alomatlari ko'rina boshladi. Neft va gaz kondensati qazib olish bir necha marotabaga ko'paydi, oltin, don, yengil sanoat, ozuqa sanoati va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish ancha oshdi.

Yetakchi asosiy tarmoqlarning barqaror rivojlanib borishi hisobiga respublikaning yoqilQi-energetika mustaqilligini ta'minlovchi, pirovard mahsulot ishlab chiqaruvchi va aholi ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ishlab chiqarishlarning salmog'i ortdi.

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov iqtisodiyotimizda erishilgan natijalarni quyidagicha izohladi:

Birinchidan, makroiqtisodiy barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirilib puxta ishlab chiqilgan pul-kredit, byudjet va aksiemissiya siyosatini qo'llab, narx o'sish sur'atlarini pasaytirishga, valyutamizni mustahkamlash muammolarini yechishga kirishildi;

Ikkinchidan, sanoatni, umuman ishlab chiqarishning ustuvor yo'nalishlarini davlat tomonidan doimiy ravishda qo'llab-quvvatlanishi oqibatida ishsizlikni chegaralashga, mehnat resurslarining band bo'lishiga, ularning daromadi va byudjet daromadini barqarorlashtirishga olib keldi.

Uchinchidan, davlatimiz iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishini nazarda tutib, xalqimizning ehtiyojini qondiradigan g'alla, don, go'sht, sut mahsulotlarini chetdan olib kelishni keskin kamaytirildi. Neft va neft mahsulotlarini qo'shni davlatlardan olib kelishni kamaytirish sari hal qiluvchi qadam qo'yildi.

To'rtinchidan, xorijiy sarmoyalarni mamlakatimizga jalb etish uchun keng imkoniyatlar va muhim shart-sharoitlarni yaratildi⁶.

Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni amalga oshirishdan ko'zlangan asosiy maqsad uni haqiqiy mulkdorlar qo'liga topshirishdan iboratdir. Bu borada Yurtboshimiz: "Shundan natijaga erishishimiz kerakki, bizning pirovard maqsadimiz amalga oshsin – barcha korxonalarni o'z ishi uchun qayg'uradigan haqiqiy mulkdorlar, haqiqiy mulk egalari boshqarsin", - deb ta'kidladi.

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining bir turidan yangi turiga o'tish, iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islohotlar-iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan iqtisodiy chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy modeli yaratildi. Bu modelda yangi iqtisodiyotga o'tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutildi, islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilandi.

⁶ И.А. Каримов "Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари." Ўзбекистон Республикаси олий мажлисининг биринчи сессиясидаги маъруза, 1995 йил 23 февраль

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infra-tuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarning bosh bo‘g‘ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o‘zgartirishdir, chunki shu orqali ko‘p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhiti shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko‘zda tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiylashtirish hisobiga ko‘p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat.

5-mavzu. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni dasturlash, prognozashtirish va rejalashtirish. (4 soat)

5.1. Iqtisodiyotni dasturlash, prognozashtirishning maqsadi va shakllari, usullari.

5.2. Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirish va uning shakllari, usullari.

5.3. Rivojlangan mamlakatlarning prognozashtirish, dasturlash va rejalashtirish borasidagi tajribalari.

Tayanch iboralar: iqtisodiyotni dasturlash, prognozlash, dasturlash usullari, iqtisodiy reja, mehnatning sarflanish tezligi, jadalligi, vaqt birligi, sarflangan mehnat.

Annotatsiya

Real sektor iqtisodiyoti va uni iqtisodiy prognozlashning fan sifatida rivojlanishida uning usuli katta rol o‘ynaydi. Usul – bu, o‘rganish yo‘llari va usullarini tanlash hamda shu tarmoqdagi haqiqat ko‘rinishlarini umumiyashtirishdir. Iqtisodiy prognozlashning usuli har bir tarmoqda bo‘lganidek izlanayotgan ob‘yektlarga qarashli, o‘rganilayotgan omil va ko‘rinishlar asosiga kirish mumkin bo‘lgan dialektik usuldir. U umumiy ilmiy usullar va izlanishiga yondashuv hamda iqtisodiy ko‘rinishlarni ilmiy prognozlashga asoslangan o‘ziga xos usullar asosida ishlatiladi.

Umumiy yondashuvlardan quyidagilarni ajratish mumkin (3.1.1-Rasm):

- tarixiy yondashuv;
- kompleks yondashuv;
- tizimli yondashuv;
- tuzilmaviy yondashuv;
- tizimli-tarkibiy yondashuv.

Tarixiy yondashuv har bir hodisaning tarixiy tuzilishi bilan o‘zaro bog‘liqligini ko‘rib chiqishdan iborat. O‘tmish hozirgi kun va kelajakning o‘zaro bog‘liqligidan kelib chiqadi, kelajak hozirgidek mavjuddir. Shuning uchun prognozlash hozirda mavjud bo‘lgan qonun va tendensiyalarni undan tashqariga o‘tkazadi va uning asosida kelajakning mavjud bo‘lmagan modelini ishlab chiqish bilan bog‘liq. Bir xil ko‘rinishdagi har xil tarixiy shakllarning mavjudligi orasidagi bog‘liqlik izlanayotgan ob‘yektning hozirgi ko‘rinishi uning oldingi rivojlanish natijasi ekanligini bildiradi. Bunday yondashuv mantiqiy izlanish ijtimoiy rivojlanish tarixiy xarakterining aksi hisoblanadi.

Kompleks yondashuv hodisalar va ularning bog‘liqligi va karamligini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Buning uchun shu hodisalarni o‘rganuvchi nafaqat bu fan, balki boshqa fanlarning ham usullaridan foydalaniladi. Ijtimoiy-iqtisodiy ob‘yektlarning kelajakdagi rivojlanishi haqidagi ilmiy tasavvurlarni ishlab chiqishning nazariy asosi siyosiy iqtisod hisoblanadi.



1-Chizma. Iqtisodiy prognozlash usullarining yondashuv turlari.

Iqtisodiy prognozlashning amaliyoti va nazariyasida boshqa ijtimoiy fanlarning ilmiy apparati keng qo'llaniladi.

Tizimli yondashuv murakkab iqtisodiy tizimlardagi hajmli va sifatli bo'lishi mumkin bulgan jarayonlar o'tishini o'rganishni nazarda tutadi. Ular iqtisodiy pronozlashda katta rol o'ynaydi. Hodisani har bir ko'rinishi tizim sifatida olinishi mumkin. Bu degani ular o'zaro bog'liq qator funksiyalar, afzalliklarni ta'minlovchi bir-biri bilan bog'liq qismlardan iborat. Bu afzallik va funksiyalarni bilgan holda o'rganilayotgan ob'yektning harakatini oldindan bilish mumkin.

Tizimli yondashuv tizimning umumiy maqsadini aniqlashdan va hamma sistemalar osti faoliyatini maqsadga erishishdan chetlashtiruvchi har bir yechimning ishlab chiqilishi va asoslanishiga asoslanuvchi siyosiy fikrlash ko'rinishini anglatadi. Bunda berilgan tizim boshqa bir katta tizimning bir qismi sifatida qaraladi, uning rivojlanish maqsadi bu tizimning rivojlanish maqsadlari bilan bog'lanadi.

Strukturaviy yondashuv prognozlash ob'yektlarida izlanish katta rol o'ynaydi. Strukturaviy yondashuvda izlanish ob'yekti o'zi tarkibidagi elementlar va ularning o'zaro harakatida ko'rib chiqiladi. Bu esa o'rganilayotgan ob'yekt haqidagi tasavvurni kengaytirishga imkon beradi.

Tizimli - tarkibiy yondashuvi bir tomondan, tizimni dinamik rivojlanayotgan bir butunlik sifatida qarashni ko'zda tutsa, ikkinchi tomondan, tizimning o'zaro

harakatdagi strukturaviy elementlariga bo‘linishidir, chunki haqiqatda har bir tarkibiy element boshqa hamma elementlarga qanday ta’sir etsa, butun tizimga ham shunday ta’sir etadi. Bu bilan tizim elementlari aloqasining qonuniyligini ochish imkoni paydo bo‘ladi.

Tarmoqlararo balans (TAB)- iqtisodiyotdagi asosiy model bo‘lib, unda xalq xo‘jaligidagi turli natural va qiymat aloqadorligi ko‘rsatiladi. U sanoat, kapital qo‘yilmalar, mehnat resurslari va tarmoqlar bo‘yicha maxsulot xajmining o‘zaro boglanganligini xisobga olgan holda reja davri qator yillari uchun xalq xo‘jaligi maxsulotlarining ishlab chiqarilish va taqsimlanish ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi. Yaqin-yaqingacha TAB ikki ko‘rinishda - qiymat va natijalar shaklida shakllantiriladi. Mamlakat bo‘yicha qiymat ko‘rinishidagi TAB nomenklaturasini 120 ta tarmoq nomenklaturasini o‘z ichiga oladi va u barcha moddiy ishlab chiqarish sohasini qamrab oladi. Natural ko‘rinishdagi TAB shu bilan birga maxsulotlarni 80 % ni tashkil etuvchi asosiy maxsulotlarni qamrab oladi. Ushbu balansda 600 ga yaqin zaruriy maxsulot turlari aks ettiriladi.

Natural - qiymat balans modelini xalq xo‘jaligining kompleks tavsifini aks ettiradi. Moddiy qiymat TAB modeli balanslashtirilgan reja uchun boshlangich ma’lumotlar: MD xajmi, tarkibi ko‘rsatkichlari, eksport, import va kapital ta’minlash xajmi ma’lumotlaridir.

TAB modeli bo‘yicha ikki tipdagi hisob - kitoblar amalga oshiriladi:

Bunda berilgan yakuniy iste’mol darajasi bo‘yicha maxsulotlarni ishlab chiqarish va taqsimlanishining balanslashtirilgan rejasini hisoblab topiladi.

Aralash hisob – kitoblarni o‘z ichiga oladi. Bunda ba’zi tarmoqlarda ishlab chiqarish xajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va boshqa tarmoqlarga yakuniy iste’molga berilgan maxsulotlar bo‘yicha ishlab chiqarish va taqsimlash balansini tuziladi.

Prognozlashning ekspert usullari. Prognoz - ekspert ob’ekti perspektiv taraqqiyotiga qaraganda mutaxassislarning individual fikrlashini namoyon qiladi hamda mutaxassis tajribasi mobilizatsiya va intuitsiyaga asoslangan. Ekspert baholash usuli ob’ektlar va muammolarni tahlil qilishda, ularning taraqqiyoti to‘liq yoki qisman matematik shakllantirishga to‘g‘ri kelmaydigan, ya’ni adekvat (o‘xshash, to‘g‘rilangan) modelni ishlab chiqarish qiyin bo‘lgan hollarda ishlatiladi. Prognozlashda qo‘llaniladigan ekspert baholash usuli individual va kollektivga bo‘linadi.

Individual ekspert usuli, soxalari bir-biriga bog‘lanmagan ekspert mutaxassis fikrlaridan foydalanishga asoslangan. Ko‘pincha prognozni shakllantirishda quyidagi ikki usul qo‘llaniladi:

1.Intervyu.

2.Analitik-ekspert baholash.

Intervyu usuli prognoz qiluvchining ekspert bilan bo‘ladigan suhbatini taxmin qiladi. Shundan kelib chiqqan holda suhbat davomida prognoz qiluvchi oldindan ishlab chiqilgan dasturlar asosida ekspert oldiga ob’ektning perspektiv taraqqiyotiga nisbatan savollar qo‘yadi. Bunday baholashning muvaffaqiyati muhim darajada intervyu olinayotgan ekspert mahoratiga, uning eng fundamental savollarga tez va turli - tuman xulosalar berishiga bog‘liq.

Analitik-ekspert baxolash tahlil qilishga intilish ustidan uzoq va sinchiklab mustaqil ishlashni, prognozlanayotgan ob'yektning taraqqiyot yo'li va xolatini baxolashni taxmin qiladi. Bu usul ekspertga prognozlanayotgan ob'yekt bo'yicha lozim bo'lgan barcha axborotlardan foydalanish imkonini beradi. Ekspert o'zining fikrlarini ximoya qogozini ko'rinishida tayyorlaydi.

Ko'rilayotgan usullarning asosiy yutug'i ekspertning individual maxorati xamda aloxida ishchiga ko'rsatilgan, e'tiborga olinmagan psixologik ta'sirni maksimal darajada foydalanish imkonini beradi. Lekin bu usullar bir ekspert - mutaxassis bilimi bir qancha fan sohalari bo'yicha cheklanganligi tufayli ko'pincha umumiy strategiyani prognozlashda kam qo'llaniladi.

Ko'p hollarda umumiy strategiyani prognozlashda prognozlanayotgan ob'yektning perspektiv taraqqiyoti haqida, ekspertlarning jamoaviy fikrlarini aniqlash prinsipiga asoslangan jamoaviy-ekspert baholash usulidan foydalanish mumkin.

Bu usullarni qo'llash asosida ekspertning o'rganayotgan muammoni muhimligi va ahamiyatliligini yetarli darajada baholash gepotezasi, ma'lum bir yo'nalishdagi perspektiv taraqqiyoti, u yoki bu voqeaning yuzaga kelishi, prognoz ob'yekti taraqqiyotida maqsadli ma'lum bir muqobil yo'lni tanlash gepotezasi yotadi.

Hozirgi vaqtda maxsus hay'at a'zolarining ishlashiga asoslangan ekspert usullari keng tarqalgan bo'lib, ekspert guruhlarini «dumaloq stol atrofida» u yoki bu muammoni hal qilishda bir qarorga kelish maqsadida munozara qilib, bir fikrga kelishadi.

Haqiqatdan ham ekspert jamoasi yordami bilan prognozlashni shakllantirishda asosiy masalalar quyidagilardir:

- malakali ekspert guruhlarini shakllantirish;
- ekspertizalarni tayyorlash va o'tkazish;
- olingan hujjatlar asosida statistik hisoblashlar o'tkazish.

Anketalarda saqlangan, ko'p sonli kiyimatlar ko'rinishida berilgan, ekspert baholash natijasini statistik baholash va ularning ishonchlilik chegaralari, ekspertlar fikrlari kelishuvini statistik baholash aniqlanadi.

Prognozlanayotgan kattaliklarning o'rtacha ahamiyati quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$B = \sum_{i=1}^n B_i / n$$

Bu yerda: B_i – tarafidan berilgan prognozlanayotgan kattalikning ahamiyati;
 n – guruhdagi ekspertlar soni.

Bundan tashqari, dispersiyani ham aniqlash mumkin:

$$D = \sum (B_i - B)^2 / (n-1)$$

(Dispersiya, bu variant (B_i)dan o'rtacha arifmetik (B) ayirmasining o'rtacha kvadrati).

Bundan so'ngra j ishonchlilik intervalining yaqinlik ahamiyati hisoblanadi.

$$j = \sqrt{D/(n-1)}$$

Bu yerda: t- parametr, ya'ni styudent jadvalidan berilgan ishonchlilik ehtimoli darajasi va ozodlik darajasi soni orqali aniqlanadi. So'ngra prognozlanayotgan kattalikning ahamiyatliligi uchun ishonchlilik intervali hisoblanadi.

Takrorlash uchun savollar.

1. Iqtisodiyotini prognozlash usullari va uning turkumlanishi.
2. Tarixiy yondashuv nima?
3. Kompleks yondashuv nima?
4. Tizimli yondashuv nima?
5. Tuzilmaviy yondashuv nima?
6. Tizimli-tarkibiy yondashuv nima?
7. Tarmoqlararo dinamik balans modelini izohlab bering.
8. Prognozlashning ekspert usullari nima?
9. Matematik modellashtirish usullari nima?

6-mavzu. Iqtisodiyotda monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni rivojlantirish. (4 soat)

6.1. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari, iqtisodiy monopolizmning salbiy oqibatlarini.

6.2. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosatining mazmuni va usullari.

6.3. Antimonopol siyosatni amalga oshirish bo'yicha chet el mamlakatlari tajribasi.

Tayanch iboralar: Monopoliya, monopoliya turlari, raqobat, raqobat usullari, monopolizmga qarshi siyosat, ijobiy va salbiy monopoliyalar, sog'lom raqobat, raqobatbardoshlik, raqobatni rivojlantirish.

Annotatsiya

Monopoliya. Tarmoq bitta firmadan iborat bo'lishi sababli, u mavjud mahsulot (xizmat) ning yagona ishlab chiqaruvchisi hisoblanadi va yakka hukmronlik shakllanadi.

Monopsoniya – bu bozorning shunday holatini ifodalaydiki, bunda bozorda sotib oluvchi yagona hisoblanadi. U, ya'ni monopsonist bozor narxlarini va talabni o'zgartirish imkoniyatiga ega. Bozorga kirish qat'iy cheklangan.

Ikkiyoqlama monopoliya – raqobatning ushbu turi (birlamchi) bozorda bitta sotuvchi va bitta xaridor bo'lishini ifodalaydi. Monopolist va monopsonist bozor kon'yunkturasi kelishgan holda belgilaydi va boshqa raqobatchilarning bozorga kirishini qat'iy cheklaydi.

Oligopoliya - tarmoqda u qadar ko'p bo'lmagan korxonalarning mavjud bo'lishi va hukmronlik qilishidir. Bu oligopoliyaning eng muhim belgisidir. Qaysi tovarlar va xizmatlar bozorida nisbatan kam sonli ishlab chiqaruvchilar hukmronlik qilsa, shu tarmoq oligopolistik tarmoq hisoblanadi.

Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondoshishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar (korxonalar) o'rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iborat. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobat oxir-oqibatda iste'molchilar uchun kurashdir.

Resurslarni yetkazib beruvchilar o'zlarining iqtisodiy resurslarini (kapital, yersuv, ishchi kuchi) yuqori narxlarda sotish uchun raqobat qiladilar. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o'rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to'liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo'ladi.

Raqobat iste'molchilar o'rtasida ham yuz beradi; ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, ya'ni xaridor har bir sarflangan pul birligi

evaziga ko'proq nafililikka ega bo'lishga harakat qiladi. Arzon va sifatli tovarni tezroq sotib olish uchun kurashadi.

Shunday qilib, raqobat ko'p qirrali iqtisodiy hodisa bo'lib, u bozorning barcha sub'yektlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi.

Ishlab chiqaruvchilarning faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor va mulk egasi sifatida erkin va mustaqil bo'lishi raqobatning asosini tashkil etadi. Chunki har bir mulk egasining o'z manfaati bo'lib, ular shu manfaatga erishish uchun intiladi. Mulk egasining tovar ishlab chiqarish va barcha boshqa sohalardagi faoliyati shu manfaatga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bu jihatdan qaraganda raqobat erkin iqtisodiy faoliyat qiluvchi sub'yektlar manfaatlarining to'qnashuvidan iborat bo'lishini aniq xarakterlaydi. Raqobat mavjud bo'lishining boshqa sharti tovar-pul munosabatlarining ma'lum darajada rivojlangan bozor tizimida amal qilishidir.

Raqobatning asosiy sohasi bozor, chunki unda erkin iqtisodiy sub'yektlar alohidalashgan manfaatlari to'qnashadi.

Raqobat kurashining mazmuni to'g'risida to'laroq tushunchaga ega bo'lish uchun uning asosiy shakllari va belgilarini qarab chiqish zarur. O'z miqyosiga ko'ra raqobat eng avvalo ikki turga-tarmoq ichidagi raqobatga va tarmoqlararo raqobatga bo'linadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda bir tarmoq ichidagi raqobatning to'rtta shakli alohida ajratilib ko'rsatiladi. Bular erkin raqobat, monopolistik raqobat, monopoliya va oligopoliya.

Erkin raqobat sharoitida bir xil mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqda juda ko'p sonli korxonalar mavjud bo'ladi. Yuqori darajada tashkil qilingan bozorda ko'plab sotuvchilar o'zlarining mahsulotlarini taklif qiladilar.

Raqobatlashuvchi korxonalar bir xil yoki turdosh mahsulotlar ishlab chiqaradi. Narxlar bir xil darajada bo'lganda iste'molchiga qaysi sotuvchidan mahsulotni xarid qilish farqsiz bo'ladi.

Erkin raqobatli bozorda alohida korxonalar mahsulot narxi ustidan sezilarsiz nazoratni amalga oshiradi. Chunki har bir korxonada umumiy ishlab chiqarish hajmi uncha katta bo'lmaydi. Shu sababli alohida korxonada ishlab chiqarishning ko'payishi yoki kamayishi umumiy taklifga, demak mahsulot narxiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi.

Erkin raqobat sharoitida yangi korxonalar tarmoqqa erkin kirishi, tarmoqda mavjud bo'lgan korxonalar esa uni erkin tashlab chiqishi mumkin. Xususan yangi korxonalarning paydo bo'lishi va ularning raqobatli bozorda mahsulotlarini sotishga huquqiy, texnologik, moliyaviy va boshqa jiddiy iqtisodiy to'siqlar bo'lmaydi.

Erkin raqobat ikki darajada namoyon bo'ladi: tarmoq ichida, ya'ni bir xil tovarlar ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasidagi raqobat va tarmoqlaro, ya'ni turli tarmoqlardagi korxonalar o'rtasidagi raqobat. Tarmoqlar ichidagi raqobat ishlab chiqarish va sotishning qulayroq sharoitiga ega bo'lish, qo'shimcha foyda olish uchun bir tarmoq korxonalari o'rtasida boradi. Har bir tarmoqda texnika bilan ta'minlanish darajasi va mehnat unumdorligi darajasi turlicha bo'lgan korxonalar borligi sababli shu korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlarning individual (alohida) qiymati bir xil bo'lmaydi.

Tarmoqlararo raqobat turli tarmoqlar korxonalari o'rtasida eng yuqori foyda normasi olish uchun olib boriladigan kurashdan iborat. Bunday raqobat foyda normasi kam bo'lgan tarmoqlardan foyda normasi yuqori tarmoqlarga kapitallarning oqib o'tishiga sabab bo'ladi. Yangi kapitallar ko'proq foyda keltiruvchi sohalarga intilib, ishlab chiqarishning kengayishiga, taklif ko'payishiga olib keladi. Shu asosda, narxlar pasaya boshlaydi. Shuningdek, foyda normasi ham pasayadi. Kam foyda keltiruvchi tarmoqlardan kapitalning chiqib ketishi teskari natijaga olib keladi: bu yerda ishlab chiqarish hajmi o'zgaradi, tovarlarga bo'lgan talab ular taklif qilishidan oshib ketadi, buning oqibatida narxlar ko'tariladi, shu bilan birga foyda normasi oshadi. Natijada tarmoqlararo raqobat ob'yektiv ravishda qandaydir dinamik muvozanatni keltirib chiqaradi. Bu muvozanat kapital qayerga sarflanganligidan qat'iy nazar, teng kapital uchun teng foyda olinishiga intilishni ta'minlaydi. Demak, tarmoqlararo raqobat kapital qaysi tarmoqqa qo'yilmasin, xuddi shu tarmoq foyda normalarini o'rtacha foyda normasiga tenglashtiriladi.

Raqobatning amal qilishi ma'lum shart-sharoitlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi. Bu shart-sharoitlar faqat bozor munosabatlari qaror topgan muhitda bo'lishi mumkin. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotini yuzaga keltirish ayni vaqtda raqobatchilik muhitining shakllanishini bildiradi.

Bozor munosabatlari rivojlangan mamlakatlarda raqobatchilik muhiti uzoq davr davomida, o'z-o'zidan, evolyusion yo'l bilan vujudga kelgan. Bu asta-sekin erkin raqobat muhitini keltirib chiqargan.

Iqtisodiyotda monopollashuv tamoyillari kuchayib borishi bilan raqobat cheklanadi, shu sababli raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda davlat ham qatnashadi. Bu esa davlatning monopoliyalarga qarshi siyosatida o'z aksini topadi. Har bir mamlakatdagi aniq vaziyat, ya'ni iqtisodiyotning monopollashuv darajasi uning miqyosi va xarakteriga qarab, bu siyosat erkin raqobat muhitini yangidan yaratish, uni saqlab qolish, zarur bo'lganda qaytadan tiklash, raqobat usullarini qaror toptirish kabilarga qaratiladi. Masalan, AQSHda davlatning xususiy monopoliyalar faoliyatini cheklashga qaratilgan tadbirlari 1980 yilda trestlarga qarshi qabul qilingan qonunda ("Sherman qonuni") o'z ifodasini topadi. Monopoliyalarga qarshi qonunchilik va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar boshqa mamlakatlarda ham sharoit taqozo etgan shakllarda amal qiladi.

Rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda, shu jumladan, bizning mamlakatimizda sog'lom raqobatga shart-sharoit hozirlash, iqtisodiy sub'yektlar mustaqilligini kengaytirish orqali ularni raqobatchilikka jalb qilish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning muhim jihatlari hisoblanadi.

O'zbekistonda davlatning raqobatchilik muhitini shakllantirishga qaratilgan siyosatida xususiylashtirish, davlat mulki hisobidan mulkchilikning boshqa shakllarini vujudga keltirish asosiy o'rin tutadi. Xususiylashtirish natijasida, birinchidan, mulk o'z egalari qo'liga topshirilsa, ikkinchidan, ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatchilik muhitini vujudga keltiradi.

Shunday qilib, O'zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishning asosiy yo'li, bu raqobatni inkor qiluvchi davlat monopoliyasidan nodavlat, turli xo'jalik shakllarining mavjudligiga asoslangan va iloji boricha erkin raqobatni taqozo etuvchi bozor tizimiga o'tishdir. Bu yerda raqobatchilik munosabatlarini shakllantirish, avvalo, mustaqil erkin tovar ishlab chiqaruvchilarning paydo bo'lishini taqozo qiladi, chunki raqobatning asosiy sharti alohidalashgan, mulkiy mas'uliyat asosida o'z manfaatiga ega bo'lgan va tadbirkorlik tahlikasini zimmasiga oluvchi erkin xo'jalik sub'yektlarining mavjudligi, ularning bozor orqali aloqa qilishidir.

Takrorlash uchun savollar

1. Monopoliyalar qanday vujudga keladi?
2. Monopoliyaning turlarini sanab bering va tushuntiring.
3. Nima uchun monopol tashkilotlar faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi?
4. Monopolizmning salbiy oqibatlari nima?
5. Raqobatning mohiyati, vazifalari, shakl va usullari nima?
6. Davlatning iqtisodiy monopolizmga qarshi siyosatining mazmuni va usullarini aytib bering.
7. Antimonopol siyosat nima?
8. Antimonopol siyosatni amalga oshirish bo'yicha chet el mamlakatlari tajribasidan misollar keltiring.

7-mavzu. Bozor iqtisodiyotida narxning regulyatorlik vazifasi va davlatning narx hamda inflyasiyaga qarshi siyosatlari. (4 soat)

- 7.1. Narxning regulyatorlik vazifasi va uning bozor iqtisodiyotini tartiblashdagi ahamiyati.
- 7.2. Davlatning narx siyosatining maqsad va vazifalari.
- 7.3. Davlat narx siyosatini amalga oshirishning asosiy usullari va vositalari.

Tayanch iboralar: narx, baho, narx turlari, kelishilgan narx, yuqori narx, davlat subsidiyasi, monopol narxlar, narxning regulyatorlik vazifasi, narx orqali tartiblash, narx siyosati.

Annotatsiya

Hozirgi zamon iqtisodiyotida narx, narx belgilash tizimi – bu iqtisodiy munosabatlarning muhim tizimchasi va bozor mexanizmining tarkibiy qismlaridan biridir. Narx – bu ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar harakatlarini belgilovchi ko'rsatgichi va bozor iqtisodiyotining asosidir. Davlat iqtisodiyotni tartibga solishda narx va narx belgilash orqali ta'sir ko'rsatadi.


Hozirgi zamon qiymat va narx nazariyasi – bu iqtisodiy nazariya fanining uzoq muddatli rivojlanishi natijasidir. Iqtisodiy nazariyada qiymat, narx va ularni aniqlovchi omillar muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy nazariya – bu mehnatning qiymat nazariyasi va naflilik nazariyalarining o‘zaro aloqalari va farqlari nuqtai nazaridan, ya’ni marjinalistik nazariya tahlillari natijasidir. Ingliz klassik siyosiy iqtisod namoyondalari A.Smit va D.Rikardlar qiymatning mehnat nazariyasini asoschilari hisoblanadi. Jamiyat uchun ishlab chiqarish zarur bo‘lgan mahsulot qiymatini ijtimoiy-zaruriy mehnat sarflari yaratadi, degan g‘oya ushbu nazariyaning asosini tashkil etadi.

qiymat sifat (xaridorlar va sotuvchilar o‘rtasidagi, tovarlarni oldi-sotdi jarayonida insonlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni namoyon qiladi) va miqdor (qiymatning miqdori unga ketgan ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan aniqlanadi) jihatlariga ega. Marjinalistlarning fikriga ko‘ra narx – bu qiymatning puldagi ifodasidir. Agar qiymatning miqdori unga ketgan ijtimoiy zaruriy mehnat sarflari bilan aniqlansa, u holda narxning asosida tovarning qiymati yotadi, biroq talab va taklif mutanosibligiga bog‘liq holda narx miqdori tovar qiymatiga nisbatan o‘zgaradi.

Qiymatning mehnat nazariyasi tarafdorlarining qiymat ijtimoiy zaruriy mehnat sarflar bilan aniqlanadi degan qarashlari qiymatni tovarning naflliligi belgilaydi, degan marjinal nazariya, naflilik nazariyasining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Ushbu nazariyaning asoschilari avstriya maktabi namoyondalari K.Mengera, Ye.Bem-Baverka va F.Vizeralar hisoblanishadi. Bu maktab XIX asrning oxirgi uchinchi qismida yuzaga kelgan. Bu nazariyaga asosan qimmat (qiymat) quyidagilarga bog‘liq: 1) iste’molni qondirishning muhimligiga(naflilikka); 2) naflilikni ta’minlanganlik darajasiga. Naflilik nazariyasi – bu sub’yektiv qiymat nazariyasidir, ya’ni har bir haridor tovarning naflliligi, qimmat haqida o‘zini tasavvuridan, dididan kelib chiqqan holda xulosa qiladi. Ushbu maktab namoyondalari xarajatlarni xisobga olishmaydi. qiymatning mehnat nazariyasi namoyondalari esa aksincha, tovarning naflliligini hisobga olishmagan.

Yuqorida nomlari keltirilgan nazariyalarning eng katta kamchiligi – bu qiymat miqdorini belgilovchi yagona manbani topishga urinish hisoblanadi: birida ijtimoiy mehnat sarflari, boshqasida esa, tovarning naflliligi va bozorda uni ta’minlanganlik darajasiga urg‘u beriladi. Amaliyot, qiymat mehnat sarflariga qanday bog‘liq bo‘lsa, tovarning naflliligiga, iste’molchilarni unga bergan bahosiga ham shunday bog‘liqlikda ekanligini ko‘rsatdi. Bu nazariyalarni umumlashtiriladi(sintez), ya’ni mehnat sarflari hamda, mehnat natijalari naflliligini ham hisobga olish zarur. Bunday sintez A.Marshal, Dj.Klarkom, P.Samuelsonlar tomonidanamalga oshirilgan. Zamonaviy narx va qimmat (qiymat) nazariyalari yo‘nalishi asoschisi taniqli ingliz iqtisodchisi A.Marshal hisoblanadi. U qiymatning yagona manbaini aniqlashga urinishdan voz kechib, naflilik nazariyasinitalab va taklif nazariyasi va ishlab chiqarish xarajatlari(sarflari) nazariyasi bilan birlashtirdi. Tovarning qiymati ijtimoiy sarflar hamda, uning naflliligi bilan aniqlanishini yoritib berdi.

Qiymat bozor orqali aniqlanadi. Bozor – bu sotuvchi va haridorlar (talab va taklif) manfaatlari to‘qnashuvi orqali narx shakllanishiga olib keluvchi iqtisodiy jarayondir. Buni quyidagi sxema bo‘yicha tasvirlash mumkin:



Narx axborot berish, taqsimlash va rag‘batlantiruvchilik funksiyalarini bajaradi.

Bozor munosabatlari sharoitida narxlarning turli ko‘rinishlari mavjud bo‘ladi. Xususan: korxonalarning ulgurji narxlari, chakana narxlar, davlat buyurtma narxlari, ta’riflar va b.

Shuningdek quyidagi narxlardan farqlanadi: joriy, haqiqiy bozor munosabatlarida amal qiluvchi narxlar va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni (ishlab chiqarish xajmi, narx indeksi va b.) o‘zgarishini aniqlashda foydalaniluvchi taqqoslama narxlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narxni davlat tomonidan tartibga solish markazlashgan-rejali iqtisodiyotdagidan farqli o‘laroq keng qamrovli xarakter kasb etmaydi. Shu o‘rinda bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida narx shakllanishi stixiyali yuz beradi deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘ladi. Bu mamlakatlarda narx har doim davlatning e’tiborida bo‘lib, davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Xususan, jamiyatning ijtimoiy hayoti bilan bog‘liq narxlar davlatning diqqat markazida bo‘ladi. Davlatning narx orqali tartibga solishi – bu davlatning iqtisodiyotga ta’sir etishining asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

Narxni davlat tomonidan tartibga solishdan maqsad:

- 1) takror ishlab chiqarishning zaruriy mutanosibligiga erishish;
- 2) inflyasiya sur’atini pasaytirish;
- 3) narx o‘sishi va ish haqlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlash;
- 4) davlat korxonalarini subsidiyalash;
- 5) davlat byudjetiga zarur resurslarni jalb etish.

Davlat narx shakllanishiga bevosita va bilvosita ta’sir etadi. Narxni tartibga solishning to‘g‘ri va egri usullari farqlanadi. Ularning bo‘linishi quyidagicha: narxni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solish usuliga quyidagilar taalluqli:

- 1) narxni ma’muriy o‘rnatilish;
- 2) narxni muzlatilish;
- 3) narxni yuqori darajasini o‘rnatish;
- 4) samaradorlik darajasini reglamentlash;
- 5) davlat xarajatlarini tartibga solish;
- 6) amortizatsiya me’yorini o‘rnatish va b.

Davlat spirtli maxsulotlarga monopol «aksiz» narxlarini va transport tariflariga, xizmatlarga, aloqaga boshqa qator tovarlarga narxlarni, bojxona tariflarini belgilaydi.

Davlatning narxga ta’sir etish shakllaridan biri – bu davlatning ishlab chiqarish xarajatlariga va u orqali orqali narxga ta’sir etishidir. Bunga tezlashtirilgan

amortizatsiya harajatlari usulini misol qilib keltirish mumkin. Davlat narx shakllanishiga, ishlab chiqaruvchiga yoki haridorga davlat tomonidan maxsus qo'shimcha to'lab berish yo'li bilan narxlarni pasaytirishi nazarda tutiluvchi narx subsidiyasi orqali ham ta'sir ko'rsatadi. Narxni tartibga solishda davlatning qat'iy o'rnatgan narxlari, davlat tomonidan buyurtma qilingan ishlab chiqaruvchilar maxsulotiga narxlar muxim o'rinni egallaydi. +ishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarishni narx, dotatsiya va subsidiya orqali tartibga solishda davlatning roli juda yuqoridir. Davlat narx darajasi va narx barqarorligi mutanosibligini qo'llab-quvvatlaydi. Barcha rivojlangan mamlakatlarda bozor tebranishini yumshatish maqsadida davlat tomonidan anchagina resurslar agrar sohaga yo'naltiriladi. Narxlar, qo'shimcha to'lovlar orqali maxsulot ishlab chiqaruvchilarni kengaytirilgan takror ishlab chiqarishlarini amalga oshirishlari darajasida davlat fermerlik narxlarini qo'llab quvvatlaydi. Shu yo'l bilan qishloq xo'jaligi maxsulotlari ishlab chiqarish tarkibi va xajmi tartibga solinadi.

Barcha G'arb mamlakatlarida narxlarni davlat tomonidan tartibga solish tizimi juda ham bir-biriga yaqin. Bu qishloq xo'jaligi maxsulotlarining alohida turlariga narxlarni tebranishining yuqori va quyi chegaralarini o'rnatish hisoblanadi.

Yevropa hamkorlik mamlakatlarida umumiy qishloq xo'jaligi siyosati yuritiladi. Bu siyosatning dastagi bo'lib, ichki va import narxlari o'rtasidagi farqlarni qoplovchi bojxona bojlari va kompensasion to'lovlar shuningdek, qishloq xo'jaligi maxsulotlarini eksport qiluvchilarga maxsulotlarini Yevropadan jahon bozorlariga nisbatan past narxlarda olib chiqish imkoniyatini beruvchi kompensasion to'lovlar hisoblanadi. Bunday tizim nafaqat Yevropa qishloq xo'jaligi salohiyatini saqlab qolish, qishloq xo'jaligida ilmiy-texnika inqilobini amalga oshirish, balki, G'arbiy Yevropani yirik maxsulot eksportchisiga aylantirish imkonini beradi. Yevropa hamkorlik mamlakatlarida qishloq xo'jaligi va qora metallurgiya sohasida(narxlarni 15% gacha qamrab oladi) narxlarni milliy tartibga solish xususiyatlari mavjud. Qishloq xo'jaligi maxsulotlari narxlari bo'yicha qarorni Yevropa hamkorligining vazirlar Kengashi qabul qiladi, biroq qora metallurgiya maxsulotlari narxlari esa bazis narxlari orqali o'rnatiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qiymat va narx nazariyalarini yoriting?
2. Marjinalistlarning qiymat va narx nazariyasini va uning qiymatning mehnat nazariyasidan farqini tavsiflab bering?
3. Zamonaviy narx va qiymat nazariya qiymatning mehnat nazariyasi va yuqori naflilik nazariyalarining sintezi ekanligini tushuntirib bering?
4. Narxni davlat tomonidan tartibga solishning qanaqa asosiy usullari mavjud?
5. To'g'ri va egri usullar deganda nimani tushunasiz?
6. Agrar sektorda narxni davlat tomonidan tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari va shakllari nimalardan iborat?

7. O‘zbekistonda narxni davlat tomonidan tartibga solish usullari va shakllariga misollar keltiring?

8. Inflyasiyaga qarshi siyosat narxni davlat tomonidan tartibga solishning bir shakli ekanligini tushuntirib bering?

8-mavzu. Real sektorni davlat tomonidan tartibga solishning byudjet-soliq siyosati vositalari. (4 soat)

1-ma’ruza mashg‘uloti.

8.1. Davlat byudjeti – davlat moliya fondining asosi va iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishning muxim shakli sifatida.

8.2. Bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat byudjeti va YAIM mutanosibligi davlat iqtisodiy salohiyatini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkich sifatida.

8.3. Davlatning byudjet siyosati.

2-ma’ruza mashg‘uloti.

8.4. O‘zbekiston davlat byudjeti va uning shakllanishi va taqsimlanishining xususiyatlari.

8.5. Soliq va uning vazifalari.

8.6. Soliq va iqtisodiy o‘rish.

Tayanch iboralar: byudjet, byudjet tuzilishi, byudjet tasniflari, joriy byudjet va taraqqiyot byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar, Respublika va mahalliy byudjetlar, byudjet taqchilligi, davlat qarzlar, soliq, soliq yuki, kredit, tarmoqlararo qayta taqsimlash, tarmoq ichida qayta taqsimlash, hududiy qayta taqsimlash, soliq krediti, xalqaro kredit.

Annotatsiya

Byudjet-soliq va kredit shakllari milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmida muhim o‘rinni egallaydi. Ushbu bo‘lim maqsadi iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning byudjet, soliq, kreditdan foydalanish xususiyatlarini ochib berish.

Davlat byudjetida jamiyat iqtisodiy munosabatlarining bir qismi, ya’ni davlat daromadlarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlar namoyon bo‘ladi. Soliqlar, zayomlar va boshqa shakllar asosida davlat byudjeti daromadlari shakllantirilishi orqali yirik moliyaviy resurs jamlanadi. Bu to‘g‘risida davlat byudjeti xajmini YAIM ga mutanosibligi ko‘rsatadi. 2000 yil rivojlangan mamlakatlarda davlat byudjeti xarajatlari YAIM ga nisbatan % hisobida A+Sh 29% dan Fransiyada 51% gacha tebranganligini kuzatish mumkin. Butun YeIRXT mamlakatlari bo‘yicha – 36,5%, shulardan, Italiyada – 46,7%, Germaniyada – 43%,

Yaponiyada – 38,2%, Kanadada – 37,8%⁷. O‘zbekiston Respublikasida davlat byudjeti xarajatlari YAIM ga nisbatan 29,5% ni tashkil etadi. (maqsadli fondlar bilan – 38,5%)

Bu davlat byudjetini iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat byudjetining boshqaruvchanlik roli milliy daromadni tarkibiy qismlarini davlat mulk shakllari bo‘yicha qayta taqsimlashda namoyon bo‘ladi. Byudjet orqali, uning resurslaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida, moddiy va nomoddiy sohalar o‘rtasida, tarmoqlar o‘rtasida, hududiy birliklar va aholini ijtimoiy guruhlari o‘rtasida milliy daromadni qayta taqsimlash amalga oshiriladi. Byudjet makroiqtisodiy proporsionallikka erishish va uni qo‘llab-quvvatlashda muhim dastak bo‘lib hisoblanadi. Asosan iste‘mol va jamg‘arish fondlari o‘rtasidagi zarur mutanosiblikni saqlab turishda davlat byudjetining roli kattadir. Byudjetning takror ishlab chiqarishga ta‘siri, iqtisodiy va madaniy rivojlanish uchun, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar bilan ta‘minlashda namoyon bo‘ladi. Byudjet davlatning iqtisodiy siyosatini yuritishda muhim vosita bo‘lib hisoblanadi.

Byudjetga iqtisodiy rivojlanishni tartibga solish dastagi, takror ishlab chiqarishni oldindan aniqlash jarayonida, ya‘ni ishlab chiqarish kuchlariga va ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirishga ta‘sir etuvchi vositasi sifatida qaraladi. Alohida davrlarda esa, xo‘jalik-tashkiliy faoliyatiga, davlat siyosati va iqtisodiy siyosatni ilmiylik darajasiga bog‘liq holda islochlarni amalga oshirishda byudjetning roli kattadir.

Asosiy ishlab chiqarish kuchlari bo‘lgan ishlab chiqarish xodimlari malakasini oshirishdagi muhim vazifalar ham byudjetga bog‘liqdir.

O‘zbekistonda zarur takror ishlab chiqarish proporsiyasiga erishishda byudjetning roli va bunday proporsiyaga erishish uchun milliy daromadni qayta taqsimlashdagi byudjetning roli haqidagi ba‘zi tasavvurlar quyidagi dalillar beradi: misol uchun, byudjetga yengil va oziq-ovqat sanoatidan tushgan tushumlardan shu tarmoqlarga byudjetdan qilingan xarajatlar bir necha marta ko‘p bo‘ladi. Bu boshqa tarmoqlarda yaratilgan milliy daromadning bir qismini yuqorida sanalgan tarmoqlarga yo‘naltirilishini anglatadi va tarmoqlar o‘rtasida, ya‘ni moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari o‘rtasida qayta taqsimlash yuzaga keladi. Keyingi dalil davlat byudjetini hududiy qayta taqsimlashga misol bo‘ladi. +oraqalpog‘istondan byudjet daromadiga uning hududidan kelib tushayotgan barcha tushumlar shu hududga qilingan byudjet xarajatlarini qoplamaydi. Daromadlarni davlat byudjeti orqali qayta taqsimlash zarurati daromadni yaratilgan joy bilan uni iste‘mol etish zarur bo‘lgan joylarini bir-biriga mos emasligi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini tarkibiy qayta qurishda, asosan bozor iqtisodiyotiga o‘tishda byudjet muhim o‘rinni egallaydi.

Davlat byudjet orqali ilmiy moliyalashtirishda, ITTLI ni moliyalashtirishda faol ishtirok etadi. Bir qator mamlakatlarda byudjetdan ITTLI ga ajratilgan umumiy xarajatlar 50% atrofni tashkil etadi. (AQSh – 46,4%, Fransiyada – 49,3%)⁸

⁷ Вопросы экономики. 2002 №11 5-бет

⁸ Общество и экономика, 1997 г №6, стр.12

ITTLI ga ajratilgan byudjet resurslari bir qator transport va informasion tarkibni yangilashga, hamda aholini ma'lumot darajasini oshirishga yo'naltiriladi.

Soliqlar va ularning xajmi davlat byudjeti xarajatlari summasiga bog'liq bo'lib, byudjetning 90 va undan ortiqroq qismini tashkil etadi. Soliqlar – milliy daromadning bir qismi bo'lib, majburiy to'lanadigan to'lovlarning davlat mulkiga aylanish xususiyatiga ega. Shuning uchun soliq miqdorini undirish – bu milliy daromadning bir qismini davlat ixtiyoriga o'tish jarayoni hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqlar YAIM ga nisbatan 30% dan 50%gacha tashkil etadi. Bu esa soliqlarni iqtisodiy o'sishga ta'sir eta olishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Yuqori soliq yuki ta'siri, soliq summasini YAIMga nisbati iqtisodiy o'sishni susaytiradi. Optimal soliq yuki aksincha, iqtisodiy o'sishni kuchaytiradi va boshqa jamiyat iste'molini qondiradi. Shu o'rinda iqtisodiy o'sishga soliq yukini ta'siri bo'yicha tadqiqot natijalarini keltirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodchi Dj.Skali dunyoning 103 mamlakati bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirish maqsadida tadqiqot o'tkazdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki byudjetga undiriladigan daromad pas soliq stavkali (19,3% atrofida) mamlakatlarda iqtisodiy o'sish o'rtacha yiliga 2,4% ni tashkil etishi, yuqori stavkali (43,2%) mamlakatlarda esa iqtisodiy o'sish 0,4% dan oshmasligi ma'lum bo'ldi⁹. Muallif past proporsional soliqlar maqsadga muvofiq ekanligini hulosa qildi. Boshqa tadqiqotchilar soliq stavkalari belgilangan optimal darajadan oshmasligi lozim deb hisoblaydilar. Aynan soliq yukining optimal darajasi bu davlat byudjeti talablari bilan tadbirkorlar manfaatlari o'rtasida qarama-qarshiliklarni xal etishda eng maqsadga muvofiq qaror hisoblanadi.

Yuqoridagilarga muvofiq, bir qator davlatlarda shu o'rinda O'zbekiston Respublikasida ham zamonaviy pul-kredit siyosatining muhim yo'nalishlardan biri soliq yukini pasaytirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida 2015 yilda soliq yuki byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlardan tashqari 1998 yildagi 27,9% dan 22,8% gacha qisqartirildi, byudjetdan tashqari fondlarga to'lovlar bilan birga esa 37% dan 31,8% gacha pasaydi (Muallif taxmini)

Soliqlar davlat byudjetining daromadlar qismini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda bir qator asosiy fizkal vazifalarni va boshqa vazifalarni: taqsimlash vazifasi va alohida maxsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish vazifalarini bajaradi. Yoki aksincha, soliqlar barqaror tutib turish, ba'zi ishlab chiqarish turlarini chegaralab turish vazifalarini ham bajaradi.

Soliqlarning taqsimlash vazifasi bo'lib, aholi daromadlariga progressiv stavkalar ko'rinishida qo'llanishi, soliq undirilmaydigan minimumlarning o'rnatilishi, kam daromadlarga mos tarzda past soliq stavkalari va yuqori daromadlarga yuqori soliq stavkalarining o'rnatilgan. AQSh da shaxsiy daromadlar bo'yicha minimal soliq stavkasi 12% ni tashkil etadi, yuqori darajasi esa 36% ni tashkil etadi. Yaponiyada mos tarzda 10%dan 50% gachani, Germaniyada 19% dan 53% gachani, Belgiyada 25%dan 55% gachani, Niderlandiyada 7,1% dan 60% gachani tashkil etadi.

⁹ Налоговой кодекс Республики Узбекистана Т. 1997 г. 93,112-стр.

O'zbekiston Respublikasida aholi daromadlariga solinadigan minimal soliq stavkasi 13% ni maksimal soliq stavkasi esa 33% ni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi norezidentlari daromadlarini chetga olib chiqishlarini chegaralash maqsadida daromad solig'iga qo'shimchalar kiritilgan bo'lib, chetga chiqadigan daromadlarga qo'shimcha 10 % miqdorda soliq undirish qonunda ko'rsatilgan. Eksport qilinadigan tovar va xizmatlarni rag'batlantirish uchun bu tovar va xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladi.

Aholini ba'zi turdagi tovarlarning iste'molini qisqartirish maqsadida alohida tovarlardan aksiz egri soliqlarini undirish keng qo'llaniladi.

Takrorlash uchun savollar

1. Davlat byudjeti – davlat pul resurslarining asosiy fondi va iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning dastagi ekanligi.
2. Soliqlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqadorliklarni tushuntirib bering?
3. Soliqlarning vazifalari nimalardan iborat?
4. Soliq imtiyozlari iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usuli va vositasi ekanligini tavsiflab bering?
5. Amortizatsiyani tezlatish shaklida imtiyozlar mazmunini yoritib bering?
6. ITTLI ni rag'batlantirishda soliq usullari va shakllari qanaqa?
7. O'zbekistonda asosiy soliq imtiyozlarini sanab o'ting?

9-mavzu. Real sektorni tartibga solishda davlatning pul-kredit siyosati vositalari. (4 soat)

1-ma'ruza mashg'uloti.

- 9.1. Pul va pul muomalasi, pulga bo'lgan talab va pul taklifi.
- 9.2. Kredit va bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.
- 9.3. Rivojlangan mamlakatlarda pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartibga solish muammolari.

2-ma'ruza mashg'uloti.

- 9.4. O'zbekistonda pul-kredit siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.
- 9.5. Davlatning monetar siyosatining mazmuni va yo'nalishlari, usullari.
- 9.6. O'zbekistonda pul-kredit tizimini tartibga solishni yanada takomillashtirish yo'llari.

Tayanch iboralar: pul, pul muomalasi, pulga bo'lgan talab, pul taklifi, kredit, bank tizimi, pul-kredit vositalari, monetar tartibga solish, pul-kredit siyosati, monetar vositalar, pul-kredit tizimi.

Annotatsiya

Pul-kredit siyosati davlat iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, uni falsafiy kategoriyaga qiyoslaydigan bo'lsak, u usqurtmaga taalluqlidir. Har qanday jamiyatda ham davlat biror-bir maqsadga erishish, oldiga qo'yilgan vazifalar va majburiyatlarni bajarish uchun moliyadan keng foydalanadi. Pul-kredit siyosati qo'yilgan maqsadlarni hayotga tatbiq etish uchun, bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarni tashkil etishda asosiy rol o'ynaydi.

Moliya siyosatini iqtisodiyotga tatbiq etishda bir nechta umumiy va alohida tamoyillarga e'tibor berish muhim o'rin tutadi. Moliya siyosatining umumiy tamoyillari ko'p, ammo asosiylari etib quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- ob'yektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligi va ularning doimo harakatda bo'lishi;

- muayyan tarixiy sharoitlarni hisobga olish tadbirlari;

- moliya sohasidagi mahalliy va xorij tajribalarini uyg'unlikda olib borishni ta'minlash;

Moliya siyosatining alohida (maxsus) tamoyillariga quyida keltirib o'tilgan asosiy tamoyillarni ko'rsatish mumkin:

- jamiyatda moliya tizimining rasional tuzilishini ta'minlash;

- moliya mexanizmining qurilishini maqsadga muvofiq ta'minlash;

- moliya tizimining barcha bo'g'inlarida daromad va xarajatlarni muvozanatlashtirish;

- byudjetdagi daromadlarning xarajatlardan yuqoriligini ta'minlash maqsadida moliyaviy rezervlarni tashkil qilish;

- asosiy moliya resurslarini muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirish maqsadida konsentratsiyalash;

- salmoqli moliya resurslarini davlat ixtiyorida shakllantirish;

- pul-kredit siyosati bilan moliya siyosatini muvofiq-lashtirish, ya'ni biri ikkinchisiga ziddiyatli bo'lmasdan, bir-biriga muhim shart-sharoit yaratishi zarur.

Amalga oshirilishi lozim bo'lgan tadbirlar xususiyati va muddatini e'tiborga olib, moliya siyosati: pul-kredit siyosati strategiyasi va pul-kredit siyosati taktikasiga bo'linadi.

Pul-kredit siyosati strategiyasi - pul-kredit siyosatining uzoq muddatli yo'nalishi bo'lib, iqtisodiy va sosial strategiya belgilab bergan ulkan masshtabli vazifalarni kelajakda bajarishni ta'minlashni ko'zda tutgan moliyaviy tadbirlar yig'indisidir. Moliyaviy strategiyaning ishlab chiqarish jarayonida moliyaviy rivojlashtirishning asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi, ularning foydalanish konsepsiyalari shakllantiriladi va moliyaviy munosabatlar tamoyillarini tashkil qilish belgilab beriladi.

Pul-kredit siyosati taktikasi - qisqa muddatli va kichik masshtabli moliyaviy chora-tadbirlarni hal qilishga qaratilgan yo'nalishlar mujmuasidir. Moliyaviy taktikada, moliyaviy strategiyaga erishish maqsadidagi bosqichlar ko'zda tutiladi. U moliyaviy strategiyaga nisbatan egiluvchanligi, moliyaviy resurslarni qayta guruhlash kabi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xulosa qilib aytganda, pul-kredit siyosati taktikasi orqali moliya strategiyasi qo'ygan maqsadga tejamkorlik va samarali yo'llardan foydalanish orqali iqtisodiy natijalarga erishishdir.

Pul-kredit siyosatining strategiyasi va taktikasi o'zaro uzviy bog'liqlikdadir. Strategiya taktik vazifalarni yaxshi, qulaylikda bajarilishi uchun muhim imkoniyat yaratib beradi. Davlat siyosatidan ma'lumki, respublikadagi pul-kredit siyosati pul-kredit siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, ikkalasi birgalikda makropul-kredit siyosatini tashkil qiladi. Shunga tayangan holda, moliya strategiya va taktikasiga bir muayyan misolni keltiramiz. 1994 moliya yilining iyul oyidan boshlab, mustaqilligimizni asosiy ramzlaridan biri bo'lgan milliy valyuta muomalaga kiritildi. Milliy valyutaning to'laonli valyuta funksiyalarini bajarishi uchun muayyan moliyaviy strategiya va taktika qabul qilingan. Milliy valyutaning ichki va tashqi konvertatsiyasining to'liqligicha ta'minlanishi pul-kredit siyosatining strategiyasi hisoblanadi. Ana shu maqsadga erishishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbir bosqichlari pul-kredit siyosatining taktikasi bo'ladi.

Pul-kredit siyosati inson faoliyatining o'ziga xos maxsus bo'lagi sifatida ustqurma kategoriyasiga xosdir. Jamiyatdagi iqtisodiy bazis va pul-kredit siyosati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Bir tomondan, pul-kredit siyosati iqtisodiy munosabatlar ta'sirida vujudga kelsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy bazis asosida paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bir qatorda, pul-kredit siyosati ma'lum mustaqillikka ham ega bo'ladi, ya'ni unda o'ziga xos qonun va mantiqiy rivojlanish bor.

Iqtisodiy rivojlanish va sosial progressga pul-kredit siyosatining ta'sirini to'laonli ta'minlash uchun ilmiy asoslangan pul-kredit siyosatini ishlab chiqish lozim. Oldingi xo'jalik yuritish tajribalaridan pul-kredit siyosatining jamiyatdan nomutanosib ajrab qolishi mudhish iqtisodiy tanglikni vujudga keltirishi va rivojlanishni susaytirishlari ma'lum bo'lgan. Masalan, rejali iqtisoddagi xo'jalik yuritish tajribasida, xo'jalik sub'yektlariga nisbatan iqtisodiy, moliyaviy mustaqillik qo'llanilmas edi. Korxonalar byudjetga tegishli bo'lgan majburiy to'lovlarni bajargan bo'lsa ham, moliya yili oxirida uning ixtiyorida qolgan moliyaviy resurslar majburan davlat byudjetiga olib qo'yilar edi.

Bunga qo'shimcha, yuqori tashkilot ham o'ziga xos to'lovlarni amalga oshirishni talab qilib, korxonaning tashabbuskorlik imkoniyatiga to'siq bo'lar edi. Pirovardida, xo'jalik sub'yektlari moliyaviy resurslardan samarasiz foydalanishga harakat qilib, jamg'arish va investision jarayonni amalga oshirolmasdi. Jamoalashtirishda (ko'p hollarda majburiy) qiymat qonunining borligi tan olinmasdan kelindi (qiymat qonunining buzilishi: o'tgan bir necha o'n yilliklarda agrar sohaning jamg'armasini baho, soliq va sug'urta to'lovlari shaklida majburan olib kelindi). Natijada, dehqonning yerga, mulkka bo'lgan munosabati so'ndi va iqtisodiy tashabbuskorligi susaydi.

Pul-kredit siyosatidan ko'zlangan asosiy maqsadlar rang-barang bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish;
2. Moliyaviy resurslarning hajmini oshirish;
3. Jamiyat rivojlanishini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash maqsadida, moliyaviy resurslarni ijtimoiy barkarorlikni saklagan xolda jalb qilish;

4. Mamlakatdagi barcha mulk shaklida bo'lgan tadbirkorlar faolligini oshirish maqsadida qulay sharoit yaratish;

5. Soliq to'lovchi sub'yektlar daromadidan byudjet daromadini shakllantirishda, maqsadga muvofiq stavkalarni joriy etish va boshqalar.

Pul-kredit siyosatining asosiy yo'nalishi - moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy tizim sohalari o'rtasida qayta taqsimlash va bosh yo'nalishga ega bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni barqarorlashtirish maqsadida, davlat ixtiyoridagi moliya resurslarini markazlashtirishdan iboratdir.

Ilmiy asoslarga tayangan va iqtisodiy qonunlar talabi asosida to'g'ri tashkil qilingan pul-kredit siyosati ijobiy natijalar beradi. Uning ahamiyati shundaki, jamiyat va uning zahirida yuridik hamda jismoniy shaxslarning farovonligi, turmush darajasi yaxshilanadi. Pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish jarayonida, moliyaviy resurslardan aholining moddiy va ma'naviy darajasini oshirish, sosial-madaniy tadbirlarga mablag'lar kengroq jalb etiladi, xalq iste'moli mollarini ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va ularni mamlakat hududida maqsadga muvofiq joylashishida, pul-kredit siyosatining o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Pul-kredit siyosati maqsadli dasturlarni joylarda bajarilishi uchun qulay shart-sharoit yaratib beradi. Masalan, mehnat resurslaridan joylarda samarali foydalanish uchun O'zDEU avtokorxonasining Farg'ona vodiysida qurilishi, shakar zavodining Xorazm vohasida qurilishi, to'qimachilik korxonalarining Qashqardaryo va Toshkent viloyatlarida qurilishini tashkil qilishda pul-kredit siyosatining o'rni beqiyosdir.

Yaxshi tashkil qilingan pul-kredit siyosati har bir mintaqaning moddiy manfaatdorligini oshirishda, ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil qilish va mahalliy xom ashyo resurslaridan kam chiqimsiz va yuqori samarali foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yadi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiyotni liberallashtirish va uning barqaror yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlarning amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sishda davom etishini ta'minladi.

Xususan, 2017 yilda jahon miqyosida iqtisodiy faollikning kuchayishi natijasida halqaro savdo hajmlarining ortishi hamda jahon bozorlarida respublikamiz asosiy eksport tovarlari narxlarining oshishi mamlakatimiz iqtisodiyotining o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xalqaro valyuta fondining 2018 yil yanvar oyida e'lon qilingan jahon iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollari bo'yicha qayta ko'rib chiqilgan hisob-kitoblariga ko'ra, 2017 yil yakuni bo'yicha jahon iqtisodiyotining o'sish sur'ati 3,7 foizni tashkil qilib, 2016 yilga (3,2 foiz) nisbatan 0,5 foiz bandga yuqoriroq bo'ldi.

Bunda iqtisodiy o'sish sur'atlarining 2016 yilga nisbatan tezlashishi dunyoning 120 ta mamlakatida kuzatilgan bo'lib, ularning hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 75 foizi to'g'ri keladi. Ta'kidlash joizki, bunday keng qamrovli iqtisodiy o'sish jahon iqtisodiyotida 2010 yildan beri birinchi marotaba kuzatildi.

2017 yilda O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlari hisoblangan davlatlar iqtisodiyotida ham o'sish sur'atlarining 2016 yilga nisbatan yuqori bo'lishi mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga tashqi talabning oshishiga xizmat qildi.

Hisobot yili davomida neft ishlab chiqarish hajmini chegaralash bo'yicha kelishuvning uzaytirilishi va Yaqin Sharqda geosiyosiy tanglikning saqlanib turishi sababli jahon bozorida «Brent» markali neft narxi 2016 yilga nisbatan 20,5 foizga oshdi. Mazkur omil Rossiya iqtisodiyotining 2016 yildagi 0,2 foizlik pasayishidan so'ng, 2017 yilda 1,5 foizga o'sishida muhim rol o'ynadi.

Qozog'istonda ham 2017 yil yakuni bo'yicha iqtisodiy o'sish sur'ati 2016 yilga (1,1 foizlik o'sish) nisbatan sezilarli darajada jadallashib, 4,0 foizni tashkil etdi.

Xitoy eksportiga tashqi talabning oshishi natijasida 2017 yilda mazkur mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'ati 2016 yildagi 6,7 foizga nisbatan biroz yuqorilab, 6,9 foizga yetdi.

Shuningdek, iqtisodiy o'sish sur'atlari Turkiyada 3,2 foizdan 5,1 foizgacha, respublikamizga qo'shni bo'lgan va bugungi kunda o'zaro iqtisodiy aloqalar jadal rivojlantirib borilayotgan Tojikistonda 6,9 foizdan 7,1 foizgacha, Turkmanistonda 6,2 foizdan 6,5 foizgacha, Qirg'izistonda 3,8 foizdan 4,5 foizgacha hamda Afg'onistonda 2,2 foizdan 6 foizgacha ko'tarildi.

Bundan tashqari, hisobot yilida jahon bozorlarida O'zbekistonning asosiy eksport mahsulotlari qatoriga kiruvchi oltin narxining 12 foizga, mis narxining 20,7 foizga va paxta narxining 12,8 foizga o'sishi respublikamizning tashqi iqtisodiy faoliyatdan oladigan daromadlarining oshishini ta'minlab, iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori bo'lishiga xizmat qildi.

Ta'kidlash joizki, 2017 yilda respublikamiz uchun qulay tashqi iqtisodiy shart-sharoitlarning shakllanishi iqtisodiy o'sish jarayonlariga ijobiy hissa qo'shgan bo'lsa-da, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi asosan ichki omillar hisobiga ta'minlandi.

2017 yil respublikamizda barcha sohalarda keng qamrovli o'zgarishlar va faol islohotlar yangi davrining boshlanish yili bo'ldi. Xususan, hisobot yili davomida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish hamda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash bo'yicha ishlarning faollashtirilishi iqtisodiy o'sishning yuqori darajada bo'lishida muhim rol o'ynadi.

Shuningdek, mamlakatimizning barcha hududlarida ko'p qavatli uy-joylarni, namunali loyihalar bo'yicha shaxsiy uy-joylarni, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlari hamda ijtimoiy soha ob'yektlarini qurish va rekonstruksiya qilish hajmlarining sezilarli darajada oshirilishi yalpi talabning o'sishini qo'llab-quvvatlab, iqtisodiyotda mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hajmlarining yuqori sur'atlarda o'sishiga xizmat qildi.

Valyuta siyosatining liberallashtirilishi munosabati bilan milliy valyuta ayirboshlash kursining keskin pasayishi, tashqi savdo faoliyatining bosqichma-bosqich erkinlashtirilishi, qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarning kengaytirilishi hamda eksportni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar tovar va xizmatlar eksporti o'sishini va shu orqali real sektordagi iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlovchi omillardan biri bo'ldi.

O'z navbatida, valyuta bozori liberallashtirilgandan keyingi davrda Markaziy bank pul-kredit siyosatining faollashishi va samaradorligining oshishi, shu jumladan, tijorat banklari likvidliligini iqtisodiyotning kredit mablag'lariga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojiga mos ravishda oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning ko'rilishi hisobot yilida iqtisodiyotning rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shdi.

Hisobot yili davomida respublikamiz iqtisodiyoti uchun tashqi va ichki omillarning ijobiy shakllanishi natijasida iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida iqtisodiy va investisiyaviy faollikning barqaror oshishi kuzatildi. 2017 yil yakuni bo'yicha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining (YAIM) real o'sish sur'ati 5,3 foizni, uning nominal hajmi esa 249,1 trln. so'mni tashkil etdi. YAIMning aholi jon boshiga hisoblangan miqdori esa 2016 yilga nisbatan real hisobda 3,6 foizga o'sib, 7 692 ming so'mni tashkil etdi.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar

(2017 yil yanvar-dekabr)

Ko'rsatkichlar	Mrd. so'mda	2016 yilga nisbatan (foizda)
Yalpi ichki mahsulot (YAIM)	249 136,4	105,3
YAIM deflyatori	x	118,9
Sanoat mahsulotlari hajmi	144 185,3	107,0
Iste'mol tovarlari hajmi	56 159,4	102,7
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi	69 504,2	102,0
Xizmatlar hajmi	116 795,7	108,9
Asosiy kapitalga investisiyalar hajmi	60 719,2	107,1
Kapital qurilish hajmi	34 060,8	105,6
Chakana savdo aylanmasi	105 767,8	102,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hisobot yilida mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) hajmlari o'sishi sanoatda 7,0 foizni, qurilish sohasida 5,6 foizni, xizmat ko'rsatish sohasida 8,9 foizni va qishloq xo'jaligida 2,0 foizni tashkil etdi.

2017 yilda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari tomonidan yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM hajmining 89,8 foizini (YAIM o'sishiga hissasi 4,8 foiz band), tovarlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi esa 10,2 foizni (YAIM o'sishiga hissasi 0,5 foiz band) tashkil etdi.

Iqtisodiyotda yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat o'sishining tarmoqlar kesimidagi tahlili yalpi ichki mahsulot, uning 5,3 foizlik o'sishining shakllanishida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi eng yuqori bo'lganligini (3,4 foiz band yoki jami YAIM o'sishining 64 foizi) ko'rsatmoqda.

Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha shakllanishi

Ko'rsatkichlar	Mlrd. so'mda		2016 yilga nisbatan o'sish, foizda	YAIM o'sishida tarmoqlar hissasi, foizda
	2016 yil	2017 yil		
I. Yalpi ichki mahsulot, jami	198 871,6	249 136,4	105,3	5,3
<i>jumladan:</i>				
Ishlab chiqarish tarmoqlari- ning jami qo'shilgan qiymati	178 053,1	223 829,8	105,3	4,8
Mahsulotlarga sof soliqlar	20 818,5	25 306,6	105,3	0,5
II. Tarmoqlarning jami qo'shilgan qiymati	178 053,1	223 829,8	105,3	5,3
Qishloq va o'rmon xo'jaligi, baliqchilik	32 276,8	43 149,8	102,0	0,4
Sanoat (qurilish sohasi bilan birgalikda)	58 546,0	74 876,1	104,8	1,5
sanoat	45 398,0	59 650,9	104,6	1,1
qurilish	13 148,0	15 225,2	105,6	0,4
Xizmatlar	87 230,3	105 803,9	106,9	3,4
savdo, ovqatlanish va turar joy xizmatlari	19 833,2	25 773,9	103,9	0,4
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	21 113,0	24 553,2	108,9	1,1
boshqa xizmat sohalari	46 284,1	55 476,8	107,3	1,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

2017 yilda sanoatda qo'shilgan qiymat hajmining 4,6 foizga o'sishi, o'z navbatida, YAIMning 1,1 foiz bandga (jami YAIM o'sishining 20,8 foizi) o'sishini ta'minladi. Sanoatda qo'shilgan qiymat hajmining o'sishi asosan tog'-kon va qayta ishlash sanoati tarmoqlaridagi yuqori o'sish sur'atlari hisobiga shakllandi.

Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va suv xo'jaligi hamda qurilish sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmining mos ravishda

2 foiz va 5,6 foizga o'sishining YAIM o'sishidagi hissasi, mazkur tarmoqlarning har biri bo'yicha 0,4 foiz bandni tashkil qildi. 2017 yil yakuni bo'yicha YAIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 47,3 foizni,

sanoatning ulushi 26,7 foizni hamda qishloq, o'rmon va suv xo'jaligi sohasi ulushi 19,2 foizni tashkil etdi.

Bunda YAIMning yuqori sur'atda o'sishida asosiy kapitalga yo'naltirilgan investisiyalar hajmining 2016 yilga nisbatan 7,1 foizga oshishi ham muhim rol o'ynadi.

Xususan, 2017 yilda respublikamiz iqtisodiyotida barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investisiyalar hajmi 60,7 trln. so'mni yoki 11,9 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Uning YAIMdagi ulushi esa 2016 yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 foiz bandga oshib, 24,4 foizni tashkil etdi.

Bunda asosiy kapitalga yo'naltirilgan investisiyalarning 60,3 foizi qurilish-montaj ishlariga hamda 31,5 foizi mashina va uskunalarni xarid qilishga yo'naltirilgan.

Jami investisiyalarning 43,9 foizi korxona va aholining o'z mablag'lari, 26,9 foizi xorijiy investisiyalar va kreditlar, 11,0 foizi tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari, 8,5 foizi O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari, 5,5 foizi davlat byudjeti hamda 3,9 foizi davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hisobidan moliyalashtirildi.

2017 yilda o'zlashtirilgan jami xorijiy investisiya va kreditlar hajmi 3 184,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investisiya va kreditlar hajmi 2 420,4 mln. AQSH dollarini tashkil etgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2016 yilga nisbatan 2,4 foizga kamaygan.

2017 yilda tijorat banklari o'z faoliyatini valyuta siyosatining liberallashtirilishi, Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining qat'iylashtirilishi va bank nazorati talablarining yanada kuchaytirilishi, tijorat banklariga, ayniqsa, davlat ulushiga ega banklarga Hukumat tomonidan iqtisodiyotni kreditlash bo'yicha vazifa va talablarning kuchaytirilishi sharoitida olib borildi hamda mazkur omillar bank tizimining rivojlanish ko'rsatkichlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi.

Hisobot yili davomida tijorat banklari umumiy kapitali 2,3 barobarga, jami aktivlari 2,0 barobarga, shu jumladan, kredit qo'yilmalari hajmi 2,1 barobarga hamda jami majburiyatlari 1,9 barobarga, shu jumladan, jalb qilingan depozitlar hajmi 1,6 barobarga oshdi. Mazkur yuqori o'sish ko'rsatkichlarining shakllanishiga milliy valyuta almashuv kursining keskin pasayishi jiddiy ta'sir qilgan bo'lsa-da, bank tizimi o'sish ko'rsatkichlarining real hisobda ham yuqori bo'lishi banklar moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

Banklar kapitali. Bank tizimi barqarorligining asosiy mezonlaridan biri, bu banklarning o'z mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, ya'ni ularning kapitallashuv darajasining yuqoriligi hisoblanadi. Tijorat banklari kapitalining yuqoriligi milliy iqtisodiyotning moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini yanada kengroq qondirish hamda aholi va kreditorlar oldidagi majburiyatlarini kengroq himoyalash imkonini beradi.

Banklar kapitallashuv darajasini oshirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tijorat banklarining umumiy kapitali 2017 yil davomida 2,3 barobarga ko‘payib, 2018 yilning 1 yanvar holatiga 20,7 trln. so‘mni, ustav kapitali umumiy miqdori esa 2,8 barobarga oshib, 16,3 trln. so‘mni tashkil etdi. Bunda davlat ulushiga ega banklar kapitali 11,7 trln. so‘mga oshdi.

Valyuta siyosatining liberallashtirilishi sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta‘minlash hamda iqtisodiyotning kreditga bo‘lgan o‘sib borayotgan ehtiyojini qondirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlariga muvofiq davlat ulushiga ega banklar kapitaliga Hukumat tomonidan 670 mln. AQSH dollari miqdorida mablag‘lar yo‘naltirildi.

Takrorlash uchun savollar

1. Pul va pul muomalasi, pulga bo‘lgan talab va pul taklifi.
2. Kredit va bank tizimining bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.
3. Rivojlangan mamlakatlarda pul-kredit vositalari orqali iqtisodiyotni tartibga solish muammolari.
4. O‘zbekistonda pul-kredit siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari.
5. Davlatning monetar siyosatining mazmuni va yo‘nalishlari, usullari.
6. O‘zbekistonda pul-kredit tizimini tartibga solishni yanada takomillashtirish yo‘llari.

10-mavzu. Jamiyatning ijtimoiy sohasi va davlatning ijtimoiy siyosati. (2 soat)

1-ma’ruza mashg‘uloti.

- 10.1. Jamiyat ijtimoiy sohasi, uning tarkibi va jamiyat rivojlanishidagi roli.
- 10.2. Ijtimoiy (sosial) siyosat tushunchalarining mazmuni va uning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti tushunchasi bilan o‘zaro bog‘liqligi.
- 10.3. O‘zbekistonda aholini ijtimoiy qullab-quvvatlash va turmush darajasini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari.
- 10.4. Daromadlar siyosati va aholi turmush darajasini o‘stirish.

Tayanch iboralar: ijtimoiy sohasi, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy qullab-quvvatlash, daromadlar siyosati, kuchli ijtimoiy siyosat, kam ta‘minlanganlik, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport sohalari, aholini ijtimoiy himoyalash.

Annotatsiya

Ijtimoiy soha – bu ja‘mi tarmoqlar, korxonalar, bevosita aloqadorligini va aniqlash mazmunini anglatuvchi, aholini turmush darajasini va ularning ta‘minlanganlik holatidir. U o‘zida xizmatlar sohasining barcha tarmoqlarini majassamlashtiradi (ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy ta‘minot, uy-joy kommunal xizmatlari, yo‘lovchi transportlari, aloqa).

Ushbu soha tarmoqlari va korxonalarining bir qismi bevosita mustaqil xo‘jalik yurituvchi korxona va tashkilotlarga ta’lluqli bo‘lsa, qolgan qismi davlatga tegishli korxona va tashkilotlar hisoblanadi. Unga mos tarzda, ularning tarkibi va rivojlanishi uchun moliyalashtirish xarajatlari xo‘jalik organlari resurslari, davlat byudjeti resurslari va davlat byudjetdan tashqari fondlari hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy sohaning davlat byudjeti va byudjetdan tashqari fondlardan moliyalashtiriladigan qismiga davlat bevosita boshqarish ta’sirini ko‘rsatadi, qolgan qismiga esa bilvosita boshqarish (qonun chiqarish, qarorlar qabul qilish yo‘li bilan) ta’sirlarini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi, uning holati avvalam bor moddiy ishlab chiqarishning rivojlanganligi bilan aniqlanadi. Biroq teskari munosabat ham bo‘lib, ishlab chiqarishni rivojlanishiga uning ta’siri hisoblanadi. Ijtimoiy sohaning rivojlanganlik darajasi davlatning iqtisodiy siyosati va iqtisodiy munosabatlar tizimi bilan o‘zviy bog‘liqdir.

Jamiyat rivojlanishida ijtimoiy sohaning roli oshib bormoqda. Bunga iqtisodiyotdagi barcha bandlardan ijtimoiy sohada band bo‘lganlar ulushining oshishi va nomoddiy sohaning rivojlanib borishi dalil bo‘la oladi.

Jamiyat rivojlanishida inson omilining roli muhim bo‘lib, u doim oshib boradi. Iqtisodiy o‘shishda ilmni va sog‘liqni ta’sirini o‘shib borishi haqida jahon bankining 1998-1999 yillar uchun «Rivojlanishda ilmning xissasi» («Znaniye na slujbe razvitiya») nomli hisobotida to‘xtalib o‘tiladi. Xodimlarning ma’lumoti, malakasining oshishi YAIM da ushbu omillar hisobiga o‘shish ulushida namoyn bo‘ladi. Masalan, Amerika iqtisodchisi Ye.Denisov taxminiga ko‘ra 1929-1982 yillarda milliy daromad o‘shishining 14% ma’lumot, malakaning oshirish hisobiga va 21% mehnat ugumdorligining o‘shishi hisobiga erishilgan.

Ishchilar malakasining o‘shishi – mehnat unumdorligini oshirishning muhim manbaidir, biroq ishlab chiqaruvchi sog‘lig‘ini mustaxkamlash esa xodimlarning kasalliklari tufayli unumdorlikning pasayishiga va kasallik davri uchun nafaqalar to‘lash bo‘yicha xarajatlarning qisqarishi olib keladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati shu sohadagi bozor va bozor mexanizmi qondira olmaydigan shunday ijtimoiy ehtiyojlar mavjudligi bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari, bozor pensiya yoshidagi kishilarning ijtimoiy himoyasiga, ishsizlarga, mehnat nogironlariga, tug‘ilgandan nogironlarga, ko‘p bolali oilalarga yordam berish kabi jamiyat xarajatlariga befarq. Bozor hattoki aholi daromadlari darajasini keskin tabaqalashuvining o‘shishiga sabab bo‘ladi va mavjud tarixiy madaniy qadriyatlarga bozor befarqlilik bilan qaraydi.

Bozor ijtimoiy barqarorlikni ta’minlamaydi. Davlat ijtimoiy sohadagi ishchilar va predmetlar o‘rtasidagi, mehnat va kapital o‘rtasidagi muammolarni xal etuvchisi sifatida chiqadi.

Bularning hammasi, ijtimoiy soha va uning normal rivojlanishi uchun tartibga solishning bozor mexanizmi bilan davlat mexanizmlarini uyg‘unlashtirish zarur ekanligini keltirib chiqaradi. Faqatgina tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlarini optimal uyg‘unlashtirish orqaligina samarali natijalarga erishish

mumkin. Ijtimoiy sohaning shunday elementlari mavjudki unda faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni samarali boshqarish mumkin. Davlat millatning sog'lig'i uchun, malakali kadrlarni tayyorlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Aholini ijtimoiy huquqlarini himoya qilish, mulkchilik huquqlarini himoya qilish ham davlatning zimmasidadir. Faqat davlat shaxsni har tomonlama rivojlanishi bilan bog'liq xarajatlarni samarali usullar bilan tartibga solishi mumkin. Va faqat uning yordami bilangina ijtimoiy yo'naltirilgan bozor tizimini yaratish va aholi daromadlari o'rtasidagi yuqori tabaqalanishlarni qisqartirish mumkin.

O'zbekistonda ijtimoiy madaniy maqsadlarga (aholini ijtimoiy himoyalari bilan birgalikda) umumiy birlashtirilgan byudjet xajmining YAIM ga nisbatida byudjet xarajatlari ko'rsatkichlarining mutanosibligi ijtimoiy sohani tartibga solish va rivojlanishida davlatning roli haqidagi tushunchalarni boyitadi.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning usullari va shakllari ko'pgina omillarga bog'liq. Ulardan: iqtisodiy rivojlanish darajasi, ushbu sohada davlat va nodavlat sektorlarining mutanosibligi, davlatning iqtisodiy siyosati va boshqalar.

Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning asosiy shakllari bo'lib: qonunchilik aktlari, byudjet-kredit va soliq shakllari, ijtimoiy sohaning bir qismini, ya'ni davlatga tegishli bo'lgan korxona va tashkilotlarni to'g'ridan-to'g'ri boshqarish.

Masalan, MDH mamlakatlarida va shu qatori O'zbekistonda ham ijtimoiy sohani tartibga solishning quyidagi shakllari qo'llaniladi:

- 1) mulkchilik shaklidan qat'iy nazar ishchilar uchun eng kam ish haqi darajasi, pensiya, ish kunining davomiyligi, mehnat tatilining davomiyligi qonunda belgilash yo'li bilan tartibga solish;

- 2) byudjet xodimlari uchun va davlat tashkilotlaridagi ishchilar uchun mehnatga haq to'lash tizimi tariflarini o'rnatish;

- 3) pensiya, nafaqalar, stipendiyalar darajasini o'rnatish, urush va mehnat fronti qatnashchilari uchun imtiyozlar tizimini o'rnatish;

- 4) ishchilar uchun progressiv soliq stavkalarini o'rnatish;

- 5) ijtimoiy soha tarmoqlari o'rtasida davlat byudjeti xarajatlari eng optimal proporsiyasini o'rnatish;

- 6) ko'proq ijtimoiy-zaruriy maxsulot va xizmatlarning yuqori narxlarini o'rnatish orqali aholi daromadlarini tartibga solish, inflyasiya jarayonida esa pensionerlar, davlat ijtimoiy soha ishtirokchilari ishchilarining daromadlarini indeksatsiyalash.

Eng kam ish haqining miqdori iqtisodiy rivojlanish darajasiga qarab belgilanadi. Masalan, g'arbning rivojlangan mamlakatlarida eng kam ish haqi ancha yuqori ekanligini bilamiz. Biroq shu o'rinda turli narx darajalarini ham hisobga olish zarur. g'arb mamlakatlarda soatbay ish haqining quyi chegarasi soatiga 3 dollar hisoblanadi.

Shu qatorda davlat tomonidan o'rnatilgan eng kam ish haqi darajasidan aholini turmush darajasini taxlil etishda va mutloq qashshoqlik ko'rsatgichi sifatida foydalaniladi. Eng kam ish haqi iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va bandlikka ham

bog'liqdir. Masalan, Jahon banki mutaxassisleri tomonidan mutloq qashshoqlik darajisini aniqlashda aholini bir kunda 2,15 dollar daromad oladigan qisminigina hisobga olishadi.

Rivojlangan mamlakatlar qatori markazlashgan-rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarda ijtimoiy sohani islohotlar olib borilmoqda, ijtimoiy maqsadlarga daromadlarni taqsimlash munosabatlari o'zgarimoqda. Asosan pensiya tizimida sezilarli o'zgarishlar va pensiya islohotlari olib borilmoqda. Pensiya yoshi oshimoqda, davlat pensiya fondi bilan birga nodavlat pensiya fondlari shakllanmoqda. Jamg'arib boriladigan pensiya fondi tizimi joriy etilmoqda.

Shunday bo'lsada, pensionerlar soni oshimoqda, pensiya uchun resurslarni oshirish talab etilmoqda, pensiya yoshi uzaymoqda. Masalan Angliya va boshqa qator mamlakatlarda 65 yoshdan pensiyaga chiqish haqida taklifi qo'yilmoqda. O'zbekistonda 2003 yildan erkaklar uchun 63 yoshdan chiqish belgilangan.

Eng ko'p jon boshiga ijtimoiy maqsadlarda qilingan xarajatlar Skandinaviya mamlakatlariga xosdir. Bu mamlakatlarda pensiya fondini shakllantirishni davlat o'z zimmasiga olgan. Germaniyada biroz boshqacha yondashuv mavjud. Pensiya fondini yaratishni aholining o'zi qabul qilgan, ya'ni uning o'zi ushbu fondga badalini olib borib berishi lozim. Ijtimoiy sug'urta fondini shakllantirishda xususiylashtirishlar olib borilmoqda, shu qatori Lotin Amerikada ham. Bunda tadbirkorlar ijtimoiy sug'urta fondi badallaridan ozod etiladi. Bu fondning resurslari ishchilarning badallari hisobiga va vaqti-vaqti bilan beriladigan davlat resurslari hisobiga shakllanadi.

Qator mamlakatlarda mutloq qashshoqlik ko'rsatgichi o'rnida xayot kechirish minimumi ko'rsatgichi qabul qilingan. Turli mamlakatlarda bu ko'rsatgich turlichadir. Qashshoqlik jihatini o'rtacha ish haqiga nisbatan foiz ko'rinishda aniqlash mezonini keng tarqalgan. Masalan, Bolgariyada hayot kechirish minimumi o'rtacha ish haqining 53-65% ga teng, Chexiyada 55-56% ga, Polshada 36% ga teng. Keltirilgan ko'rsatgichdan kam daromadga ega bo'lganlar qashshoqlar toifasiga kiritiladi.

O'zbekistonda ijtimoiy siyosat ustuvor yo'nalish hisoblanadi va u bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Xalq ta'limi va sog'liqni saqlash uchun resurslarning shakllanishida o'zgarishlar bo'lib, davlat oliy va o'rta bilim yurtlarida shartnoma asosida ta'lim berish va o'quv yurtining yangi shakllari yuzaga keldi. Sog'liqni saqlashda pulli va bepul xizmatlar ko'rsatish ko'rinishlari yuzaga keldi. Ijtimoiy sug'urtada ko'p bolali oilalarga maxalla yig'inlari tomonidan yordam ko'rsatishning roli oshdi.

Takrorlash uchun savollar

1. Ijtimoiy sohaning qaysi elementlarining rivojlanishiga faqatgina davlat samarali ta'sir eta olishi mumkin?
2. Nima uchun sog'liqni saqlash tizimi joriy etilgan?
3. Ijtimoiy sug'urta turlarini izohlab bering.
4. Ijtimoiy sohani davlat tomonidan tartibga solishning zarurati nimalar bilan bog'liq?

5. Jamiyat rivojlanishida inson omili rolining oishi nimalarga bog'liq?

11-mavzu. Davlatning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash vazifalari. (2 soat)

1-ma'ruza mashg'uloti

11.1. Iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati, shakllari, ko'rsatkichlari va uni ta'minlashning ahamiyati.

11.2. Davlat tomonidan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadlari, vazifalari va yo'nalishlari.

11.3. O'zbekistonda ichki ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda erishilgan natijalar va istiqbol yo'nalishlar.

Tayanch iboralar: Iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy ta'minlanganlik, qaramlik, ichki xavfsizlik, tashqi xavfsizlik, iqtisodiy bog'liqlik, ijtimoiy xavfsizlik, hayot xavfsizligi, baqarorlik, inqiroz va xavfsizlik, xavfsizlik omillari, oziq-ovqat xavfsizligi, xavfsizlik shartlari, raqobatbardoshlik va xavfsizlik, xavfsizlik kafolatlari.

Annotatsiya

Iqtisodiy xavf-xatarlar iqtisodiyotga tahdid o'tkazar ekan, bulardan saqlanib xavfsizlikni ta'minlash zarur, chunki bu iqtisodiy o'sishning muhim shartidir.

Iqtisodiy xavfsizlik – bu milliy iqtisodiyotni ichki va tashqi tahdidlarga dosh berib, ulardan himoyalangan bo'lishi, o'z salohiyatini saqlab qolib rivojlanishga moyil bo'lishi uni yashovchan bo'lib destabilizatsiya (beqarorlik) bo'lganda o'z qaddini rostlay olishi kabilarni anglatadi.

Iqtisodiyot tizimli bo'lganidan uning xavfsizligining turli yo'nalishlari bor. Ishlab chiqarish xavfsizligi – Bu iqtisodiy xavfsizlikni birlamchi asosi hisoblanadi, chunki ishlab chiqarishdagi xavfsizlik boshqa sohalaridagi xavf-xatarni oldini oladi.

Ishlab chiqarish xavfsizligi - bu tovar va xizmatlarni yaratish jarayonini muntazam va cheklovlarisiz bir me'yorda o'sib borishiga sharoit mavjudligini bildiradi.

Ishlab chiqarish xavfsizligi ta'minlanganda iqtisodiy barqarorlik mavjud bo'ladi, ya'ni milliy iqtisodiyot bir maromda rivojlanib boradi. Bunda ishlab chiqarish qobiliyati saqlangan holda YAIMning jon boshiga hisoblangan hajmi ortib boradi. Bundan tashqari xavfsizlik ishlab chiqarishning texnologik darajasi va milliy iqtisodiyotdagi mehnat unumdorligi, ishlab chiqarishni innovatsiyalarga moyilligi, ishlab chiqarish tarkibiy tuzilishini bozor talabiga mosligi, iqtisodiyotni tanglik paydo bo'lganda undan kichik talofotlar bilan chiqish, ya'ni uni jon boshiga saqlay bilishi kabilarni bildiradi.

Moliyaviy xavfsizlik iqtisodiy xavfsizlikning muhim tomonidir. Moliyaviy xavfsizlik ta'minlangan yerda moliyaviy barqarorlik hukm suradi. Shunday bo'lganda iqtisodiyotning real sektori bilan moliyaviy sektorlari bir-biriga mos ravishda faoliyat yuritadi.

Moliyaviy xavfsizlik iqtisodiyotning ichki va tashqi sub'yektlari o'rtasidagi pul oqimini barqaror borishi uchun sharoit hozirligini bildiradi.

Xavfsizlik bu davlat byudjeti defisitsiz bo'lishi, defisit yuzaga kelganda uni kichik bo'lishi, milliy pul qadr-qiymatini barqaror bo'lishi, banklar kapitalining yetarli bo'lishi, mamlakatdagi oltin-valyuta zaxiralarini (buni xalqaro zaxiralar, deb ham yuritishadi) yetarli bo'lishi moliya bozorini bir maromda ishlab turishini bildiradi. Pul oqimi bu iqtisodiyot uchun ozuqadir, uni to'xtovsiz borishi iqtisodiy o'sishning muhim sharti hisoblanadi, chunki busiz tovar va xizmatlarni o'z vaqtida ayirboshlanishi yuz bermaydi.

Monetar xavfsizlik, ya'ni pul muomalasining xavfsizligi alohida o'rin tutadi. Bu muomaladagi pul miqdorini iqtisodiyot ko'lamiga mos bo'lishini talab qiladi, chunki pul yetishmay qolsa iqtisodiy oborot sustlashadi. Bordiyu pul ko'payib ketsa inflyasiya xavfi tug'iladi. Shu sababli iqtisodiyotni monetizatsiya (pul bilan ta'minlanish) darajasi yetarli bo'lishi talab qilinadi, shunga qarab pul miqdori ko'paytiriladi yoki kamaytiriladi. Milliy valyuta (pul) mamlakat doirasidagi yagona to'lov vositasi bo'ladi, chetdan keladigan moliyaviy tajovuz yo'lini to'suvchi chegara yaratadi, chunki o'zga pul mamlakat ichki bozorida o'tmaydi. Shu sababli milliy pulni mustahkamlash xavfsizlikka xizmat qiladi. Umumiy pul bor joyda (masalan, yevrozonada) milliy xavfsizlikka erishish uchun umumiy pul – yevroni mustahkamlash kerak bo'ladi, chunki bu pul nafaqat umumiy bozorda, balki milliy bozorda ham yagona to'lov vositasi funksiyasini bajaradi.

Energetika xavfsizligi. Milliy iqtisodiyot barqaror o'sib borishi uchun uning hamma sohalari uzluksiz va yetarli miqdorda energiya bilan ta'minlanishi kerak bo'ladi. Sarflanadigan energiya turlari ham talabga javob berishi zarur. Energiya xavfsizligi ta'minlanmasa iqtisodiyot izdan chiqadi.

Energetika xavfsizligi – bu mamlakatdagi barcha energiya iste'molchilarini energoresurslar bilan yetarli miqdorda va ularga og'irlik qilmaydigan narxlarda uzluksiz ta'minlanib turishlarini bildiradi. Iqtisodiyot sanoatlashgan sari, aholi turmush madaniyati o'sgan sari ishlab chiqarishda va kundalik aholi turmushida energiya talabmand mashina, uskuna va asboblarni ko'p qo'llaniladi. Iqtisodiyotda uzluksiz energiya ta'minotiga erishish uchun o'z energoresurslaridan to'liq foydalanish, ular yetishmagan taqdirda importini muntazam bo'lishiga erishish kerak bo'ladi. Xavfsizlik energiya ta'minotida kollaps (to'xtab qolish) bo'lishiga yo'l qo'yilmaslikni bildiradi, chunki bu iqtisodiy kollapsga olib kelishi mumkin.

Energetika xavfsizligi quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

1. Energiya yaratish va uni uzatishning eng samarali usullarini qo'llash.
2. Energoresurslar manbalarini diversifikatsiyalash, ya'ni yangi manbalarini ishlatib energiya iste'moli bir manbaga bog'liq bo'lishiga yo'l qo'yilmaslik.
3. Ekologik toza energoresurslarni keng qo'llash, bu bilan energiya iste'moli ekologik zararsiz bo'ladi.
4. Energiya iste'molida tejamkorlikka erishish. Nafaqat ishlab chiqarish balki uy turmushida ham energiya sarfi kam bo'lgan mashina, asbob va uskunalarni ishlatilishi.

5. Yerosti tiklanmaydigan energo resurslar tugallanib borganidan doimo tiklanib turadigan energoresurslardan keng foydalanish kerak bo'ladi. Shu o'rinda bioenergiya (o'simliklarni chirish energiyasi), shamol va quyosh yerosti suvlari hamda dengiz to'lqinlari energiyadan foydalanish energetika xavfsizligi uchun istiqbolli sanaladi.

6. Energiya iste'molini bir maromda va uzluksiz borishiga erishish turli davlatlarning energiya ta'minoti tizimi bir-biriga ulanadi, ya'ni davlatlararo energiya ta'minotiga o'tiladi. Bu bilan energiya ta'minoti kanda qilmay amalga oshiriladi. Energiya resurslarini oldindan kelishilgan narxlarga binoan yetkazib beriladi, bular energiya iste'molchilariga ham ma'qul bo'ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi. Buni oziq-ovqat resurslarini cheklangan bo'lishi va ularni aholi iste'molini qondirishga yetishmay qolishi talab qiladi. Mutlaq yetishmovchilik kelib chiqqanda umuman oziq-ovqat, uning sifatidan qat'iy nazar yetishmay qolib, ochlik xavfi tug'iladi. Oziq-ovqatni nisbiy yetishmovchiligi sifatli (go'sht-yog', sut-qatiq, meva-sabzavot) mahsulotlarni aholi iste'moli uchun ozligini bildiradi. Bu yerda qorin to'q bo'ladi, lekin bu yuzaki to'qlik bo'lib, sifatsiz mahsulotlar hisobidan paydo bo'ladi, shu sababli sifatli mahsulotlarga muhtojlik mavjud bo'ladi.

Oziq-ovqat xavfsizligi – bu kishilarni miqdoran yetarli va sifati jihatidan qoniqarli oziq-ovqat bilan uzluksiz ta'minlanib turishidir.

Xavfsizlik bo'lishi uchun quyidagilar talab qilinadi:

1. Mamlakatning imkoni boricha o'zini-o'zi ta'minlab, importga kamroq qaram bo'lishi.

2. Ovqatlanish beradigan kuch-quvvat sog'lom yashash uchun yetarli bo'lishi, bir kunlik oziq-ovqat eng kamida 2600 kalloriya, ko'p bo'lganda 3500 kalloriya berishi.

3. Oziq-ovqat sifatli bo'lib, uning tarkibida oqsil, yog', vitaminlar va mineral moddalarga boy mahsulotlar yetarli bo'lishi.

4. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining narxi ko'pchilik aholi uchun og'irlik qilmasligi.

5. Aholining oziq-ovqat uchun sarfi uning iste'mol xarajatlarining yarmidan oshmasligi.

6. Yig'ilgan oziq-ovqat zaxiralari aholi ta'minotida jiddiy uzilishlarga yo'l bermasligi.

Xavfsizlikni ta'minlash uchun oziq-ovqat ishlab chiqarishni aholi sonini o'sishiga nisbatan jadalroq o'sishiga erishish zarurki, bu ekin maydonlarini kengaytirish, hosildorlikni oshirish (genetik modifikatsiyalashgan mahsulotlarni ko'paytirib bo'lsa ham) talab qiladi. Qishloq xo'jaligiga katta investisiyalar yuborish, agrar islohotlarni chuqurlashtirish, fermerlarni qo'llab-quvvatlab, ularga boshqa yerdagilardan kam bo'lmagan daromad topishga imkon berish kerak bo'ladi.

Hozir dunyo aholisi 7 mlrd. ortiq bo'lsa 2050 yilga borib 10 mlrd nafarga yetadi. Bu Osiyo va Afrika hisobidan bo'ladi, shu bois u yerda oziq-ovqat taqchilligi kuchayishi mumkin. Hozirning o'zidayoq, bu yerda ochlik kuzatiladi. Masalan, 2016

yili yer yuzidagi och qolgan kishilar soni 1,1 mlrd nafarga yetdi. Bu oziq-ovqat xavfsizligini jiddiy qiladi, chunki ochlikdan yiliga 35 ming kishi o'ladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar xavfsizligi. Xavfsizlikni tashqi jihati ham bor, chunki milliy iqtisodiyotlar bir-biriga bog'liq bo'lib qoladi. Ulardan har birining xavfsizligi boshqasining xavfsizligiga borib taqaladi. Bu ayniqsa, eksporti katta mamlakatlarda yaqqol kuzatiladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar xavfsizligi – bu mazkur aloqalarni muntazamligi va milliy manfaatlariga mos bo'lishini bildiradi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar xavfsizligi eksport va import uzluksiz ravishda hamda manfaatli bo'lishini, chetdan kapitalni kirib kelishi iqtisodiy o'sishni ta'minlashi, kapitalni chiqib ketishi zararli bo'lmasligi, tashqi savdoda eksportning katta bo'lishi mamlakat valyuta zaxiralarining saqlanishi yoki o'sib borishini ta'minlaydi.

Ijtimoiy xavfsizlik. Bu milliy xavfsizlikni muhim jihati hisoblanadi, chunki bunga iqtisodiy barqarorlik bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy muvozanat buzilib, aholining turli qatlamlari o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib, to's-to'polon yuz berganda iqtisodiyot katta zarar ko'radi. Shu bois, ijtimoiy barqarorlik katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy xavfsizlik aholining turli ijtimoiy guruhlarini o'rtasida o'zaro murosa va tinch-totuvlik munosabatining qaror topishi va ijtimoiy muvozanatning mavjudligini bildiradi. Xavfsizlik aholi turli toifalari o'rtasidagi partnyorlik (sherikchilik) munosabatlari qonun yo'li bilan o'rnatilganda qaror topadi. Ijtimoiy barqarorlik yuzaga kelishi uchun barcha toifadagi aholi manfaatlarini uyg'unlashuvi, ular ziddiyat holatiga kelganda o'z vaqtida bartaraf etilishi kerak bo'ladi. Buning uchun kambag'al aholining ko'payib ketib me'yorida ortishiga yo'l bermaslik talab qilinadi.

Bozor kuchlari aholini tabaqalashuviga olib keladi, shu sababli davlat buni oldini oladi. Kambag'allarni yanada kambag'allashtirish sharoitida boylarni yanada boyib ketishiga yo'l qo'ymaslik choralarini davlat qo'llashi kerak bo'ladi. Davlat boylarga katta soliq solib, bundan tushgan pulni kambag'allarga yordam sifatida tarqatadi, nochorlarni bepul ovqatlantirish, kiyintirish, bepul davolash va turar joy bilan ta'minlashga sarflaydi. Kambag'allarga turli xayr-ehson fondlari ham yordam qo'lini cho'zadi.

Xullas, ijtimoiy xavf-xatarni oldini olish va bartaraf etish uchun davlatdan faol ijtimoiy siyosat yurgizish talab qilinadi.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiy xavf-xatar va iqtisodiy tahdidning farqi nimada.
2. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash omillari.
3. Ishlab chiqarish xavfsizligi nima?
4. Moliyaviy xavfsizlikni izohlab bering.
5. Energetika xavfsizligini ta'minlash zarurligi.
6. Oziq-ovqat xavfsizligining asosiy atributlari.
7. Tashqi iqtisodiy aloqalar xavfsizligi nima?

8. Ijtimoiy xavfsizlik deganda nimani tushunasiz?
9. Xavfsizlik chegaralari va me'yorlari qanday?
10. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash – iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash asosi.

12-mavzu. Davlatning tarkibiy-investitsiyaviy siyosati. (2 soat)

1-ma'ruza mashg'uloti

12.1. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi va undagi o'zgarishlar, ularni belgilab beruvchi omillar.

12.2. Davlat tarkibiy siyosatining mazmuni, maqsadi, prinsiplari va yo'nalishlari.

12.3. O'zbekistonda davlatning tarkibiy siyosati va chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari.

12.4. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etishni rag'batlantirish.

Tayanch iboralar: Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, soha va tarmoqlar, davlat tarkibiy siyosati, tarkibiy o'zgarishlar, investisiya, investisiya siyosati, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, davlatning investisiya siyosati.

Annotatsiya

Iqtisodiyot tarkibini isloh etish - bu milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun eng zarur bo'lgan resurslarni yetkazib beruvchi tarmoqlar majmuidir. Ularga neft, neft mahsulotlari va boshqa energiya resurslari, tabiiy gaz, ko'mir ishlab chiqaruvchi sohalar, tog'-metallurgiya kompleksi, kimyo, mashinasozlik, samolyotsozlik va avtomobilsozlik sanoatlari kiradi.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish - bu milliy manfaatlarni ta'minlovchi, iqtisodiy o'sishga yo'l beruvchi va nihoyat, aholi farovonligini muttasil oshib borishini ta'minlovchi yangicha ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishdir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlardan ko'zlangan aniq maqsadlar quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiyotning xom-ashyo yetishtirishdan iborat bir tomonlamaligiga chek qo'yish;
- iste'molga tayyor, ya'ni tugallangan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlash;
- import o'rnini bosa oladigan tovarlarni mamlakatni o'zida ishlab chiqarib, importga qaramlikni cheklash;
- mahsulot sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazib, mamlakat eksport salohiyatini oshirish;
- ishlab chiqarishning istiqbolli sohalariga ustuvorlik berib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, yangi texnologiyalarga o'tish, xalqimizning milliy va tarixiy an'alariga mos keladigan yangi sohalarini barpo etish;

- o'zimizda ishlab chiqariladigan tovarlar hisobidan milliy bozorni to'ldirish orqali xalq iste'moli mollarining muhim turlariga bo'lgan aholi talablarini to'la qondirish.

Ishlab chiqarishda diversifikatsiyalash mohiyatan bir-biri bilan bog'liq bo'lgan turli xildagi faoliyat ko'rinishlari o'rtasida kapital quyilmalarni va tovar-moddiy resurslarni taqsimlashdan iborat.

Diversifikatsiyalash ishlab chiqarish, tijorat va investisiya faoliyatida iqtisodiy imkoniyatlar darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy islohotlar jarayonida tarkibiy o'zgarishlar respublikaning energetika va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlovchi tarmoqlarni jadal rivojlantirishni, mineral va qishloq xo'jalik xom-ashyo resurslaridan tayyor raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan o'zaro bog'liq tarmoqlar va korxonalar imkoniyatini oshirishni talab etadi.

Respublikaning an'anaviy ixtisosdagi ishlab chiqarish tarmoqlari va korxonalarini zamonaviy texnologiyalar bilan qayta qurollantirish yo'li bilan ularni rivojlantirish nazarda tutildi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirilishi borasida quyidagilarga erishildi:

- respublikaning yonilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoji o'zi hisobidan to'la ta'minlandi;

- ozuqabop g'alla importiga qaramlik barham topdi. mamlakatning o'z g'alla resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi keskin ortib bordi, g'alla mustaqilligi qaror topdi;

- ishlab chiqarishda sanoat mahsulotlari hisssasi keskin oshdi;

- sanoatda yuksak texnologiyaga asoslangan va istiqbolli tarmoqlarning, chunonchi mashinasozlik, yoqilg'i-energetika, kimyo va yengil sanoatning hisssasi ortib bordi.

Tarkibiy o'zgartirishlar uzluksiz yuz beradi, ularni rag'batlantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishi bo'lib qoladi. Hozirgi davr yangi texnologiya asri sifatida yangi tarkibiy o'zgartirishlarni yuzaga keltiradi. Shu bois tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash islohotlarni chuqurlashtirishning muhim jihati deb baholash zarur.

Hozirda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish, ularni quyidagi yangi yo'nalishlarga o'tish dasturlari va chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish mo'ljallanmoqda:

- respublika iqtisodiyotining yuqori samarali, eksportga yo'naltirilgan tuzilmasini shakllantirish;

- iqtisodiyotning o'zak tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;

- yengil va qayta ishlash sanoati korxonalarini texnika bilan qayta jihozlash va zamonaviylashtirish;

- yuqori texnologiyani va ilmtalab ishlab chiqarishlarni jadal rivojlantirish.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida xududiy tarkibiy tuzilishdagi chuqur o'zgarishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Tarkibiy siyosatning hududiy jihatlari deganda, hududlardagi mavjud resurslarga tayangan holda iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga ustunlik berish jihatidan yondoshish kerak va bunda quyidagilarga asoslanish talab etiladi:

- hududdagi mavjud xom-ashyo resurslari va ularni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarishning amaldagi holatini tahlil etish;

- hududdagi mavjud resurslardan oqilona foydalanish darajasi va imkoniyatlarini hisobga olish;

- hududlar o'rtasidagi sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi aloqalarining mutanosibligi va yetukligini aniqlash;

- hududning eksport imkoniyatlari va uni tashkil etish darajasini belgilash;

- hududlardagi mehnat resurslarining tarkibiy tuzilishi, ish bilan bandlik darajasini inobatga olgan holda hududlararo mehnat resurslari migratsiyasini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida belgilangan mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda yaqin yillarda iqtisodiyot tarkibini tubdan o'zgartirish va diversifikatsiyalashtirishda quyidagilarga asosiy e'tibor beriladi:

1. Kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyatiga mos siyosiy va iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirishning dolzarb muammolarini tadqiq etish.

2. Avtomobilsozlik, samolyotsozlik, mikrobiologiya, elektronika va elektron sanoati, telekommunikatsiya vositalari va zamonaviy axborot texnologiyalari va boshqalarni yanada rivojlantirish.

3. Ishlab turgan korxonalarni qayta ixtisoslashtirish va zamonaviylashtirish asosida butlovchi, tutash qismlarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.

4. Qishloq xo'jalik ekinlarining istiqbolli navlarini yaratish, ekologik sof, resurslarni tejaydigan agrotexnologiyalarni yaratish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini intensivlashtirishning dolzarb muammolarini hal etish.

5. Mineral xom ashyo resurslarini qidirish, qazib olish va qayta ishlashning samarali usullari va sanoat mahsulotining yuksak raqobatbardoshligini ta'minlaydigan texnologiyalarini yaratish.

6. Iqtisodiyot tarmoqlarini energiya bilan tejamli ta'minlashning samarali usullari va texnologiyalarini yaratish, texnologik jarayonlarni boshqarishni avtomatlashtirishning usullari va vositalarini ishlab chiqish.

7. Kasalliklarni oldini olish, tashhislash va davolashning, aholining sog'ligini muhofaza qilishning, atrof muhit monitoringini ta'minlashning samarali yechimlarini aniqlash.

8. Yosh avlodni tarbilash, ta'lim tizimi samaradorligini oshirish, yoshlarni yangi texnika va tenologiyalarni yaratishga, innovasion boshqaruvni tashkil etishga va intellektual mulk darajasini oshirishga bo'lgan intilishlarini rag'batlantirishga ko'nikma hosil ettirish hamda buning uchun to'liq shart-sharoitlar yaratish.

Takrorlash uchun savollar

1. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi va undagi o'zgarishlarni izohlab bering.
2. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini o'zgartirishni belgilovchi omillar aytib bering.
3. Davlat tarkibiy siyosatining mazmuni, maqsadi va yo'nalishlari nimalar bilan belgilanadi?
4. O'zbekistonda tarkibiy o'zgarishlarning asosiy bosqichlari va yo'nalishlari nimalar?
5. Investisiya siyosatining mazmuni va uning davlat iqtisodiy siyosatidagi o'rni.
6. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb etish yo'llari qanday?
7. O'zbekistonda davlat investision siyosatining maqsadlari va asosiy yo'nalishlari.

13-mavzu. Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash. (2 soat)

1-ma'ruza mashg'uloti

1. Davlat agrar siyosatining mohiyati va maqsadi.
2. Qishloq xo'jaligi sohasiga davlat aralashuvining zarurligi va ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
3. O'zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlarning o'ziga xos xususiyatlari.
4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirish zarurati.
5. Qishloq xo'jaligi rivojlanishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari.

Tayanch iboralar: agrar soha, davlat agrar siyosati, qishloq xo'jaligi sohasi, davlat aralashuvining zarurligi, agrar islohotlar, qishloq xo'jaligi tarkibi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, agrosanoat majmuasi, agrobiznes, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasi, ijtimoiy infratuzilma, agrosanoat integratsiyasi.

Annotatsiya

Agrar sohada ishlab chiqarish ko'p jihatdan yer bilan bog'liq bo'ladi. **Yerga egalik qilish, tasarruf etish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar agrar munosabatlar deyiladi.**

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarishning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, bu yerda ishlab chiqarish jarayoni bevosita tirik mavjudotlar — yer, o'simlik, chorva mollari bilan bog'liq bo'ladi va tabiiy qonunlar iqtisodiy qonunlar bilan bog'lanib ketadi. Bunda yer mehnat quroli va mehnat predmeti sifatida qatnashadi. Yerning boshqa ishlab chiqarish vositalaridan farqi shundaki, undan foydalanish jarayonida u yeyilmaydi, eskirmaydi. Aksincha, agar undan to'g'ri foydalanilsa, uning unumdorligi oshib boradi.

Yerning hosil berish qobiliyatiga tuproq unumdorligi deyiladi. U tabiiy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. Uzoq yillar davomida kishilarning hech qanday aralashuvisiz, tabiiy o'zgarishlar natijasida yerning ustki qatlamida o'simlik «oziqlanishi» mumkin bo'lgan turli moddalarning vujudga kelishi yerning tabiiy unumdorligi deyiladi.

Agar tuproq unumdorligi kishilarning tabiatga ta'siri natijasida, ya'ni tuproq tarkibi va dehqonchilik usullarini yaxshilash sun'iy yo'l bilan (masalan, yerni organik va kimyoviy o'g'itlash, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, ilmiy asoslangan holda sug'orish, irrigatsiya va melioratsiya kabi ishlab chiqarish usullarini joriy qilish hamda boshqa shu kabi yo'llar bilan) amalga oshirilsa, bu iqtisodiy unumdorlikni tashkil qiladi.

Yerdan olinadigan hosil ko'proq mana shu yerning tuproq unumdorligini saqlash va uni oshirish, ya'ni insonning, aniqrog'i ishchi kuchining, jonli mehnatning yerga faol ta'siri bilan bog'liq bo'ladi. Iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari kabi qishloq xo'jaligida ham ishlab chiqarish uning omillarining bevosita birikishi asosida sodir bo'ladi. Bunda ishchi kuchi faol bo'lib, asosiy rolni o'ynaydi. Qishloq xo'jalik korxonalarida yerdan boshqa barcha ishlab chiqarish vositalari xususiy, shaxsiy, jamoa mulk shaklida bo'lishi mumkin. Turli mulkchilik shaklidagi ishlab chiqarish vositalaridan jamiyat barcha a'zolarining turmush darajasini yaxshilash yo'lida foydalaniladi. Hozirgi paytda qishloq xo'jaligida xo'jalik yuritishning asosiy ko'rinishlari fermer va dehqon xo'jaligi shakllarida bo'lib, ulardagi ishlab chiqarish jarayonlari turli iqlim va tuproq sharoitlarida olib boriladi.

O'zbekistonda yer davlat mulki hamda umummilliy boylik bo'lganligi sababli yerga bo'lgan mulkchilik, yerga egalik qilish va yerdan foydalanish masalalari alohida ajratib tahlil qilinishi lozim.

Yerga egalik jismoniy va huquqiy shaxslarning ma'lum yer uchastkasiga tarixan tarkib topgan asoslardagi yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi egalik huquqini tan olishini bildiradi. Yerga egalik deganda avvalo yerga bo'lgan mulkchilik huquqi va uni iqtisodiy jihatdan realizatsiya qilish ko'zda tutiladi. Yerga egalikni yeri bo'lgan mulkdor (bizda davlat) amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksida ta'kidlanganidek «Yer uchastkalari yuridik va jismoniy shaxslarga doimiy va muddatli egalik qilish hamda ulardan foydalanish uchun berilishi mumkin»¹.

Yerdan foydalanish huquqi — bu o'rnatilgan urf-odatlar yoki qonuniy tartibda undan foydalanishni bildiradi. Yerdan foydalanuvchi yer egasi bo'lishi

¹ Ўзбекистон Республикаси «Ер кодекси». -Т., «Ўзбекистон», 1999 й., 20-модда.

shart emas. Real xo‘jalik hayotida yerga egalik qilish va yerdan foydalanishni ko‘pincha har xil jismoniy va huquqiy shaxslar, xususan hozir bizda asosan, dehqon va fermer xo‘jaliklari amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ham to‘rt omil — yer, kapital, tadbirkorlik qobiliyati va ishchi kuchi qatnashib, bunda yer muhim ishlab chiqarish vositasi sifatida ishtirok etadi. Ammo biz avval aytganimizdek, ishlab chiqarish jarayonida hamma ishlab chiqarish vositalarini, jumladan, yerni harakatga keltirib, undan unumli foydalanadigan, uning iqtisodiy unumdorligini oshiradigan omil — ishchi kuchidir.

Agrar munosabatlarni o‘rganishda ham ishchi kuchining, jonli mehnatning faol rol o‘ynashini, uning hamma moddiy vositalarga jon ato etib, harakatga keltiruvchi rolini tushunmaslik go‘yo kapital foyda yoki foiz, yer esa renta yaratadi, degan ko‘pgina xato fikr-mulohazalarga, yolg‘on tasavvurlarga olib keladi. Bu masalalarni to‘g‘ri tushunishda renta munosabatlarini o‘rganish muhim rol o‘ynaydi.

Iqtisodiy rivojlanish jarayonida qishloq xo‘jaligi hamma vaqt sanoat, savdo va boshqa tarmoqlar bilan mustahkam bog‘liq bo‘lib kelganligini hisobga olish kerak. Chunki mamlakatning oziq-ovqat mahsulotlariga va qishloq xo‘jalik xomashyosidan tayyorlangan tovarlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish faqat qishloq xo‘jaligining holatiga emas, balki sanoat tarmoqlari bilan uyg‘un rivojlanishiga ham bog‘liq bo‘ladi. Xuddi ana shu holat iqtisodiyot tarkibida agrosanoat majmuasini bitta pirovard natijani ro‘yobga chiqarishga bo‘ysundirilgan tarmoqlarning yagona, yaxlit tizimini keltirib chiqarish uchun asos bo‘ladi.

Agrosanoat integratsiyasi — qishloq xo‘jaligi bilan sanoat, ayniqsa unga xizmat qiluvchi va mahsulotni iste‘molchiga yetkazib beruvchi tutash tarmoqlar o‘rtasida ishlab chiqarish aloqalarining rivojlanishi hamda ularning uzviy birikish jarayonidir.

Agrosanoat integratsiyasi ko‘p qirrali bo‘lib, u g‘oyat xilma-xil shakllarda namoyon bo‘ladi. Bular eng avvalo ana shu jarayon qaysi darajada, ya‘ni butun mamlakat ko‘lami, viloyat doirasi yoki korxona darajasida yuz berishiga bog‘liq.

Butun mamlakat va mintaqalar ko‘lamida agrosanoat integratsiyasi qishloq xo‘jaligining tarmoqlararo aloqalari kuchayishida, iqtisodiyotning oziq-ovqat (tarmoq) va mintaqa agrosanoat majmualari tashkil bo‘lishi va rivojlanishida ifodalanadi.

Agrosanoat majmuasi (ASM) — bu qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish, uni saqlash, qayta ishlash va iste‘molchilarga yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi iqtisodiyot tarmoqlari birikmasidir. ASM to‘rtta sohani o‘z ichiga oladi. **Birinchi soha** — qishloq xo‘jaligiga ishlab chiqarish vositalari yetkazib beradigan sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga texnika xizmati ko‘rsatish bilan band bo‘lgan tarmoqlar; **ikkinchi soha** — qishloq xo‘jaligining o‘zi; **uchinchi soha** — qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste‘molchiga yetkazib berishni ta‘minlaydigan tarmoqlar (tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, tashish, sotish); **to‘rtinchi soha** — odamlar hayoti va faoliyatining umumiy sharoitlarini ta‘minlaydigan infratuzilma (yo‘l-transport xo‘jaligi, aloqa, moddiy-texnika xizmati, mahsulotni saqlash tizimi, ombor va tara xo‘jaligi)dan iborat.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi bevosita ishlab chiqarishga xizmat qiladigan tarmoqlarni, ijtimoiy infratuzilma odamlar turmush faoliyatining umumiy sharoitlarini ta'minlaydigan sohalarni (uy-joy, madaniy-maishiy xizmat, savdo, umumiy ovqatlanish va hokazo) o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jalik sohasidagi tadbirkorlik faoliyati agrobiznes deyiladi.

Agrobiznes tushunchasiga bevosita qishloq xo'jaligi sohasiga kirmaydigan, biroq u bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanuvchi biznes turlari ham kiritiladi. Bu qishloq xo'jaligiga texnikaviy, ta'mirlash xizmati ko'rsatish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik faoliyatidir. Qisqacha qilib aytganda, agrobiznes agrosanoat integratsiyasi natijasida vujudga kelgan agrosanoat majmuasining barcha bo'g'inlarini qamrab oladi.

Agrobiznes faoliyatining maqsadi iste'mol bozorini yetarli miqdorda sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoatni esa xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat.

Agrobiznesning asosiy shakli va birlamchi bo'g'ini **fermer va dehqon xo'jaliklaridir**. Chunki ular bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Bu xo'jaliklar o'z yerida yoki ijaraga olingan yerda ish yuritib, unda mulk egasi va ishlab chiqaruvchi fermerning o'zi va oila a'zolari hisoblanib, ayrim hollarda yollanma mehnatdan foydalanish ham mumkin. Fermer xo'jaligining afzalligi shundan iboratki, unda mulk va mehnat bevosita qo'shiladi, bu esa ishlab chiqarishning yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Fermer xo'jaliklari mustaqil tuzilma bo'lish sababli o'z faoliyatini bozor kon'yunkturasiga tez moslashtira oladi. Unda iqtisodiy manfaat va pirovard natija uchun mas'uliyat bitta faoliyatning ikki tomonini tashkil qiladi. Bularning hammasi fermer xo'jaligining yashovchanligini ta'minlaydi.

Agrobiznes turlaridan biri agrofimalardir. **Agrofirma ma'lum turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va uni pirovard mahsulot darajasigacha qayta ishlashni qo'shib olib boradigan korxonadir.**

Agrofimalar ham qishloq xo'jaligi, ham sanoatga xos resurslarni ishlatib, iste'molga tayyor bo'lgan mahsulot yaratadi. Mazkur turdagi korxonalar turli mulkchilikka asoslanishi, chunonchi oilaviy xo'jalik asosida ham tashkil topib, kichik zavodlar bilan birikishi mumkin. Agrosanoat birlashmalari va kombinatlari agrobiznesning yangi turlaridir.

Agrosanoat birlashmalari bir turdagi mahsulot ishlab chiqaruvchi va unga bog'liq ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi bir necha xo'jalik hamda korxonalarning birlashmasidir. Masalan, bog'dorchilik va uzumchilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklar, ular mahsulotini qayta ishlovchi syex va zavodlar, iste'molchilarga yetkazib beruvchi savdo-sotiq korxonalari bir texnologik jarayonga birlashib agrosanoat birlashmalarini tashkil qiladi. Birlashma ishtirokchilari ishlab chiqarish, xo'jalik va moliyaviy mustaqilliklarini saqlab qolishi bilan birga, ularning umumiy mulki ham tarkib topib boradi.

Takrorlash uchun savollar

1. Agrar munosabatlarning mazmunini, iqtisodiy munosabatlarda tutgan o‘rnini va xususiyatlarini ko‘rsatib bering.
2. «Yerga egalik» va «yerdan foydalanish» tushunchalarini izohlang.
3. Yer rentasi nazariyalarining umumiy tomonlari va tub farqlarini ko‘rsatib bering.
4. Yer rentasining asl mazmunini tushuntiring.
5. «Ijara haqi» va «yer rentasi» ning farqlarini izohlang.
6. Agrobiznesning iqtisodiy mohiyatini tushuntiring va uning asosiy turlariga tavsif bering.
7. Agrosanoat majmuasi va agrosanoat integratsiyasi tushunchalarining iqtisodiy mazmuniga o‘z fikringizni bildiring.

14-mavzu. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishi. (2 soat)

- 14.1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
- 14.2. Biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashda davlatning mikroiqtisodiy siyosati.
- 14.3. Davlatning xususiy tarmoq va tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishining usul va vositalari.
- 14.4. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash tizimi.
- 14.5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini rag‘batlantirish uchun berilgan imtiyoz va preferensiyalar.

Tayanch iboralar: Biznes, tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kichik biznes sub’yektlari, biznes va tadbirkorlik shakllari, biznesni qo‘llab-quvvatlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka imtiyozlar, preferensiyalar berish.

Annotatsiya

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash vazifasini amalga oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, qo‘llab-quvvatlash yuzasidan qator farmon hamda qarorlar qabul qilingan. Buning natijasida tadbirkorlik sub’yektlarini ro‘yxatga olish, ularning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash hamda ishlab chiqarish faoliyatini yo‘lga qo‘yishga shart-sharoit yaratish bo‘yicha muayyan ijobiy ishlar amalga oshirildi. Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadallashtirish hamda uning yanada rivojlanishi uchun tegishli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit yaratishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2003 yil 24 yanvardagi Farmoni muhim ahamiyat kasb etadi. Unga binoan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zaruriy sharoit yaratish, ularni moliyaviy, moddiy-texnikaviy resurslar bilan ta‘minlash,

tadbirkor va xorijiy investorlar manfaatlari hamda huquqlarini muhofaza qilish uchun iqtisodiy-huquqiy asoslarni mustahkamlash vazifasi belgilangan¹.

Xususiy tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun yetarli huquqiy, iqtisodiy sharoitni vujudga keltirish maqsadida 2003 yil 11 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Xususiy korxona to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi.

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish mexanizmini osonlashtirish maqsadida «Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida» 2003 yil 20 avgustda Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda rozilik beruvchi tashkilotlar soni keskin qisqartirildi. Ularni davlat ro'yxatidan o'tkazadigan tashkilot, ya'ni tuman (shahar) hokimliklari huzurida Tadbirkorlik sub'yektlarini ro'yxatdan o'tkazish inspeksiyalari tashkil etildi. Respublika bo'yicha tashkil etilgan 210 ta inspeksiya 2003 yil 1 oktyabrdan o'z faoliyatini boshladi. Ular tadbirkorlik sub'yektlarini ro'yxatga olish bilan bir vaqtda ularni soliq va statistika organlari hisobiga qo'yishadi, shtamp va muhr tayyorlashga ruxsat beradi, injenerlik kommunikatsiyalari, ya'ni gaz, energiya, suv, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya, telefon aloqasiga qo'shilishga hamda uy-joyi korxona uchun ob'yektga aylantirishga, tadbirkorlik ob'yektlarini qurish va rekonstruksiya qilishga ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtiradi.

Biznesni boshlashga imkon yaratuvchi, ro'yxatga olish, undan keyingi jarayonlarni yanada soddalashtirish va yengillashtirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 24 mayda qabul qilgan «Tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish bo'yicha xabardor qilish tartibini joriy etish to'g'risida»gi Qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qarorga ko'ra, tadbirkorlik sub'yektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishning soddalashtirilgan reglamenti, aniq muddat va daqiqa (soat)lari ko'rsatilgan sxemasi amalga oshirilmoqda. Ro'yxatdan o'tish muddati 7 ish kunidan 2 ish kuniga qisqartirildi.

Shuningdek, ruxsat berish bilan bog'liq ko'pgina jarayonlar takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 21 sentyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ruxsat berish taomillari turlarini qisqartirish va soddalashtirish to'g'risida»gi Qaroriga binoan, 12 ta bir-birini qaytaruvchi, ortiqcha ruxsatnoma va kelishuvlar bekor qilindi.

Endilikda tadbirkorlik sub'yektlari ro'yxatdan o'tganidan keyingi faoliyatini tartibga solishga doir huquqiy asosni takomillashtirish, O'zstandart, O'zgeodezkadastr va shu kabi tadbirkorlik sub'yektlariga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan munosabatlarni tartibga solish, bajarilgan ishlar uchun to'lovlar miqdorini kamaytirish hamda qat'iy shkalasini belgilash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlovchi O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Fermer xo'jaliklari uyushmasi, ayniqsa, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha Respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi va uning joylardagi bo'linmalari tadbirkorlik sub'yektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashlari, ularning monitoringini yuritishlari

hamda yuzaga kelgan muammolarning sabablarini aniqlab, ularni hal qilish uchun tegishli huquqiy, me'yoriy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqib, hukumatga yoki Ishbilarmon tadbirkorlar harakati — O'zbekiston liberal-demokratik partiyasining Oliy Majlisdagi fraksiyasiga taqdim etishlari maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha, erkin tadbirkorlik uchun qulay sharoit yaratish maqsadida tadbirkorlik korxonalari rahbarlarining huquqshunos maslahatchilari, advokatlari ham bo'lishini ta'minlash, ularning o'z huquq va erkinliklarini himoya qilishga o'rgatadigan, huquqiy bilim hamda malakalarini oshirishlari uchun o'quv markazlari tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi, Fermer xo'jaliklari uyushmasi, «Tadbirkor ayol» uyushmasining joylardagi bo'linmalarida advokatlar shtatini tashkil etish hamda ularga a'zo tadbirkorlarga imtiyozli narxlarda xizmat ko'rsatishlarini ta'minlash lozim.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlariga bank xizmatini takomillashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir:

- tadbirkorlik sub'yektlarining hisob raqamidan turli to'lovlar uchun ruxsatsiz pulni chigirib olishni qat'iy man etish. Har qanday to'lovlar uchun pul o'tkazish faqat uning egasining ruxsati yoki sud qarori bilan amalga oshirilishi kerak;

- tadbirkorlarga ular bankda ochgan hamma hisob raqamidan qonunda man qilinmagan istalgan turdagi to'lovlar uchun foydalanishga ruxsat berish;

- tadbirkorlik sub'yektlari o'z mablag'idan xo'jalik faoliyatida naqd pul yoki pul o'tkazish ko'rinishida teng foydalanishga imkon beruvchi tartib o'rnatilishi lozim. Naqd pulsiz operatsiyalar o'tkazishning afzalligini ta'minlovchi tizim va tartib shakllantirilishi maqsadga muvofiqdir;

- tijorat banklari o'z mijozlari haqida soliqqa tortish idoralariga ma'lumot yetkazishdan ozod qilinishlari lozim. To'lanmagan soliq va biror ish yuzasidan tekshiruv olib borilayotgan ishlar bundan mustasno bo'lishi kerak;

- mikrokreditlash ustuvor ravishda ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga o'z tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun berilishi kerak. Ana shunda ular yordam oluvchilardan o'zini o'zi boquvchi va soliq to'lovchiga aylanadi.

Kichik tadbirkorlik sub'yektlari uchun muhim muammolardan biri moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanish hisoblanadi. Hozirgi davrda ularni moddiy xom ashyo resurslari bilan ta'minlashda tovar xom ashyo birjasi, ulgurji savdo tashkilotlarining roli ortib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 iyuldagi PQ-3852-sonli “Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida” gi qaroriga asosan biznesni tashkil etish bo'yicha yangi talabalar belgilandi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda biznes yuritish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik sub'yektlarining huquqlari kafolatlarini mustahkamlash, korporativ boshqaruvni rivojlantirish, chet el investisiyalarini faol jalb etish va investorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarning ko'lami va samaradorligi nafaqat mamlakatimizdagi investision faollikning ortishi bilan, balki nufuzli xalqaro moliyaviy tashkilotlar va reyting agentliklari tomonidan berilayotgan munosib baho bilan ham o'z isbotini topmoqda.

Xususan, so'nggi 5 yil davomida Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" yillik hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingi 2 baravardan ortiq yaxshilanib, mamlakatimiz jahonning 190 ta mamlakati orasida 2012 yildagi 166-o'ringandan 2017 yilda 74-o'ringa ko'tarildi. Bundan tashqari, so'nggi hisobotda mamlakatimiz biznes yuritish uchun eng qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish ko'rsatkichi bo'yicha islohotchi mamlakatlarning birinchi o'ntaligidan joy oldi.

Shu bilan birga, O'zbekistondagi biznes yuritish uchun mavjud shart-sharoitlar xalqaro normalar va standartlar talablariga hanuzgacha to'liq javob bermaydi. Ayrim davlat organlari tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida e'lon qilingan islohotlarning amaldagi ijrosini yetarli darajada ta'minlamayapti.

Vazirliklar, idoralar va tashkilotlar faoliyatining aniq muvofiqlashtirib borilmasligi, shuningdek, ular rahbarlari javobgarligining past darajadaligi sababli ayrim sohalarda biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni amaliyotda ro'yobga chiqarish ustuvor vazifalar va islohotlarning o'zaro bog'liq yo'nalishlarini e'tiborga olmasdan amalga oshirilmoqda hamda barcha hollarda ham kutilgan samarani bermayapti.

Eng qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish borasida olib borilayotgan islohotlarning samaradorligini oshirish, xalqaro hamjamiyatda mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirish, hududlarda biznes yuritish sharoitlarini yaxshilash yuzasidan yakuniy natijalarga erishish uchun vakolatli organlar rahbarlarining javobgarligini oshirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq:

Belgilab qo'yildiki:

investisiya muhitini yaxshilash sohasida olib borilayotgan islohotlarning strategik maqsadi – tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va chet el investisiyalarini jalb qilish uchun mamlakatda 2022 yilgacha Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining "Biznes yuritish" hisobotidagi (keyingi o'rinlarda "Biznes yuritish" hisoboti deb yuritiladi) **jahon mamlakatlarining birinchi yigirmataligi** darajasiga mos keladigan eng qulay shart-sharoitlarni yaratishdir;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi "Biznes yuritish" hisobotida O'zbekiston Respublikasining reytingini yanada oshirish sohasidagi ishlarni muvofiqlashtirish hamda bu yo'nalishda Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan o'zaro hamkorlik qilish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

Quyidagilar:

Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” hisobotida O‘zbekiston Respublikasining ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 1- ilovaga muvofiq;

islohotlarni sifatli amalga oshirish hamda Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” hisobotida O‘zbekiston Respublikasining reyting ko‘rsatkichlarini yaxshilash uchun mas‘ul bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlarning ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi:

Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” hisobotidagi O‘zbekiston Respublikasining ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”da nazarda tutilgan chora-tadbirlarni o‘z vaqtida va lozim darajada bajarish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarning faoliyatini samarali muvofiqlashtirishni;

“Biznes yuritish” hisobotidagi O‘zbekiston Respublikasining reytingini yanada oshirish maqsadida davlat organlari va tashkilotlar bilan o‘zaro amaliy hamkorlikni;

Jahon banki guruhi ekspertlari va “Biznes yuritish” jamoasi bilan O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini asoslash bo‘yicha muzokaralar o‘tkazish uchun har yili idoralararo ishchi guruhni Vashington shahriga (AQSH) yuborishni;

manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda

eng muhim xalqaro reytinglarni va tarkibiy indikatorlarni, ularni shakllantirish metodologiyasini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslarda oxirgi ikki yilda egallab turgan mavqeini chuqur o‘rganishni;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan birgalikda

2019 yil 1 yanvarga qadar muddatda tegishli xalqaro reytinglarda O‘zbekiston Respublikasining mavqeini yaxshilash bo‘yicha aniq takliflar tayyorlashni ta’minlasin.

Ushbu qarorning 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda har yili:

fevral-mart oylarida “Biznes yuritish” hisobotini tayyorlash doirasida Jahon banki ekspertlari tomonidan yuboriladigan savolnomalarni o‘rganilayotgan yo‘nalishlarda amalga oshirilgan islohotlar va qonun hujjatlari normalarini inobatga olgan holda sifatli va o‘z vaqtida to‘ldirishni;

15 noyabrga qadar e‘lon qilingan “Biznes yuritish” hisoboti natijalarini o‘rganishni hamda u bo‘yicha keyinchalik Jahon banki va “Biznes yuritish” jamoasiga taqdim etish uchun o‘rganilayotgan har bir yo‘nalish kesimida asoslantirilgan dalillar va statistik ma’lumotlardan iborat sharhlarni tayyorlashni ta’minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan birgalikda:

“Biznes yuritish” hisobotida O‘zbekiston Respublikasining ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

va ularning natijalari haqida ushbu qarorning 1 va 2-ilovalarida ko‘rsatilgan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining hisobotlarini har chorakda eshitib

borsin, keyinchalik tegishli yo‘nalishlarda biznes yuritish uchun shart-sharoitlarni yaxshilashni ta‘minlamagan rahbarlarga nisbatan chora ko‘rish yuzasidan takliflar kiritilsin;

O‘zbekiston Respublikasining ko‘rsatkichi reyting tuzish metodologiyasi talablariga muvofiqligini baholagan holda “Biznes yuritish” hisobotlarini tanqidiy o‘rganib borsin va har yili 1 dekabrga qadar “Biznes yuritish” hisobotida respublikaning alohida ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida ishbilarmonlik muhiti va qonunchilikni yanada takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devoniga kiritilsin.

O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasi Jahon banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining “Biznes yuritish” hisobotida O‘zbekiston Respublikasining ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ga muvofiq amalga oshiriladigan tadbirlar hamda loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro moliya tashkilotlarining texnik ko‘magi, grantlari va kreditlarini jalb etish yuzasidan zarur tashkiliy-amaliy chora-tadbirlarni ta‘minlasin.

O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini hamda “Biznes yuritish” hisoboti yo‘nalishlari yuzasidan qonun hujjatlari talablarining amaliyotga joriy etilishini xolisona baholash uchun har yili tadbirkorlik sub’yektlari o‘rtasida, shu jumladan, ularning murojaatlarini qabul qilish, qayta ishlash, ko‘rib chiqish va takliflarini muhokama qilish bo‘yicha maxsus portal orqali so‘rovlar o‘tkazsin.

Takrorlash uchun savollar

1. Biznes va tadbirkorlik tushunchalarining mazmuni nimalarni ifodalaydi?
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik qanday ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega?
3. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun qanday imkoniyat va shart-sharoitlar yaratilgan?
4. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlashda qanday rol o‘ynamoqda?
5. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishida qanday muammolar mavjud? Bu muammolarni hal etish uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim deb o‘ylaysiz?
6. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy oqibatlarini bartaraf etishda kichik biznes qanday rol o‘ynaydi?
7. Istiqbolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishini rag‘batlantirish uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim, deb o‘ylaysiz?

15-mavzu. Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishining istiqbollari. (4 soat)

1-ma'ruza mashg'uloti

15.1. Mintaqaviy iqtisodiyot.

15.2. Davlat mintaqaviy siyosatining mohiyati, prinsiplari va maqsadlari.

15.3. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi farqlar va ularni tenglashtirish muammolari.

2-ma'ruza mashg'uloti

15.4. Hududlararo mehnat taqsimotini oqilonalashtirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish.

15.5. Iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish.

15.6. Hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari.

Tayanch iboralar: hududlar, mintaqalar, hudud iqtisodiyoti, YAHM, mintaqaviy siyosat, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, farqlar, hududlararo mehnat taqsimoti, hududlar ishlab chiqarish tarkibi, iqtisodiy hududlarni kompleks rivojlantirish, hududlar rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish, tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari hamda vositalari.

Annotatsiya.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin davlat boshqaruv organlarining nafaqat respublika miqyosidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, balki ishlab chiqarishning hududiy darajadagi ko'rsatkichlariga ham ehtiyoji kuchaydi. Natijada MHTning hududiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan - yalpi hududiy mahsulot (YAHM) va uning tarkibiy qismlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar mintaqa iqtisodiyotining rivojlanish istiqbollarini belgilash uchun asos sifatida qaraladigan bo'ldi.

Yalpi hududiy mahsulotning ahamiyati – respublikaning iqtisodiy qudratiga baho berishga hududiy jihatdan yondashish, alohida hududlar sub'yektlarining iqtisodiy faoliyat natijalari va ularning mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini baholash va hududlarni rivojlantirish istiqbollarini aniqlashda namoyon bo'ladi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - muayyan davr mobaynida (bir yilda) mintaqa hududida barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarilgan jami tovar hamda xizmatlarning qiymatini o'zida namoyon etadi. Yalpi hududiy mahsulot yahlit holdagi mamlakat iqtisodiyoti uchun hisoblanuvchi yalpi ichki mahsulot (YAIM) ning hudud darajasidagi ko'rinishi hisoblanadi.

Milliy hisoblar tizimini hududlar bo'yicha tuzishdan asosiy maqsad - mamlakatning alohida hududlari bo'yicha olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish uchun makroiqtisodiy ma'lumotlar bazasini tashkil qilishdan iboratdir. Ushbu ma'lumotlar bazasi alohida hududlarning iqtisodiy rivojlanish sur'atlari hamda ularning joriy davrdagi iqtisodiy ahvolini ifodalovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni olish, hududlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va

rolini aniqlash, joylarda olib borilayotgan iqtisodiy siyosatning samaradorligi hamda mamlakat ichidagi alohida hududlarning rivojlanish darajasini o‘zaro taqqoslash imkoniyatini berishi zarurdir.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, hozirgi kunda respublikamizning turli hududlarida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o‘z natijasini bermoqda. Lekin ushbu sohada qo‘lga kiritilayotgan natijalar turli xil hududlarda bir-biridan farqlanadi. Bunga asosiy sabab mamlakat miqyosida ishlab chiqilgan iqtisodiy islohotlarning joylarda mutasaddi tashkilotlar rahbarlari tomonidan turlicha darajada olib borilishidir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda YAHMni hisoblash jarayonida asosiy usul – qo‘shilgan qiymatlar usuli hisoblanadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, YAIMni qo‘shilgan qiymatlar va daromadlar usuli bo‘yicha hisoblash yahlit iqtisodiyotning alohida soha va tarmoqlari miqyosida olib borilsa, yalpi hududiy mahsulotni ushbu usullar bo‘yicha hisoblash esa faqatgina tarmoqlar bo‘yicha olib boriladi.

YAHMni joriy va o‘zgarmas narxlarda hisoblash mintqa iqtisodiyotiga ob‘yektiv baho berishda muhim ahamiyatga ega. Lekin YAHMni bunday tarzda hisoblash jarayonida mamlakat miqyosida YAIMni hisoblashda qo‘llaniladigan umumiy tamoyillar o‘zgarmay qoladi.

Ilmiy kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, mamlakatimizda YAHMning alohida unsurlarini harajatlar usuli bo‘yicha hisoblash faqatgina ma’lumotlar to‘plash va ularni tahlil qilish maqsadlarida amalga oshirilmoqdi. Chunki hozirgi kunda YAHMning harajatlar bo‘yicha ko‘rsatkichlari hududlar bo‘yicha to‘laqonli hisoblamalarni tuzish imkonini bermaydi. Bunga asosiy sabab zarur bo‘lgan axborot manbalarining yetarli darajada emasligidadir. Masalan, muayyan bir hududda uy xo‘jaliklarining pirovard iste’mol uchun qilgan harajatlarini hisoblash uchun ularning shu yerda harid qilgan tovar va xizmatlari qiymatiga ushbu hudud rezidentlarining tashqaridan (boshqa hududdan) sotib olgan tovarlar va xizmatlari qiymati qo‘shilishi kerak. Ushbu hududdagi norezidentlarning shu yerda harid qilgan tovar va xizmatlarni sotib olish uchun qilgan harajatlarini esa ayirib tashlash kerak.

Yuqoridagi holatdan kelib chiqib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, hududiy miqyosda uy xo‘jaliklarining pirovard iste’mol harajatlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarga ega bo‘lish uchun quyidagicha qo‘shimcha ma’lumotlar zarur bo‘ladi:

Muayyan hudud rezidentlarining tashqaridan hamda norezidentlarning ushbu hududdan harid qilgan tovar va xizmatlarining qiymati o‘rtasidagi farqni hududlar bo‘yicha taqsimlash;

Muayyan hudud rezidentlarining boshqa hududlarda qilgan haridlari to‘g‘risidagi haqqoniy ma’lumotlarni to‘plash.

Yalpi hududiy mahsulotni joriy bozor narxlarida hisoblash bizga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

Mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibini aniqlash;

Hududlar bo‘yicha iste’mol va jamg‘arma o‘rtasidagi nisbatni aniqlash;

YAHM bilan mahalliy byudjetdagi kamomadni aniqlash.

Ammo joriy narxlarda hisoblangan YAHMning qiymati mintaqa iqtisodiyotining haqiqiy holatini to'g'ridan-to'g'ri aks ettira olmaydi. Chunki tovar va xizmatlarning hajmi o'zgarmagan yoki kamaymagan hollarda ham narxning oshishi evaziga YAHMning ham o'sishi sodir bo'lishi mumkin. Vaholanki, jamiyatning ehtiyojini faqat tovar va xizmatlar qondira oladi. Tovlar va xizmatlarning qancha (pulda) turishiga qarab emas, ularning miqdor va sifatiga qarab iste'mol yuz beradi. YAHMning haqiqiy dinamikasi to'g'risida tasavvur hosil qilish uchun uni hisoblashda narxning ta'sirini bartaraf etish, ya'ni YAHMni o'zgarms narxlarda hisoblash zarur.

YAHM va uning tarkibiy qismlarini o'zgarms narxlarda hisoblash ushbu ko'rsatkichning fizik hajmi indeksini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. YAHMning fizik hajmini hisoblash mintaqa iqtisodiyotining rivojlanish darajasi, iqtisodiy kon'yuktura va tarkibiy o'zgarishlardagi natijalarni hamda shu orqali mintaqaning iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini belgilashda juda katta yordam beradi. Aynan shu ko'rsatkich YAHM hajmining haqiqiy o'zgarishini, ya'ni real ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmini ifodalaydi.

Bizning fikrimizcha, YAHMning fizik hajmi indeksi quyidagi formula yordamida aniqlanash maqsadga muvofiqdir:

$$J_q = \sum q_1 p_0 / \sum q_0 p_0 \quad (3)^{10}$$

Bu yerda: J_q – YAHM fizik hajmining indeksi;

q_1 va q_0 – joriy va bazis davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi;

p_0 – ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning bazis davrdagi narxi;

$\sum q_1 p_0$ - joriy davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati (bazis narxlarda);

$\sum q_0 p_0$ – bazis davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymati (bazis narxlarda).

Bu indeksni hisoblashda narx o'zgarishsiz olinadi, ya'ni har ikkala davr uchun ham bazis davrdagi narx (p_0) qatnashadi.

Mamlakatning alohida hududlari uchun YAHM deflyatorini hisoblash ham muhim ahamiyatga egadir. YAHMning deflyatori joriy davrda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar birligi narxining bazis davrida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar birligi narxiga nisbatan qanday darajada o'zgarganligini ifodalaydi. U nominal YAHM hajmini real YAHM hajmiga bo'lish yordamida aniqlanadi:

$$\text{YAHM deflyatori} = \text{Nominal YAHM} / \text{Real YAHM} \quad (4)^{11}$$

Bu ko'rsatkich yordamida joriy davrdagi turli maxsulotlarning o'rtacha narxini bazis davrdagi o'rtacha narx bilan taqqoslash imkoniyati tug'iladi. YAHM minglab turdagi moddiy ne'matlar va xizmatlarni o'z ichiga olganligi uchun ular bo'yicha o'rtacha narxni hisoblash imkoniyati nihoyatda murakkab jarayon. Shu sababli YAHM deflyatori iste'mol savatchasiga kiritiladigan moddiy ne'matlar narxlari asosida hisoblanadi.

Respublikamizda Iqtisodiyot vazirligi va Davlat Statistika qo'mitalari hamda ularning joylardagi tashkilotlari tomonidan iste'mol savatchasiga kiritilgan tovar va

¹⁰ Абдуллаев Ё. Макроиктисодий статистика: 100 савол ва жавоб. –Т.: «Меҳнат», 1998. –Б. 149.

¹¹ Абдуллаев Ё. Макроиктисодий статистика: 100 савол ва жавоб. –Т.: «Меҳнат», 1998. –Б. 152.

xizmatlar narxlarining o'zgarishi muttasil ravishda kuzatib boriladi hamda shu narxlarga asoslanib deflyator hisoblanadi:

$$D_1 = IS_1(R_1) / IS_1(R_0) \quad (5)^{12}$$

Bu yerda: D_1 – joriy yil deflyatori;

$IS_1(R_1)$ – joriy davrdagi iste'mol savatchasining qiymati (joriy naxlarda);

$IS_1(R_0)$ – joriy davrdagi iste'mol savatchasining qiymati (bazis naxlarda).

Agar deflyator birdan katta bo'lsa, u holda mintaqa inflyasion yoki aksincha bo'lsa, deflyasion jarayonni boshidan kechirayotgan bo'ladi. Deflyator yordamida har bir kishining, oilaning va barcha aholining turmush darajasi qanday o'zgarayotganini aniqlash mumkin.

Yalpi hududiy mahsulotni ham yalpi ichki maxsulotni ham hisoblash tamoyillari va uslubiylati bir xil hisoblanadi. Lekin ushbu tamoyil va uslubiylatlarni hududiy hisob-kitob jarayonlarida qo'llash masalalari hozirgacha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Natijada, mamlakatimizda hududlar bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida turli xil qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Bular milliy hisoblar tizimini tuzishning asosi bo'lgan hududiy miqyosdagi rezidentlik* tamoyili bilan bog'liqdir. Unga ko'ra har bir mintaqqa - alohida mustaqil iqtisodiy hudud sifatida, ular o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar esa iqtisodiy birliklar o'rtasidagi aloqa sifatida qaralishi zarur. Ushbu tamoyilning hududlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida qo'llanilishi hozirgi kunda mamlakatimizda o'z yechimini topmagan asosiy muammolardan biridir. Chunki rezidentlik tamoyili asosida hududiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun zarur bo'lgan axborotlar yetarlicha darajada taqdim qilinmaydi.

Ushbu tamoyilning hududlar bo'yicha ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko'rsatkichlarni hisoblashda qo'llanilishi uncha katta qiyinchilik tug'dirmaydi, chunki muayyan hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar turli xil hisobotlar orqali yetarli darajada taqdim qilinadi. Shunday ekan, mamlakatimizda YAHMni qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblashni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Lekin hozirgi kunda rezidentlik tamoyilining daromadlar bo'yicha bir qator ko'rsatkichlarni hisoblash jarayonida qo'llanilishi katta qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Chunki boshqa bir hudud yoki mamlakat rezidenti bo'lgan uy xo'jaliklarining muayyan (ushbu) hududdan olgan daromadlari bo'yicha ma'lumotlarni aniqlashning imkoniyati yo'q. Bundan tashqari, muayyan (ushbu) hudud rezidenti bo'lgan uy xo'jaliklarining ham, boshqa bir hududlardan olgan daromadlari bo'yicha axborot manbalari mavjud emas. Bu esa hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda MHT sohasidagi eng asosiy muammolardan biridir.

¹² Ўша манба. –Б. 153.

* Резидент бу - иқтисодий манфаати муайян мамлакатнинг иқтисодий худудига қаратилган институцион бирликлардир.

Rezidentlik tamoyilining tovar va xizmatlar oqimini hisob - kitob qilish jarayonida qo'llanilishi ham katta qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Chunki bunday hisob-kitoblarni yuritish uchun boshqa bir hudud rezidenti hisoblangan uy xo'jaliklarining ushbu hududdan harid qilgan tovar va xizmatlari, hamda ushbu hudud rezidentlarining boshqa hududlardan harid qilgan tovar va xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi. Bunday ma'lumotlarni to'plashning o'zi juda katta muammodir.

Bizning fikrimizcha, hozircha bunday ma'lumotlarni to'plashning imkoniyati yo'q. Chunki bu masala ko'proq aniq statistik va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, uzoq muddatli davrni hamda izchil chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab qiladi. Shuning uchun hozircha pirovard iste'molning alohida tarkibiy qismlarini hisoblab turish maqsadga muvofiqdir. Bu hisob-kitoblar muayyan hududda joylashgan uy xo'jaliklarining (rezidentlar ham norezidentlar ham), davlat boshqaruv organlarining va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining pirovard iste'mol uchun qilgan barcha harajatlari hamda asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi zarur.

Yalpi hududiy mahsulotni hisoblash jarayonidagi konseptual muammolardan yana biri bu - markaziy boshqaruv organlarining xizmatlarini hududlar bo'yicha taqsimlash masalalaridir. Bu ko'proq milliy va hududiy ko'rsatkichlar hamda ularning tarkibiy qismlarining bir - biriga muvofiq kelmaslik holatlari bilan bog'liqdir.

Markaziy boshqaruv organlariga tegishli bo'lgan tashkilotlar mamlakatning turli xil hududlarida o'z vazifalarini bajaradilar, ya'ni iqtisodiyotning boshqa sektorlariga har xil xizmatlar ko'rsatadilar. Lekin ular tegishli vazirlik yoki boshqarma tomonidan bevosita nazorat qilinadi va moliyalashtiriladi. Shuning uchun ham ushbu tashkilotlar aksariyat holatlarda o'z faoliyatlari to'g'risida mahalliy boshqaruv organlariga hisobot bermaydilar. Ular asosan butun bir mamlakat bo'yicha iqtisodiyotning barcha sub'yektlariga turli xildagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatadilar. Bular, mudofaa, fan, madaniyat va shu kabi xizmatlardir. Ulardan ayrimlari esa hududiy miqyosda individual xizmatlarni taklif qiladilar (rezidentlarga ham, norezidentlarga ham). Bular, markaziy boshqaruv organlariga tegishli bo'lgan ta'lim muassasalarining xizmatlari, tibbiy xizmatlari, madaniy xizmatlar va shu kabilardir.

MDH mamlakatlari markaziy boshqaruv organlariga tegishli bo'lgan muassasalar ko'rsatayotgan xizmatlarining natijalarini hududlarga kiritish masalalariga turlicha yondashadilar:

Rossiya, Turkmaniston va Ukraina davlatlarida markaziy boshqaruv organlarining boshqarmalari qayerda joylashishidan qat'iy nazar, ularning bo'limlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini o'sha bo'limlar qaysi hududda faoliyat yuritayotgan bo'lsa, o'sha hududning iqtisodiy ko'rsatkichlari tarkibiga kiritishadi;

Ozarbayjon markaziy boshqaruv organlarining boshqarmalari qaysi hududda joylashgan bo'lsa, ularning bo'limlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini ham o'sha hududga kiritadi;

Gruziya, Qirg‘iziston, Tojikiston* va O‘zbekiston* umummilliy ma’lumotlarni (ko‘rsatkichlarni) mamlakatning barcha hududlari bo‘yicha teng taqsimlaydilar.¹³

Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda ushbu masalani ijobiy hal qilish uchun birinchi yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday yondashuv milliy hisoblamalarni hududiy miqyosda tuzish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda hududlar bo‘yicha iqtisodiy ko‘rsatkichlarning aniqligi va ishonchliligini oshiradi. Bundan tashqari alohida hududlar bo‘yicha davlatning odilona iqtisodiy-ijtimoiy siyosat olib borishini osonlashtiradi. Qolaversa, YeMHT-95 andozasi va Yevrostatning ushbu masalaga doir tegishli xujjatlarida ham yuqorida ko‘rsatilgan birinchi yondashuvga alohida e’tibor qaratilgan.

YAHMni joriy va o‘zgarmas narxlarda turli xil usullar bo‘yicha hisoblash jarayonida hisob-kitob ishlarini tashkil qilish masalalari ham muhim ahamiyatga egadir. Hududlar bo‘yicha ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblashni tashkil qilishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

“Pastdan yuqoriga” hisoblash usuli;

“Yuqoridan pastga” hisoblash usuli;

Aralash usul.

“Pastdan yuqoriga” hisoblash usulida – ishlab chiqarish natijalarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar muayyan hudud miqyosida to‘planadi. Keyin esa ushbu ko‘rsatkichlar umumlashtiriladi. Barcha hududlar bo‘yicha umumlashtirilgan ko‘rsatkichlar mamlakat bo‘yicha ishlab chiqarish darajasini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarga teng bo‘lishi kerak. Ushbu usulning afzalligi shundaki, bunda muayyan bir hudud miqyosidagi axborot manbalaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanish mumkin. Bu usulni qo‘llashdagi qiyinchilik esa – hududiy va milliy ko‘rsatkichlarning bir-biriga muvofiqligini ta’minlovchi hisoblamalarning yetishmasligida namoyon bo‘ladi.

“Yuqoridan pastga” hisoblash usulida – ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlar mamlakat miqyosida to‘planadi. Keyin boshqa bilvosita ko‘rsatkichlar yordamida ushbu ma’lumotlar hududlar bo‘yicha taqsimlanadi. Ushbu usulning afzalligi shundaki, unda milliy va hududiy ko‘rsatkichlar avvalboshdan bir-biriga muvofiqlashtirilib boriladi. Salbiy jihati - hududiy ma’lumotlarni yig‘ish bilvosita ko‘rsatkichlarga asoslanganligi uchun to‘planayotgan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchliligini susayadi.

Aralash usul bu – yuqorida ko‘rsatilgan ikkita usulning uyg‘unlashgan holda qo‘llanilishidir. Bunda muayyan hudud miqyosidagi ko‘rsatkichlardan qisman foydalaniladi. Faqatgina mamlakat miqyosida qo‘llash mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar esa, “yuqoridan pastga” yo‘naltirilgan hisoblash usuli yordamida amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda hududlar bo‘yicha ishlab chiqarishning asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblashni tashkil qilishda jiddiy muammolar mavjud. Bulardan eng asosiysi - hududiy darajada iqtisodiyotdagi ayrim sub’yektlarning iqtisodiy faoliyatlari bo‘yicha axborotlarning yetishmasligidir. Bu asosan, transport (temir yo‘l transporti)

* Фақат индивидуал хизматлар натижалари.

¹³ Иванов Ю.Н. «Вопросы статистики», 2007. №12. стр. 11

xizmatlari, uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi notijorat tashkilotlarining xizmatlari va tashqi savdoning holatini ifodalovchi ayrim ko'rsatkichlar bilan bog'liq. Ushbu muammo nafaqat O'zbekiston, balki boshqa MDH davlatlari uchun ham tegishlidir. MDH davlatlarida bu muammoning hal qilinishi turlichadir. Masalan, Ozarbayjon va Turkmaniston "pastdan yuqoriga" yo'naltirilgan hisoblash uslubidan, Gruziya, Qozog'iston va Qirg'iziston "Yuqoridan pastga" yo'naltirilgan hisoblash uslubidan, Rossiya, Tojikiston, O'zbekiston va Ukrainalar esa aralash uslubdan foydalanadi.¹⁴ Demak, ularning ayrimlari faqatgina butun respublika miqyosida hisoblash mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni "yuqoridan pastga" yo'naltirilgan hisoblash usuli orqali mintaqalar bo'yicha taqsimlab chiqsa, boshqalari esa aralash usulni qo'llab, ko'rsatkichlarni mintaqalar bo'yicha taqsimlamaydi, aksincha ularni umumlashtiradi.

Bizning fikrimizcha, hududiy darajada iqtisodiyotdagi ayrim sub'yektlarning iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha axborotlarni yig'ish uchun qo'shilgan qiymatning alohida tarkibiy qismlari (ish haqi va foyda) ni "yuqoridan pastga" yo'naltirilgan hisoblash usuli orqali hisob – kitob qilish maqsadga muvofiqdir. Ishchi va xodimlarga ish haqi qaysi hududda to'lanadigan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich shu hududning makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga kiritilishi kerak.

O'zbekistonda ko'pchilik davlatlar singari turli xil darajadagi hududlar mavjud: nisbatan yirikroq (viloyatlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi), kichikroq (turli xil tumanlar) va mayda hududlar (turli xil aholi punktlari). Hududiy hisoblamalarni har qanday darajadagi hudud uchun, xattoki alohida aholi punktlari uchun ham tuzish mumkinligini nazariy jihatdan asoslash mushkul emas. Lekin YAHMni hisoblashda hududlar darajasi bo'yicha qanchalik pastga qarab ketilsa, uning ko'rsatkichlarini hisoblash jarayonida shunchalik bir-biriga nomutanosib bo'lgan ko'rsatkichlar paydo bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, hududlar bo'yicha hisoblamalarni tuzishning dastlabki bosqichlarida nisbatan yirikroq, keyin esa kichikroq darajadagi hududlar uchun ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Hududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tahlil qilishga yordam beradigan bir qator ko'rsatkichlarning mavjudligi iqtisodiy siyosat olib borish uchun nafaqat alohida mintaqalar uchun, balki respublika xukumati uchun ham juda muhimdir.

Umuman yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlardan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

Mamlakat iqtisodiyotida alohida hududlarning o'rni va rolini tahlil qilish uchun YAIM da YAHM ning ulushi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. YAHM ning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan qismini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi turli hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini taqqoslash yoki o'sha hududlarning mamlakat bo'yicha o'sish sur'atlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Mintaqa iqtisodiyotida alohida tarmoqlarning ahamiyatini tahlil qilish uchun yalpi qo'shilgan qiymatning joriy baholarda hisoblangan ko'rsatkichidan foydalaniladi. Bir qator davrlar uchun o'zgarmas narxlarda olingan ma'lumotlar muayyan hududdagi ishlab chiqarishning tarmoq tuzilishidagi o'zgarishlarni, tovar va

¹⁴ Иванов Ю.Н. «Вопросы статистики», 2007. №12. стр. 9.

xizmatlarni yaratish hamda bozor va nobozor xizmatlari o'rtasidagi nisbatlarni aniqlashda yordam beradi.

Hududlar bo'yicha tarmoq tuzilishi bilan yalpi ishlab chiqarish sur'atlarini, oraliq iste'mol bilan esa yalpi qo'shilgan qiymat ko'rsatkichlarini joriy va o'zgarmas baholarda taqqoslash - tarmoqlarda ishlab chiqarishning o'sishi (pasayishi) da ishlab chiqarish hajmining hamda narxlar darajasining o'zgarishi qay darajada ta'sir qilganligini aniqlashda yordam beradi.

Hududlar bo'yicha ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda YAHMni yaratishda band bo'lgan har bir ishchi kuchiga to'g'ri keladigan mahsulotni ifodalovchi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga egadir. Uning joriy baholarda hisoblangan mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarini boshqa hududlarning hamda boshqa tarmoqlarning shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslash mumkin. YAHMning uni yaratishda band bo'lganlarga to'g'ri keladigan qismining o'zgarmas baholarda hisoblanishi mehnat unumdorligi darajasini tahlil qilishda yordam beradi.

Mintaqalarda daromadlar shakllanishining tahlil qilinishi – YAHMning daromadlar turlari bo'yicha tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida olib boriladi. Bu ma'lumotlar alohida hudud va tarmoqlarda ishlab chiqarish natijasida shakllangan daromadlarning yollanma ishchilar, korxona va tashkilotlar hamda davlat o'rtasida qanday taqsimlanganligini o'zida aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlarni alohida bitta mintaqadagi mavjud bo'lgan tarmoqlar o'rtasida ham, bir nechta mintaqalardagi tarmoqlar o'rtasida ham o'zaro taqqoslash mumkin.

Takrorlash uchun savollar

1. Yalpi hududiy mahsulot mazmunini tushuntirib bering.
2. Hududlarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni va rolini aytib bering.
3. Respublikaning iqtisodiy qudratiga baho berishga hududiy jihatdan yondashish nima?
4. Yalpi hududiy mahsulot qanday hisoblanadi?
5. Milliy hisoblar tizimini hududlar bo'yicha tuzishdan asosiy maqsad nima?
6. Hududiy iqtisodiy siyosat samaradorligi deganda nimani tushunasiz?
7. Hududlar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish usul va vositalarini aytib bering.

16-mavzu. Davlatning tabiiy resurslardan foydalanish jarayonlarini tartibga solishi va ekologiya sohasidagi siyosati. (2 soat)

- 16.1. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash.
- 16.2. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi.
- 16.3. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari.

Tayanch iboralar: Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, ekologik muammolar, atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish, Orol muammolari, resurslar, ekologik xavfsizlik.

Annotatsiya

Bozor iqtisodiyoti sharoitida O‘zbekiston Respublikasida ekologiyani asrash, himoya qilish davlatimizning birlamchi vazifalaridan biridir.

Tabiiy resurslarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi o‘rni juda katta bo‘lib ular bir talay tarmoqlarda turli vazifalarni bajaradi. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yer, boshqa narsalarga qo‘shimcha, yana ikki muhim funksiyani bajaradi: 1) mehnat quroli va uning yordamida inson o‘simliklarga ishlov beradi; 2) mehnat predmeti va inson mehnat jarayoni davomida unga ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan yer qishloq xo‘jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasidir. U qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yaratishda qatnashayotgan ishlab chiqarishning faol omilidir.

Shuni aytish kerakki, yerdan foydalanishning samaradorligini oshirish xar doim ham intensivlashtirishga asoslangan. Biroq endilikda bu muhim resursdan foydalanish samaradorligini oshirish intensivlashtirishning an’anaviy usullariga asoslangan holda amalga oshirilishi mumkin emas, chunki bunga tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning murakkablashuvi va unda tabiat va uning resurslari, shu jumladan, yer resurslari, holatining yomonlashuvi sabab bo‘lmoqda.

Bunga bosh sabab an’anaviy intensivlashtirishning muhim yo‘nalishlari ayniqsa, ximiyalashtirishning haddan tashqari ko‘lami ortib ketganligi va ularni ekologik muvozanatga putur yetkazayotganliklaridir.

Bundan tashqari tabiiy resurslardan foydalanishning intensivlashtirishni an’anaviy yo‘nalishlari hozirda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim masalalaridan biri deb e’lon qilinayotgan barqaror rivojlanish tamoyillariga ziddir. Chunki faoliyatning bunday yo‘naltirilganligi xo‘jalik faoliyatiga jalb qilingan tabiiy resurslar samaradorligiga nafaqat bugun, balki kelajakda ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yuqoridagilarga ko‘ra tabiiy resurslardan foydalanishni intensivlashtirishning asosiy yo‘nalishi uni ekologiyalashdir.

O‘z navbatida bu muammoni hal qilish uning bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy mexanizmni shakllantirishda mujassamlashgandir.

O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonunida iqtisodiy mexanizmni asosiy konsepsiyasi shakllantirilgan, tabiiy resurslardan foydalanishga limitlar aniqlangan, tabiatni muhofaza qilish samaradorligini oshiruvchi ishlar uchun soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilgan.

Yuqoridagi qonunning qabul qilinishi tabiat bilan jamiyat o‘rtasi agro munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, uni qonuniy asoslarini mustahkamlab barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirishga ko‘maklashadi. Tabiatdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmini shakllantirish jarayoni yuz berayotgan hozirgi paytda uning doirasida tabiiy resurslardan (suv, yer, yer osti boyliklari va b.) foydalanganlik uchun to‘lov amalga oshirilmoqda, shuning bilan birga suv, havo havzalariga ifloslantiruvchi moddalar tashlanganlik va ishlab chiqarish xo‘jalik

faoliyati chiqindilarini joylashtirganlik uchun ham to'lovlar joriy qilingan. Istiqbolda bu jarayonning yanada rivojlanishi tabiiy holdir.

Shundan kelib chiqib biz quyida Farg'ona viloyatida eng muhim tabiiy resurslardan biri bo'lgan - yer resurslaridan foydalanish amaliyoti va uni ekologik-iqtisodiy talablarga mos kelishi nuqtai-nazaridan tahlil qilamiz.

Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi yurituvchi hamma sub'yektlarda 700,5 ming ga yer mavjud bo'lib, ulardan 249,5 ming ga ekinlar bilan band, ekin ekiladigan yerlarning 40,1 ming gektari sifat jihatidan qoniqarsiz ahvoldadir. Biroq, viloyatda dehqonchilik faoliyatida xavotirlantiradigan ahvol tuproq tabiiy unumdorligini xarakterlovchi muhim ko'rsatkich, ya'ni bonitet ballarining muntazam tushib borishidir.

Sug'oriladigan yerlar sifatining yomonlashuviga boshqa asosiy sabablardan biri qishloq xo'jaligi yuritishning ilmiy asoslangan tizimiga rioya qilinmayotganligidir. Yanada ochiqroq qilib aytganda dehqonchilikni ilmiy asoslangan yuritish tizimida eig muhim va asosiy rolni o'ynovchi almashlab ekishga rioya qilinmayotganligidadir. Bir maydonning o'zida bir xil ekinlar almashtirilmasdan ko'p yillar davomida ekilmoqda. Ma'lumki dehqonchilikning bunday yo'naltirilishi qishloq xo'jaligida asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan yerning (tuproqni) fizik, kimyoviy xususiyatlarini yomonlashtiradi, uning tuzilmasini buzadi va boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi. Boshqa yetarli darajada mavjud bo'lgan omillar samarasi ular ishtirokiga mos bo'lmaydi, balki cheklovchi omil miqdori bilan belgilanadi.

Ma'lumki qishloq xo'jaligida tuproq bonitet ballidan tashqari hosildorlikka yerni sho'rlanish darajasi ham bevosiga ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi oborotida bo'lgan yerlarni tahlil qiladigan bo'lsak unda aholining hayotiy ehtiyojlarini ta'minlovchi yer potentsiali sho'rlanish oqibatida anchagina pasayganini ko'rishimiz mumkin.

Sho'rlangan yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlari yetishtirish bilan bog'liq va yerlarning sho'rlanganlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, risk darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Masalan, kuchsiz darajada sho'rlangan yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi 20-25%, o'rtacha sho'rlangan yerlar 30-40% kuchli sho'rlangan yerlarda esa bu ko'rsatkich 80% gacha yetadi.

Nimagadir hozirgacha mineral o'g'itlarni ko'llash hosildorlikni oshirishning muhim omili dsb hisoblanadi va fermerlarning ishonchi komilki usiz qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olib bo'lmaydi. Biroq, qishloq xo'jaligi amaliyoti natijalarining ko'rsatishicha manzara boshqachadir. Chunki ximiyalashtirish, boshqalar bilan birga, biosferaga muntazam o'sib boruvchi texnogen bosimni kuchaytiradi. (yer, suv havzalari, daryolar, atmosfera, tirik organizmlar).

Bu xususida yana shuni aytish mumkinki tuproqqa minerallarni yuqori darajada solish uning unumdorligini asosiy ko'rsatkichi bo'lgan chiqindilarni (gumus) kamaytiradi. Bu fikrni tasdig'i sifatida shuni aytish kerakki. Ushbu soha olimlari tadqiqotlarining ko'rsatishicha mineral o'g'itlarni qo'llash tuproqda mikroorganizmlarni kamaytirib yuboradi, ular esa unumdorlik va o'g'itlar samaradorligini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mikroorganizmlar tuproq sharoitiga va qo'llanilayotgan o'g'itlarga bog'liq holda ancha o'zgarib turadi. Agroximikatlarning ta'siri ostida ular kuchli darajada kamayadi, mahalliy o'g'itlar ta'sirida esa ular, aksincha, 1,5-2,0 marta ko'payadi.

Yuqoridagilarga ko'ra insoniyat oldida dehqonchilikni yanada rivojlantirish yerning yuqori unumdorligini va ekologik xavfsizligini ta'minlashning alternativ yo'llarini izlab topish muammosi kelib chiqdi.

Shuning uchun eski, an'anaviy texnologiyalar o'rniga biotexnologiyalar kirib kelmoqda va hozirgi bosqichda faqat ular yordamida insoniyat oldida turgan ekologik, energetik va oziq-ovqat muammosini hal qilish mumkin.

Rivojlanishning shunday yo'nalishlaridan biri bu organik dehqonchilikdir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida va ekologik tanglik paytida mustaqil O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tabiatning barcha boyliklariga ehtiyojlari benihoya katta. Kelajak avlodimizning taqdiri, baquvvatligi, sog'lig'i ob-hayotimiz bilan bog'liq ekan, demak qabul qilinayotgan suv to'g'risidagi qonun, qaror va farmonlar suv boyliklaridan oqilona foydalanish, uni bulg'anish, ifloslanish hamda kamayib ketishdan saqlash ishiga ko'maklashishi lozim. Asosan suv resurslarini huquqiy ekologik muhofaza qilish maqsadida huquqiy ilmiy yo'nalishni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Suvdan foydalanish Respublikamizda 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonun va boshqa qonunlar bilan tartibga solinadi.

Yer osti boyliklaridan foydalanish va himoya qilishning huquqiy rejimi. O'zbekiston Respublikasida barcha yer osti boyliklari davlat mulkini tashkil qiladi. Yer osti boyliklari faqat foydalanish uchun beriladi va yer osti boyliklari yaxshi davlat fondini tashkil qiladi.

1993 yil 6 mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» gi qonuni qabul qilinib, u suv va suvdan foydalanishga doir munosabatlarni tartibga solishdan, aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanishdan, suvni bug'lanish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashdan, suvning zararli ta'sirini oldini olish va uni bartaraf qilishdan, suv ob'ektlarining holatini yaxshilashdan, shuningdek, suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishdan iborat bo'ldi. Davlatlararo daryolar Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlardan foydalanish huquqiy davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi. Qonunning 5-moddasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari quyidagicha ko'rsatiladi:

- suvga doir qonunlar qabul qilish, ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

- suv resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash hamda suv xo'jaligiga oid davlat miqyosidagi strategik masalalarni hal qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasarrufiga kiradigan boshqa masalalarni hal etish

Suvdan foydalanish huquqiy tushunchasi asosan ikki holat bilan izohlanadi.

1. Bu suv huquqining asosiy institutlaridan biri bo'lib, suv va suvdan oqilona foydalanish, uni muhofaza qilish hamda suv bilan bog'liq barcha muammolarni o'z ichiga oladi.

2. Suvdan foydalanish va uni muhofaza etish bilan bog'liq bo'lgan suv foydalanuvchilarining huquq va majburiyatlari bilan bog'liqdir. Suvdan foydalanish huquqi bir qator prinsiplarga asoslanadi:

- suv resurslaridan oqilona foydalanish;
- suv resurslarini muhofaza qilish;
- boshqa barcha tabiat boyliklari bilan chambarchas bog'liqligi;
- suv resurslaridan qonunda ko'rsatilgan aniq maqsadlarda foydalanish;
- suvdan foydalanish davlatning ekologik siyosati bilan bevosita bog'liqligi;
- suvdan foydalanganlik uchun tegishli haq to'lash lozimligi;
- suv qonunchiligi bilan birga boshqa barcha ekologik qonunlarni o'z vaqtida kechiktirmay amalga oshirish va bajarish;
- suvdan foydalanish bilan bog'liq xalqaro shartnomalar va konvensiyalarni o'z vaqtida bajarish va boshqalar.

Suv manbalarini muhofaza qilish ulardan oqilona foydalanish, ular to'g'risidagi qonunlarni o'z vaqtida bajarish va ularga amal qilish suv bilan bog'liq huquq-buzarliklarning oldini oladi va unga qarshi kurashishga yordam beradi. Suvdan foydalanish qonunchiligini buzganlik uchun quyidagi javobgarliklar ko'zda tutilgan: jinoiy, mulkiy, ma'muriy, umumintizomiy. Suvdan foydalanish qonunchiligini buzish quyidagi hollarda yuzaga keladi:

1. Suvdan foydalanish huquqini boshqa shaxsga noqonuniy yetkazib berish.
2. Suv ob'yektlarini o'zboshimchalik bilan egallash
3. Suvlarni ifloslash.
4. Tozalash qurilmalarisiz sanoat korxonalarini ishga tushirish.
5. Suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalarini buzish.
6. Suvlardan xo'jasizlarcha foydalanish va boshqarish.

Yuqoridagi talablar bajarilmaganda intizomiy, fuqarolik, ma'muriy, jinoiy jazo choralari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mamlakatimizda ekologik — iqtisodiy siyosatni olib borish huquqi paydo bo'ldi. Shu sababdan, ekologik iqtisodiy siyosatni to'g'ri olib borish va respublikada tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni davlat tomonidan boshqarish masalalari aynan dolzarb muammo sifatida ko'rilishi mumkin. Ushbu masalaga respublikamizda alohida ahamiyat berilib ko'plab ekologiyani asrash borasida tashkilotlar va fondlar faoliyat olib bormoqdalar. Ular tarkibiga "Ekosan" fondi, "Tabiatni asrash" davlat qo'mitasi, "Orolni asrash" fondi, "Ekologiya" fondlari kiradi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 aprelda qabul qilgan «Toshkent shahrining 2200 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash doirasida «Ekosan» ekologiya va salomatlik xalqaro jamoatchilik jamg'armasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirlar amaliyotda o'z ifodasini topmoqda.

Aytish joizki, O‘zbekiston poytaxti bugungi kunda ham jahon hamjamiyati uchun inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni saqlash hamda rivojlantirish asosini tashkil etadi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan Toshkentda ulkan qurilish, rekonstruksiya va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda, yashil maydonlar kengaymoqda. So‘nggi yillarda poytaxtimizda umumiy maydoni 3 ming gektardan ortiq yangi bog‘ va xiyobonlar yaratildi, o‘nlab ajoyib favvoralar, sun‘iy suv havzalari barpo etildi.

Takrorlash uchun savollar

1. Tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish tizimi va atrof-muhitni saqlash.
2. Davlatning ekologik siyosatining shakllanishi.
3. Davlatning tabiatdan foydalanish vazifalari.
4. Ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo‘nalishlari nimalardan iborat?
5. Atrof muhitni muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
6. Suv zaxiralari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar qaysilar?
7. Suv resurslaridan oqilona foydalanish nima?
8. O‘zbekiston Respublikasida tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida normativ-huquqiy bazaning rivojlanishi, shuningdek, Orol muammosi bugungi kunda qanday yechimini topmoqda?

17-mavzu. O‘zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solinishi. (4 soat)

1-ma’ruza mashg‘uloti

- 17.1. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlari va ularni tartibga solish prinsiplari.
- 17.2. Ilmiy asosga ega bo‘lgan tashqi iqtisodiy strategiya va siyosat.
- 17.3. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va uning tarkibiy qismlari.

2-ma’ruza mashg‘uloti

- 17.4. Tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi.
- 17.5. Davlatning bojxona siyosati va uning maqsadi, usullari.
- 17.6. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarida ishtirok etishini davlat tomonidan tartibga solishi.

Tayanch iboralar: Jahon xo‘jaligi, milliy iqtisodiyotning baynalminallashuvi, eksport kvotasi, xalqaro mehnat taqsimoti, eksport bo‘yicha ixtisoslashuv koeffisienti, xalqaro iqtisodiy integratsiya, jahon xo‘jaligining globallashuvi. global muammolar, transmilliy korporatsiyalar, xalqaro savdo, mutlaq ustunlik (afzallik), qiyosiy afzallik, import qilingan inflyasiya, eksport, import, tashqi savdo balansi, to‘lov balansi, valyuta, valyutaning konvertirlanishi, valyuta kursi, xarid quvvati pariteti

Annotatsiya

Umumjahon xo'jaligi doirasida iqtisodiy aloqalar turli shakllarda olib boriladi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar o'z ichiga:

- xalqaro savdo;
- ishchi kuchi migratsiyasi;
- kapital migratsiyasi;
- valyuta munosabatlari;
- fan-texnika aloqalari va boshqalarni oladi.

Xalqaro savdo. Xalqaro aloqalar, avvalo, xalqaro savdo tariqasida boshlanib, jahon bozorining shakllanishiga olib keldi. Jahon bozori esa, o'z navbatida, umumjahon xo'jaligining tarkib topishiga olib keldi.

Xalqaro savdo mamlakatlar o'rtasida yuz beradigan savdo-sotiq munosabatlari bo'lib, ular tovarlarni chetga chiqarish (eksport) va chetdan olib kelish (import)ni o'z ichiga oladi.

Xalqaro savdo asosini xalqaro mehnat taqsimoti va uning chuqurlashuvi, mamlakatlarning u yoki bu tovarning ishlab chiqarishda tutgan qiyosiy ustunligi belgilaydi.

Jahon bozori davlatlarni tashqi iqtisodiy siyosatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Unda faqat umumiygina emas milliy manfaatlar ham o'z ifodasini topadi.

Jahon bozorida keyingi yillarda sodir bo'lgan o'zgarishlar qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Jahon bozorida uzoq vaqt AQSH gegemonlik qilgan bo'lsa, endi borgan sari AQSH o'zining ilgarigi salohiyatini yo'qotib bormoqda. Bir vaqtlar AQSH jahon eksportining 1/3 qismini tashkil etgan bo'lsa, 80- yillarda 1/8 tushdi. Hozirgi paytda 1/10 atrofida. Borgan sari, bu borada Yaponiyaning hissasi AQSH ga yaqinlashib bormoqda.

2. Singapur, Janubiy Koreya, Braziliya, Argentina kabi yangi industrial mamlakatlarning jahon eksportidagi hissasi ortib bormoqda.

3. FTR natijasida xalqaro savdoning tovar tarkibi o'zgarmoqda. Murakkab texnologik mahsulotlar eksporti elektrotexnika, elektr uskunalari, transport vositalari hissasi ortib boryapti.

4. Ayrim sanoat tarmoqlari, jumladan, kimyo sanoati nihoyatda ixtisoslashib bormoqda. Natijada, yirik eksportyorlar, o'z navbatida, yirik importyorlar ham bo'ladi.

5. Ko'pgina mamlakatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirib, o'zini-o'zi ta'minlaganligi sababli, jahon bozori tovar oboroti tarkibida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hissasi kamayib bormoqda.

6. Rivojlanayotgan mamlakatlar eksportining tovar strukturasida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ilgari, asosan xom ashyo, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, 60-yillardan boshlab sanoat mahsulotlari, ayniqsa, yengil sanoat mahsulotlarining hissasi o'sib bormoqda.

7. Jahon eksportida borgan sari xizmat ko'rsatish ulushi ortib bormoqda.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda transport xizmati ko'rsatishning ahamiyati beqiyos.

Transport xizmati ko'rsatish — bu yangi yo'llar, transport, kompleks servis xizmati ko'rsatishning rivojlanishigina emas, balki xalqaro integratsiya zanjirining muhim halqasidir. Shuning uchun xalqaro miqyosda bu sohaga ahamiyat kuchaymoqda. Respublikamizda ham chet el davlatlari bilan havo, temir yo'l, avtomobil yo'llari orqali aloqalarni kuchaytirishni ko'zda tutgan holda, yangi-yangi yo'l qurilishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston BMTning «Tranzit yuk tashishda hamkorlikni rivojlantirish orqali savdoni kengaytirish» dasturini ro'yobga chiqarishda ishtirok etmoqda.

O'zbekiston Pekinni Istanbul bilan bog'laydigan "Transosiyo" magistralining tarkibiy qismi bo'lgan "Tajan-Saraxs-Mashhad" temir yo'lini qurishda faol qatnashdi. Hozirgi paytda «Traseka» loyihasini amalga oshirishda faol qatnashayapti.

«Ta'sis» dasturi doirasida Yevropa Ittifoqining texnikaviy yordamini amalga oshirish orqali «Traseka» loyihasini ro'yobga chiqarish O'zbekistonni kommunikatsiya va transport bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda g'oyat istiqbolli ahamiyatga ega. Bu loyiha Markaziy Osiyo mamlakatlari, Ozarbayjon, Gruziya hududi orqali Qora dengiz bandargohlariga olib chiqadigan "Transkavkaz" magistralini vujudga keltirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston temir yo'l qurilishida ishtirok qilish bilan birga, Xitoy va Pokistonga olib boruvchi "Toshkent - Andijon - O'sh - Ergashtom – Kashg'ar" avtomobil yo'li qurilishida muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, "Buxoro-Saraxs-Mashhad-Tehron" va "Termiz - Hirot - Kandaxor – Karachi" avtomobil yo'llarini qurish, qayta ta'mirlashda ham o'z hissasini qo'shmoqda.

Keyingi paytda jahonda tovar savdosini borgan sari xizmat ko'rsatishning turli shakllari bilan bog'liq holda olib borish keng yoyilmoqda. Ayniqsa, «Internet» orqali savdo-sotiq olib borish kengayib bormoqda.

Xalqaro savdo o'z doirasini fan-texnika yutuqlarini ayirboshlash, hamda intellektual tovarlar, axborot ayirboshlash bilan boyitdi.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi XX asrning 70- yillaridan boshlab, ishchi kuchi migratsiyasi keng yoyildi, ya'ni mehnat resurslarini bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chib o'tishi kuchaydi.

Buning sabablari turli-tuman. Ulardan eng asosiylari iqtisodiy sabablar bo'lib:

1. Ishsizlik darajasidagi farq.
2. Ish haqidagi farq.
3. Turmush darajasidagi farq.
4. Sharoitdagi farq va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Umumjahon xo'jaligida ishchi kuchi migratsiyasining jadallashuviga quyidagi omillar sabab bo'ladi.

1. Transport va o'zaro aloqalarning rivojlanishi ish kuchining geografik jihatdan ko'chib yurishini osonlashtiradi.

2. Ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotni axborot bilan ta'minlash turli mamlakatlar fan va madaniyat sohalari, bilim va malaka mezonlarini yaqinlashtiradi.

3. Transmilliy korporatsiyalar faoliyati faqatgina ish kuchini geografik jihatdan ko'chib yurishinigina emas, jahon miqyosida qo'llash sharoitlarini ham tenglashtirish imkonini yaratadi.

Xalqaro kapital migratsiyasi. Xalqaro munosabatlarda kapital migratsiyasi muhim o'rin tutadi. Kapital migratsiyasi ikki shaklda yuz beradi:

1. Chetga tadbirkorlik kapitali chiqarish yoki chet elda iqtisodiy faoliyatni investisiya qilish;

2. Ssuda kapitali chiqarish yoki xalqaro kredit.

Kapital migratsiyasi bu ma'lum manfaatli maqsadga qaratilgan pul mablag'larini bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chishini ifodalaydi.

Chetga kapitalni tadbirkorlik (sohibkorlik) kapitali tarzida chiqarish ikki xil: to'g'ridan-to'g'ri va portfel shaklida chiqariladi.

Tadbirkorlik (sohibkorlik) kapitali chiqarishda uzoq muddatli chet el investisiyalari savdo, sanoat va boshqa sohalarga qo'yiladi.

To'g'ridan-to'g'ri kapital chiqarish bu – investisiya miqdori chet el korxonalarini nazorat qilish huquqini beradigan darajada kapital qo'yishdir.

Dunyo iqtisodida **erkin iqtisodiy zonalar** alohida o'rin tutmoqda. Bu zonalar tashkil qilish bozor iqtisodiyotining ochiq iqtisod bo'lishidan kelib chiqadi. Bu zonalar alohida maqomga ega bo'lib, turli mamlakatlardagi bunday zonalar xarijiy va milliy tadbirkorlar faoliyati uchun qulay, imtiyozli sharoit yaratilgan. Bu zonalar o'z faoliyati yo'nalishiga qarab turlicha: **erkin savdo zonalari, erkin boj hududlari, erkin sanoat zonalari, erkin «ochiq» zonalari, texnologiya zonalari, kompleks zonalari**dan iborat bo'lishi mumkin.

Xalqaro kredit berish ikki yo'nalishda amalga oshiriladi:

A) Odatdagi ssuda kapitali bozoridagi talab va taklif asosida shakllanadigan prosent asosida beriladigan kredit. Bu kreditlarni banklar, TMKlar, moliya korporatsiyalari beradi;

V) Imtiyozli yoki tekin beriladigan kredit. Bu kreditlarga olinadigan prosentlar nihoyatda past bo'ladi yoki umuman prosent olinmaydi. Bunday kreditlar boy davlatlar, o'ta yirik kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar tomonidan maxsus xalqaro dasturlarni amalga oshirish uchun beriladi.

Mamlakatlarning barcha iqtisodiy munosabatlari ularning **to'lov balansida** aks etadi. To'lov balansi 4 asosiy bo'limdan iborat:

1. Savdo balansi — tovarlar eksporti: daromadlari va import xarajatlari;

2. Xizmatlar balansida unda ko'rsatilgan xizmatlarga olingan daromadlar va chet el xizmatlaridan foydalanganlik uchun xarajatlar ko'rsatiladi. Bu balansda moliya xizmatlari uchun to'lovlar dividend, prosentlar ham o'z ifodasini topadi. Bu balansda chet el fuqarolaridan va davlatdan fuqarolarga transfert to'lovlari, chet el aktivlarini xarid qilish ham kiritiladi.

3. Notijorat operatsiyalar balansi. Bu balans hamma turdagi bepul tovarlar yetkazib berish, yordam va xayriya pullarini ko'chirishni o'z ichiga oladi.

4. Kapital va kreditlar harakati balansi. Bu balansda davlat va xususiy kapitallarning harakati hamda olingan, berilgan xalqaro kreditlar nisbati ifodalanadi.

To'lov balansini davlat bir necha usullar bilan tartibga soladi:

1. Bevosita nazoratni amalga oshirish. Bunda importni cheklash bojxona va boshqa yig'imlar, aksizlar, uzoq yoki qisqa muddatli kapital chiqarish nazorati, chet el investisiyalari bo'yicha daromadlarni olib chiqishni cheklash, taqiqlash orqali amalga oshiriladi.

2. Deflyasiya¹⁵ orqali. U ichki iqtisodiy vazifalarni yechishga qaratilgan bo'lib, lekin undan to'lov balansining ahvolini yaxshilashda foydalaniladi. Chunki ichki vaziyat tashqi munosabatlarga albatta ta'sir ko'rsatadi.

3. Valyuta kursini o'zgartirish. Har bir mamlakat ob'yektiv zaruratdan kelib chiqib, «suzib yuruvchi» (moslashuvchi) yoki qat'iy qayd etilgan valyuta kursini tanlaydi.

¹⁵ Дефляция (инг. deflatic) – нархнинг умумий даражасини барқарор равишда пасайтириш. Вақт бирлиги мобайнида нархнинг умумий даражасини пасайтиришнинг пропорционал суръати.

**MAVZULAR BO‘YICHA TAQDIMOT
SLAYDLARI VA VIDEO ROLIKLAR**

“Real sektorni davlat tomonidan tartibga solish” fanidan umumiy slaydlar

Давлат миллий иқтисодиётни тартибга солишда бир қатор усуллардан фойдаланади

бевосита таъсир қилиш усуллари;

билвосита таъсир қилиш усуллари;

ташқи иқтисодий усуллар.


17

Давлат иқтисодиётни бевосита тартибга солишда маъмурий воситалардан фойдаланади ва у давлат ҳокимияти кучига таянади



20

Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солишнинг бир қатор шакллари ҳам ажратиб кўрсатиш мумкин:



27

Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солишнинг олий шакли давлат иқтисодий дастурлари ҳисобланади.



Мақсадли дастурларнинг объекти тармоқлар, минтақалар, ижтимоий соҳалар ва илмий тадқиқотларнинг ҳар хил йўналишлари бўлиши мумкин.

28

Эски тузумдан мерос қолган иқтисодий онг ва қарашлар

- Бой бўлишнинг таъқиқланиши.
- Бир хил нархга кўникиш (нарх дифференциацияси деярли йўқ, марказлашган).
- Ижтимоийлик руҳиятининг кучайиб кетиши. тепадан буйруқ кутиш.
- Шахсий ташаббус ва тадбиркорликнинг чекланиши.
- Эрикн бозор иқтисодиттини тан олмаслик.
- Иқтисодиётни марказлашган режа асосида бошқарилиши.

Бозор муносабатларининг шаклланишига хайрихоҳ бўлмаган субъектлар мавжуд эди. Улар:

1. Соғлом бозор муносабатлари бошқарув органлари ходимларини қулай моддий таъминот ва имтиёзлардан маҳрум қилади.
2. Корхона раҳбарларининг янги шароитга бардоши қийин кечади.
3. Кишилар ўртасида боқимандалик ва текисчилик кайфиятининг кучайган ҳолда мавжудлиги.
4. Хуфиёна иқтисодиёт юритувчилар қаттиқ рақобатга учрайди.

Бозор муносабатларига ўтиш йўллари

Классик йўл – бу йўлдан Ғарбий Европа мамлакатлари, АҚШ ва Япония каби мамлакатлар борган. Бу йўлда бозор муносабатларининг қарор топиши секин-аста боради ва узоқ давом этади. Бу жараён деярли 300 йил бўлган. Бу табиий-тарихий жараён бўлган ва иқтисодиётдаги ўзгаришлар ўз ҳолича юз берган.

Бозор муносабатларига ўтиш йўллари

Мустамлакачиликдан озод бўлган мамлакатлар йўли – бу йўлдан кўпчилик озод бўлган Осиё, Африка ва Лотин Америкаси мамлакатлари борган. Бу йўлнинг муҳим белгиси, биринчидан, анъанавий иқтисодиётдан бозор иқтисодиётига ўтилиши, иккинчидан мустамлакачилик даврида яратилган хориж сектори тусидаги бозор муносабатларидан миллийлашган сектордаги, мустақил тусдаги бозор муносабатларига ўтилишидир.

Бозор муносабатларига ўтиш йўллари

Тоталитар режали тизимдан бозор
иқтисодиётига ўтиш йўли. Бу бозор
иқтисодиётига ўтишнинг энг сўнгги
йўли бўлиб, бу йўлдан собиқ
социалистик мамлакатлар ва
республикалар бормоқда

Бозорга ўтишнинг муқобил йўллари	
Муқобил йўللари	Асосий ғоялар
«Гангитувчи терапия» ёки «фалаж килиб даволаш усули»	•Бу йўлни жарроҳлик аралашуви ёки аччиқ, аммо зарур дори ёхуд гангитувчи терапия дейишади. Бу йўл номақбулдир. Чунки у амалда жуда ҳам қисқа муддатли молиявий чора-тадбирлардан бўлак бошқа ҳеч нарса эмас. •У амалда «терапиясиз шок» бўлиб қайтади
«Қаттиқ каркас йўли»	Ўта муҳим товарларга давлат томонидан нарх ўрнатади ва назорат қилинади. Бу билан ишлаб чиқариш, алмашув, тақсимот қаттиқ қаркас остида бўлади. Шу йўл орқали халқ ҳўжалиги пропорциялари, иқтисодий барқарорлик ва ижтимоий ҳимоя марказдан туриб бошқарилади. Бу йўл «карточка» тизимини аниқлатади.
«Оммабоп бозор ёки бозор иқти- содиётига бошловчи йўл	Бу йўл мавжуд бошқарув тизимини тубдан ўзгартиришни талаб қилмайди. Режали тизим ўтиш даврида иқтисодиёт барқарорлигини, ишлаб чиқаришда эришилган даражани сақлашга ёрдам беради. Бозор дастлаб ишлаб чиқаришнинг бир қисmini, сўнггра бозор инфраструкту- расини барпо этилиши билан асосий қисmini қамраб олади.

Иқтисодиётни ислоҳ қилиш модели – бу ҳар бир мамлакатда ривожланишнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда тараққиётнинг устувор йўналишларини белгилаб олишдир. Бу моделлар иқтисодий концепциялар тариқасида амал қилади.

Улар:

- а) эҳтиёжларни қондириш бош масал сифатида қаралади;
- б) иқтисодий даражага нисбатан ишлаб чиқариш технологияни жорий этиш ва иш билан таъминлаш;
- в) ички имкониятларни янада ишга солиш орқали ташқи қарамликдан холи бўлиш;
- г) юқори технология сари йўл тутиш.

Бозор ислохотлари – бу хусусий мулк устувор бўлгани ҳолда мулккий хилма-хилликка эришиш. Фаолият эркинлигини таъминлашга қаратилган чора-тадбирлар йиғиндисидир.

Бозор ислохотларини чуқурлаштириш учун:

- Мулккий хилма-хиллик;
- Иқтисодий эркинлик;
- Тадбиркорлик фаолиятининг устуворлиги;
- Социал йўналтирилганлик;
- Рақобатчилик ва иқтисодий рискни мавжудлиги;
- Очиқлик;
- Ҳамма учун тенг имкониятларнинг бўлиши;
- Бой бўлишга интилишнинг борлиги;
- Социал мувозанатни таъминланиши кабилар бўлиши талаб этилади.

Иқтисодий эркинликларнинг объектив асослари

- Субъектларнинг мулк эгаси бўлиши;
- Субъектларнинг манфаатлар жиҳатидан фарқланиши;
- Субъектларнинг иқтисодий жиҳатдан алоҳидалашганлиги ва мустақиллиги;
- Товар-пул муносабатларининг мавжудлиги.

Бозор муносабатларини ривож топишига салбий таъсир этувчи ҳолатлар

- Иқтисодиётнинг ҳаддан зиёд мавкуралаштирилганлиги, унинг манфаатларига иқтисодиётнинг бўй сундирилиши;
- Ҳаёт кечириш учун неъматлар ишлаб чиқаришни издан чиққанлиги;
- Давлатнинг иқтисодиётга аралашув даражасининг ортиб кетиши натижасида ишлаб чиқариш субъектлари фаолиятига салбий таъсир этганлиги;
- Одамлар тафаккурида келажакка бўлган ишончнинг сўниб бориши;
- Аҳолининг моддий аҳволи кескин ёмонлашиши ва камбағаллик даражасининг кучайиши;
- Даромадларнинг ўстириш имкониятларининг чекланганлиги.

Ўзбекистон модели қуйидагилар асосида
яратилди:

- а) тарихан шаклланган шарқона турмуш тарзи;
- б) бой табиий ресурсларнинг мавжудлиги;
- в) табиий-иқлим шароитининг ўзига хослиги;
- г) Республикадаги деморафик ҳолат.

Ўзбекистон иқтисодиётининг ривожланиш тенденциялари
мантиқан қуйидаги йўналишлар билан изоҳланади:

- 1) Бозор иқтисодиётини инқилобий ўзгаришлар йўли билан эмас, балки босқичма-босқич изчиллик билан амалга ошириш:
 - бир босқични тугатиб, кейин иккинчисига ўтиш;
 - одамларда рухий кўникмалар ҳосил қилиш;
- бозор муносабатларини сунъий равишда, тазйиқ ўтказиш йўли билан амалга ошириб бўлмаслиги.
- 2) Бозор қоидаларини жорий этиш билан бирга, инсонларни ижтимоий ҳимоя қилиш тадбирларини изчил тадбиқ этиш:
 - аҳолининг ночор қатламини ўз вақтида ҳимоя қилиш;
 - ишсизликнинг чуқурлашувини олдини олиш;
- ижтимоий муҳофаза қилиш манбаларини ва воситаларини белгилаш.

- 3) Иқтисодиётни сиёсий мафкура таъсиридан холи этиш:
- иқтисодиёт ўз қонун-қоидалари асосида ривожланиши керак;
 - сиёсий ўйинларнинг иқтисодиётга таъсирини жиддий чеклаш керак;
 - иқтисодий эркинлик демократик давлатни қарор топтиришга кўмак бериши керак.
- 4) Субъектларнинг иқтисодий манфаатлари биринчи ўринга қўйилиши ва бу давлат манфаатлари билан уйғунлашувини таъминлаш:
- инсон ўз қобилиятларини намоён қила олиши учун кенг шароитларнинг бўлиши;
 - қайси манфаатлар устунлигини ўз даврига нисбатан белгилаш;
 - иқтисодий адолат мезонларини изчил амалда қўллаш.

Иқтисодийни ислоҳ қилишнинг стратегик мақсадлари
Ўзбекистонда шакллантирилаётган ва риқож топиб бораётган иқтисодий тури ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти ҳисобланади. Бунда иқтисодийнинг очиқлик даражасининг кучли бўлиши ва ҳукукий қонун-қоидаларга ҳамда ижтимоий йўналишнинг устуворлиги асосий мезон бўлади.
Мухим стратегик мақсадлар қуйидагилардан иборат:
1. Ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиёти – умумий истеъмолдаги хизматлар, аҳолининг муҳтож қисмини ҳимоялаш, иқтисодийнинг илм талаб соҳаларини ривожлантиришга устуворлик бериш, интеллектуал мулкнинг ривожига устуворлик бериш ва умуман ижтимоий аҳамиятга молик йўналишларга давлат ва нодавлат ташкилотларнинг таъсири кучли бўлган иқтисодий тузилмадир. Бунда стратегия ислохотларни босқичма-босқич шакллантириш, қудратли ва тинимсиз ривожланиб борадиган, миллий бойликнинг ортишини, кишилар ҳаёти ва фаолияти учун зарур шарт-шароитларни таъминлайдиган иқтисодий тизимни барпо этишга қаратилади.

2. Турли мулк шакллари ҳаракатига асосланган кўп укладли иқтисодийни яратиш, ташаббускорлик ва тадбиркорликни изчил ривожлантириш ва иқтисодийнинг бош негизи бўлган хусусий мулкнинг кулами ва таъсирини муттасил ошириб бориш.

3. Хужалик юритувчи субъектларга кенг иқтисодий эркинликлар бериш, уларнинг хўжалик фаолиятига текширувчи ва назорат қилувчи органларнинг асоссиз аралашувини чеклаш, иқтисодийни бошқаришнинг маъмурий-буйруқбозлик усуллари бартараф этиш, иқтисодий омиллар ва рағбатлантириш воситаларидан кенг ҳамда самарали фойдаланиш.

4. Ўзбекистоннинг жаҳон иқтисодий тизимида изчил қўшилиб боришини таъминлаш учун рақобатбардош маҳсулотларни ишлаб чиқариш, иқтисодиётда моддий, табиий ва меҳнат ресурсларидан самаралий фойдаланишни таъминлаш, бунга иқтисодиётда чуқур таркибий ўзгаришларни амалга ошириш орқали эришиш.

5. Кишиларда янгича иқтисодий қарашларни ва фикрлашни шакллантириш, уларнинг иқтисодий дунёқарашини ўзгартириш, ҳар бир кишига ўз меҳнатини сарфлаш соҳаси ва шакллари мустақил белгилаш имконини бериш.

4. Малакатимизда ишлаб чиқарилаётган маҳсулотларни диверсификация қилиш бўйича кенг кўлимли ишлар амалга оширилди.

- 2015 йилда саноат ишлаб чиқариш таркибида юқори қўшимга қийматга эга бўлган тайёр маҳсулотларнинг улуши 50 %дан зиёдни ташкил этди;
- 160 дан ортиқ янги саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш йўлга қўйилди: “Спарк” автомобили, “МАН” автомобиллари, энергия тежайдиган лампалар, “ЭлЖи” русумидаги холодильникларни йиғиш, калий ўғитлари ва маҳсулотлар;
- Маҳаллийлаштириш дастури доирасида 1 минг 76 та лойиҳа амалга оширилди. Маҳаллийлаштирилган маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажми 1,4 баробар ошди.

III. Молия-банк тизими ликвидлигини янада мустаҳкамлаш, унинг барқарорлигини кучайтириш бўйича катта ишлар амалга оширилди

- Тижорат банкларининг жами капитали 36 %га ортди;
- Депозитлар ҳажми 1,5 баробар ошди;
- 15 та тижорат банки “Фитч Рейтингс”, “Мудис” ва “Стандарт энд Пурс” каби етакчи халқаро рейтинг агентликларининг “барқарор” деган рейтинг даражасига эга бўлди;
- Иқтисодиётнинг реал секторига йўналтирилган кредитларнинг умумий ҳажми 1,4 баробар кўпайди ва 2,7 триллион сўмни ташкил этди;
- Тижорат банклари балансига берилган 147 та банкрот корхонанинг 140 тасида ишлаб чиқариш қайта тикланди. Уларнинг 64 таси янги инвесторларга сотилди.

28

IV. Иқтисодиётнинг аграр секторида таркибий сифат ўзгаришлар юз бермоқда

- Озиқ-овқат маҳсулотлар ишлаб чиқариш тармоқларини ривожлантиришга жиддий эътибор қаратилди.
- Ерларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилашга 150 миллиард сўмдан ортиқ маблағ йўналтирилди. 62 миллион доллардан зиёд халқаро молия ташкилотларининг маблағлари жалб қилинди.

29

Солиқлар воситасида реал секторни тартибга солишга оид назарий қарашлар

Солиққа тортиш илк кўринишларидан бири - бу мағлуб бўлган давлатдан совға тариқасида ундирилган.

Мағлуб бўлган давлат ғолиб давлатни моддий жихатдан таъминлаб туришлари (ёки пул тўлаб туришлари) шарт эди.

Бошқача қилиб айтганда - солиқларнинг биринчи шакли мағлублардан солиқ (ёки мағлублар солиғи) сифатида ундирилган.

Алмашинув назарияси



Бу назариянинг мохияти шундан иборатки, фуқаролар ташқи кучлар хужумидан химояланишни, давлатда тартиб сақлашни ва бошқаларни давлатдан тўлаган солиқлари хисобига сотиб олишади. Ушбу назария фақатгина ўрта асрлар шароитига мос бўлиб, ўша даврда бож ва йиғимларга харбий ва ҳуқуқий химоя сотиб олиниши сифатида қаралиб, гўё қирол ва фуқаролар ўртасида тузилган шартнома сифатида қаралган.

Асосий солиқ назариялари XVII асрдан бошлаб шакллана бошлади ва асосий тамойилларнинг мужассамлашганлиги сифатида буржуазия илмида **умумий солиқ назарияси** номини олди.



- Алмашинув назарияси
- Классик солиқ назарияси
- Кейнсчилик назарияси
- Неокейнсчилик назарияси
- Монитаризм назарияси
- Таклиф иктисодиёти назарияси

Классик солиқ назарияси

(Солиқнинг нейтрал назарияси) анча юқори назарий аҳамиятга эга бўлиб, ушбу назария шотландиялик иқтисодчи А.Смит (1723-1790 йиллар), инглиз иқтисодчиси Д.Рикардо (1772-1823 йиллар) ҳамда уларнинг давомчиларининг илмий фаолиятлари билан боғлиқдир. Бу назария тарафдорлари солиқни давлатнинг харажатларини қопловчи бир даромад сифатида қарашган. Ушбу қарашлар А.Смитнинг бозор иқтисодиёти назариясига асосланган эди. Бозор шароитида ҳўжалик субъектларининг мустақиллиги ва эркин фаолият кўрсатиши талаб этилади. А.Смит давлат бошқарувининг марказлашган шаклига қарши чиқиб, бу борада қуйидагиларни баён этади: «Марказлашган бошқарув тизимидан марказлашмаган бошқарув тизимига ўтиш талабни қондиришнинг максимал даражага етишини таъминлайди.

Бозор иқтисодиёти бирор бир тарзда бошқарилмаса ҳам, у қатъий қоидаларга бўйсинади». Шунингдек, А.Смит давлат бозор иқтисодиёти ривожланишини таъминлаши ва мулкдорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиши керак деб ҳисоблайди. Бу функцияларни бажариши учун давлатга маълум миқдордаги маблағлар керак. Бозор иқтисодиёти шароитида давлатнинг тўғридан-тўғри даромади камаяди, шунинг учун юқоридаги харажатларни қоплаш учун солиқлардан тушумлар асосий ўринни эгаллаши керак. Давлатнинг бошқа харажатларини молиялаштириш (қурилиш, йўллар, суд органларининг бинолари ва бошқалар учун харажатлар) бож ва йиғимлар ҳисобига, яъни ушбу хизматлардан манфаатдор шахслар ҳисобига амалга оширилади. Шунинг учун солиқлар беминнат хусусиятга эгаллиги, бож ва йиғимлар эса солиқ сифатида қаралмаслигига урғу берган.

Кейнсчилик назарияси




Кейнс солиқ ставкаларини прогрессив бўлишини ёқлаган. Чунки, прогрессив солиқ ставкалари ишлаб чиқарувчини капитал қўйилмаларга нисбатан бўлган рискни қабул қилишга рағбат беради. Унинг назариясини асосий шартларидан бири тўлиқ бандлик шароитида жамғармаларни иқтисодий ўсишга таъсир қатталигидир. У қатта миқдордаги жамғармаларни ишлатилмаслиги иқтисодий ўсишга тўсқинлик қилишини таъкидлайди, чунки у даромадларнинг пассив манбаи ҳисобланади. Ишлатилмаётган ортиқча жамғармаларни олишини кўзда тутиб, давлатнинг аралашуви лозим деб ҳисоблайди. Давлат солиқлар орқали даромадларни олинишига ва олинган маблағларни инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришга ва ўзининг харажатларини қоплашга интилишини кўрсатади.

Кейнснинг фикрича юқори солиқ ставкалари ижобий роль ўйнайди. Юқори солиқ ставкалари бюджетни ажралмас қисми бўлиб, бу категория иқтисодиётни тартиблаганга ёрдам беради. Солиқ ставкаларини пасайтириш эса бюджет даромадларини камайишига олиб келади ва иқтисодий нобарқарорликни кучайтиради.



